

B.Ruzmetov, B.A.Ibragimov,  
Sh.B.Ruzmetov G.O`Qurbanbayeva,

# IQTISODIYOT NAZARIYASI



**BBK: 65.290-86**

**MA'SUL MUHARRIR:**  
**D.Xudayberganov, UrDU “Turizm” kafedrasi dotsenti v.b., i.f.n.**

**TAQRIZCHILAR:**

- 1. I.S.Abdullayev, UrDU “Kasb ta’limi” kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent;**
- 2. K.E.Radjapov, UrDU “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti v.b., i.f.n.**

**Iqtisodiyot nazariyasi fanidan o’quv uslubiy qo’llanma.  
Urganch, 2016y.**

## Kirish

Ijtimoiy-gumanitar fanlar ichida iqtisodiyot nazariyasi alohida o'rin tutadi. Chunki har doim insonning hayoti iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va uning asosida ta'minlab kelingan. Shuningdek, iqtisodiyotning muhimligi shundaki, u insonning eng zarur moddiy sharoitini ta'minlaydi, yashash uchun sharoit yaratadi. iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlanayotgan jamiyatda tinchlik, tartib va barqarorlik xukm suradi. Samarali iqtisodiyot tamoyillari va qonunlarini bilish esa insonlarda o'ziga ishonch uyg'otadi, eng qiyin iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va baholashga, shuningdek optimal boshqaruv qarorlari qabul qilishga imkon yaratadi.

"Iqtisodiyot nazariyasi" fanining vazifasi – ob'ektiv iqtisodiy jarayonlarni o'rganish asosida sub'ektlar harakati modellarini optimallashtirishdir. Firma yoki korxonaning marketing izlanishlarida yoki uning Iqtisodiy strategiyasini belgilashda va amalga oshirishda turli modellardan foydalanish iste'molchilarining o'zgarishlarga bo'lgan munosabatlarini bashorat qilishga yoki raqobatchilarining aks ta'sirlari, xatti-harakatlarini ma'lum ehtimollik darajasi bilan aniqlashga imkon beradi.

Iqtisodiyot nazariyasi fanini mukammal o'rganishning afzalligi yana shu bilan izohlanadiki, to'g'ri qaror qabul qilishda insonlar doimo kerakli va ishonchli nazariy bilimga va ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Agar ular o'z bilimlariga ega bo'lmasa tajriba va xatolaridan kelib chiqqan, holda o'ziga qimmatga tushgan usulni qo'llashi mumkin yoki boshqalarning tajribasi, xatolarini o'rganishi mumkin, lekin Iqtisodiyot nazariyasidan olgan bilimlariga murojaat qilsa ularning ishi ancha yengillashadi, belgilagan strategiyasi va rejasi aniq bo'ladi.

Iqtisodiyot nazariyasi fani ma'lum bir ob'ekt yoki hodisa to'g'risida yaxlit tasavvur beruvchi bilimlar tizimi bo'lish bilan insonlarda oldindan ko'ra bilish, bashorat qilish, rejalashtirish ko'nikmalarini hosil qiladi, ko'p xatolardan asraydi, hisob-kitob qilishga undaydi. Iqtisodiyot nazariyasi fanini baholashda aniq modellar bo'lmasligini yodda tutish kerak (model soddallashtirilgan matematik shaklga solingan g'oya va tasavvurdir). Shuning uchun iqtisodiy modellarning ahamiyati ularning haqqoniyligi bilan emas, balki ma'lum bir iqtisodiy hodisani o'rganish va tushuntirishda uni qo'llashning imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Iqtisodiyot nazariyasi aniq iqtisodiy va amaliy fanlarning asosini tashkil qiladi. Uning amaliyot bilan

bog'liqligi esa aniq iqtisodiy fanlar orqali amalga oshirib kelinadi. O'qish jarayonida olingan bu bilimlar esa hayotda har bir inson uchun kerak bo'ladi.

Iqtisodiyot nazariyasi asrlardan beri har bir davlatning iqtisodiy siyosatini asoslab kelgan, uning muvaffaqiyatli rivojlanishiga sabab bo'lган.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishni muvaffaqiyatli amalga oshirish fan, madaniyatni rivojlantirish, demokratik davlat qurish uchun xalq ongi, ma'naviyatini yanada yuqori bosqichga ko'tarish zarurdir.

«Iqtisodiyotimizda erishilgan natijalar negizida avvalo bozor islohotlari va mamlakatni modernizatsiya qilishning puxta o'ylangan modeli va uzoq muddatga mo'ljallangan dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli, izchil va qat'iy xarakatlar turganini kuzatish qiyin emas»<sup>1</sup>.

Iqtisodiy islohotlarni hayotga samarali tatbiq etishning yana bir sharti iqtisodiy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdir, iqtisodiyot sohasi uchun mutaxassislarni shakllantirish mexanizmini yaratishdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlarning asosini shakllantiruvchi qator me'yoriy xujjalalar qabul qilingan va amalga oshirilib kelinmoqda.

---

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2015 yil 17 yanvar.

## **1-bob.«Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti va o'rganish metodlari**

*Men mudom ta'kidlardimki, iqtisod qonunlari bu xayot qonunlaridir.*  
*Filip Uikstid (ingliz iqtisodchisi)*

**Reja:**

- Iqtisodiyot tushunchasi va Iqtisodiy bilimlarni vujudga kelishi.**
- Iqtisodiyot muammosi va uning asosiy masalasi**
- Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi**
- Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va o'rganish metodlari.**

### **1.1 Iqtisodiyot tushunchasi va iqtisodiy bilimlarni vujudga kelishi.**

**1-shakl.**


**Iqtisodiyot** – moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilishni aks ettiruvchi ijtimoiy xo'jalik.

**Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi** – ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi.

Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlar **iqtisodiy faoliyat** deb ataladi.

**2- shakl.**

### **Tovarlar, xizmatlar va resurslarning takror ishlab chiqarish fazalaridagi harakati**



⇒ **Ishlab chiqarish** – insoniyat jamiyatining hayot kechirishi va rivojlanishi uchun zarur moddiy ne'matlarni yaratish jarayoni.

▶ **Taqsimot** – ishlab chiqarilgan mahsulotdagi har bir xo’jalik yurituvchi sub’ektning ishtiroki, ulushi (miqdori, proportsiyasi) ni aniqlash jarayoni.

▶ **Ayirboshlash** – moddiy ne’mat va xizmatlarning bir sub’ektdan boshqasiga tomon harakati jarayoni. **Tovarni sotish** – uning pulga ayirboshlanishi, **xarid qilish** esa – pullarni tovarga ayirboshlanishi. **Ayirboshlashning** zarur sharti – ixtisoslashish, mehnat taqsimoti, bu esa jamiyat a’zolari o’tasida mehnat mahsulini ayirboshlashga olib keladi.

**3-shakl.**

## **1.2.Iqtisodiyot muammosi va uning asosiy masalasi**

### **Resurslar:**

- ne’matlarni yaratishda foydalaniluvchi zarur shart-sharoitlar yig’indisi (yer, kapital, ishchi kuchi, xom ashyo va boshqalar);
- jamiyat ehtiyojlarni qondirish uchun mavjud imkoniyatlar.


**Inson ehtiyojlari** – insonning yashashi va kamol topishi uchun zarur bo’lgan barcha moddiy va nomoddiy buyumlarga bo’lgan xohish va istaklari.

**Ehtiyojlarning o’sib borish qonuni** – iqtisodiy qonun bo’lib, unga ko’ra kishilarning ehtiyoji miqdor va sifat jihatidan o’zgaradi, avloddan avlodga o’sib boradi.

---

**IQTISODIYOT MUAMMOSI** shundaki, jamiyat ega bo’lgan **ishlab chiqarish resurslari doimo cheklangan**. Shuningdek kishilar turli ne’matlarni yaratish bo’yicha Iqtisodiy faoliyatda foydalanuvchi ishlab chiqarish omillari cheklangan. Bu **cheklanish jamiyat oldiga tanlash muammosi** – ehtiyojlarni yetarlicha to’liq qondirish uchun ega bo’lgan cheklangan resurslar (ishlab chiqarish omillari) ni qanday idora qilishni qo’yadi.

---



**Nima ishlab chiqarish** – aynan qanday tovarlarni va qancha miqdorda ishlab chiqarish lozim; qaysi ehtiyojlarni eng muhim hisoblash hamda turli-tuman tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda kamyob resursslarni qanday taqsimlash.

**Qanday ishlab chiqarish** – tovarlar qaysi resursslarni yordamida ishlab chiqariladi. Birinchi masala hal etilgach, ishlab chiqarish texnologiyasini tanlash – ishlab chiqarish omillaridan qanday birlikda foydalanilishini aniqlash.

**Kim uchun ishlab chiqarish (natijalarga kim ega bo'ladi)** – bu tovarlarni taqsimlash tizimi qanday tuzilgani, kim tovarlarni iste'mol qilishi masalasi.

### 1.3. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi

#### 4-shakl

Iqtisodiyot nazariyasini fan sifatida shakllanishi jarayonida vujudga kelgan asosiy g'oyaviy oqimlar:

**Merkantilizm** - jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat bo'lib, u savdoda, asosan tashqi savdoda paydo bo'ladi va ko'payadi, deb tushuntiradi. Merkantilizm – italyancha “mercante” so'zidan olingan bo'lib, “savdogar” degan ma'noni anglatadi. Bu oqimning namoyondalari: V. Staffod, T. Man, A. Monkretten, Jon Lou, G.Skaruffi va boshqalar

**Fiziokratlar** - jamiyatning boyligi qishloq xo'jaligida vujudga keladi degan g'oyani ilgari suradilar. Bu ta'limotning asoschisi F.Kene (1694-1774y.) hisoblanadi.

**Klassik siyosiy iqtisod** - boylikning faqat qishloq xo'jaligida emas, balki sanoat, transport, qurilish va boshqa sohalarda ham yaratilishini isbotlab berdi.

U. Petti (1623-1686 y.) boylikning manbai yer va mehnat ekanligini e'tirof etgan. Mehnat boylikning otasi, yer uning onasi degan ibora unga tegishlidir.

A.Smit “Xalqlar boyligining tabiatini va sabablari to'g'risida tadqiqot”

(1776 y.) asarida talab va taklif asosida shakllanadigan erkin narxlar asosida bozor o'z-o'zini tartibga solishi (“ko'rinnmas qo'l”) royasini ilgari suradi. Insonni faollashtiradigan asosiy rag'bat shaxsiy manfaatdir deb ko'rsatadi.

D.Rikardo qiymatning turli sinflar daromadlari va foydaning yagona manbai mehnat ekanligini ko'rsatadi.

## 5-shakl

### Neoklassik yo'nalishda yangidan vujudga kelgan oqimlar (XX asrning 50-60- yillaridan boshlab)


- **Neoliberalizm** (F. Xayek, Y. SHumpeter, L. Erxard) – asosiy e'tiborni davlatning iqtisodiyotiga aralashuvini eng kam darajaga keltirishga, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratish lozimligini uqtirdi.
- **Monetarizm** – (M. Fridman) iqtisodiyotni boshqarishni, pul muomalasini tartibga solish orqali amalga oshirish mumkinligini asoslab beradi.
- **Institutsionalizm** – tarafdrorlari ( T. Veblen, J. Gelbreyt) fikriga ko'ra, xo'jalik yurituvchilar o'rtaсидagi munosabatlar nafaqat iqtisodiy, balki noiqtisodiy omillar ta'sirida vujudga keladi. SHu sababli iqtisodiyotga institutsional o'zgarishlar orqali ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

## 6-shakl

### IQtisodiyot nazariyasidagi yangi oQimlar (XIX asr oxiri va XX asr boshlari )

- **Marjinalizm vakillari** (marginal – keyingi, qo'shilgan) – keyingi tovar nafliligi, qo'shilgan mehnat yoki resurs unumdorligining pasayib borishi nazariyalarini ishlab chiqqan. Keyingi tovar nafliligining kamayib borishi qonuni bu oqimning asosiy printsipi hisoblanadi. SHunga ko'ra, narx xarajatga bog'liq bo'lmay, keyingi naflilik asosida belgilanadi. Marjinalizm asoschilari K. Menger, F. Vizer, E. Bem-Baverk, U. Jevons hisoblanadi.
- **Neoklassik maktab** (asoschisi Alfred Marshall) bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning aralashuvini cheklash g'oyasini ilgari suradi. Bozor mexanizmining buzilishi monopoliyalar vujudga kelganda ham yuz berishini ko'rsatadi. Funktsional bog'lanish g'oyasini asoslaydi, bozor narxini belgilovchi omillar talab va taklifdan iborat deb hisoblaydi.  
Bu maktab vakillaridan L. Valras umumiyl iqtisodiy muvozanatlar modelini ishlab chiqishga, I. SHumpeter esa iqtisodiy tizimlar o'zgarishining kuchlarini ko'rsatib berishga harakat qilgan.
- **Keynschilik** – rivojlangan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solib turish zarurligini asoslashga qaratiladi. J.M.Keyns "Bandlik foiz va pulning umumiyl nazariyasi" (1936 y.) nomli kitobida bunday tartibga solish yalpi talabga hamda shu orqali inflyatsiya va bandlikka ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

## 6-shakl



## 1.4. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va urganish metodlari.

### 7-shakl.

#### «Iqtisodiyot nazariyasi» darsliklarida fanning predmetiga berilgan ta'riflar

Mualliflari	Ta'rif	Manba
M.N.CHepurin, Kiseleva E.A.	Iqtisodiyot nazariyasi kishilarning Iqtisodiy xatti-harakatini, ya'ni ularning moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish bilan bog'liq harakatlarini o'rganadi	Kurs ekonomicheskoy teorii: uchebnik / Pod obsh. red. prof. CHepurina M.N., prof. Kiselevoy E.A. – 6-ispravленное, dopolnennoe i pererabotannoe izdanie. – Kirov: «ASA», 2007, s.28.
S.S.Nosova	Ishlab chiqaruvchi kuchlarning erishilgan darajasi asosida moddiy ne'mat va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish bo'yicha kishilar o'rtaсида vujudga keluvchi ishlab chiqarish munosabatlarining yig'indisi	Nosova S.S. Ekonomicheskaya teoriya. Elementarnyy kurs: uchebnoe posobie / S.S.Nosova. – M.: KNORUS, 2008, s.16.
G.P.Juravleva, V.I. Vidyapin	Umumiy Iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fan bo'lib, u cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ayrboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida kishilar va guruhlarning xatti-	Ekonomicheskaya teoriya (politekonomiya): Uchebnik/ Pod obsh. red. akad. V.I.Vidyapina, akad. G.P.Juravlevoy. – 4-e izd. - M.: INFRA-M, 2004, s.31.

V.D.Kamaev	harakatini o'rganadi Boylik va resurslarning cheklanganligi, ulardan samarali foydalanish bilan yaxlit holdagi ishlab chiqarish munosabatlari tizimini, ishlab chiqaruvchi hamda iste'molchi sifatidagi insonning xatti-harakatini o'rganadi.	Kamaev V.D. Ekonomicheskaya teoriya: Kratkiy kurs: uchebnik / V.D.Kamaev, M.Z.Ilchikov, T.A.Borisov-skaya. - 2-e izd., ster. – M.: KNORUS, 2007, s.21.
D.D.Moskvin	Ishlab chiqarish munosabatlarini va ularning ishlab chiqarish kuchlari bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi	Osnoviy ekonomiceskoy teorii. Politekonomiya: Uchebnik /Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. D.D.Moskvina. Izd. 3-e, ispravl. – M.: Editorial URSS, 2003, s.24.
E.F.Borisov	Ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilishda tarkib topuvchi kishilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi	Borisov E.F. Ekonomicheskaya teoriya: voprosiy – otvetiy: Ucheb. posobie. – 2-e izd., pererab. i dop. M.: INFRA-M, 2008, s.16.


### **“Iqtisodiyot nazariyasi” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.**

**Iqtisodiyot nazariyasi** – insonning cheklanmagan ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun cheklangan resurslardan samarali foydalanish yo'llarini tanlash sharoitida xo'jalik yuritish qonun va qonunivatlarini o'rganuvchi fan.


**Mikroiqtisodiyot** – iqtisodiyotning alohida sub'ektlari xatti-harakati, narx va bozorlarni har tomonlama o'rganuvchi iqtisodiyot nazariyasi bo'limi.

**Makroiqtisodiyot** – iqtisodiyotni bir butunligicha yoki katta guruhlarga birlashtirilgan elementlarini o'rganuvchi iqtisodiyot nazariyasi bo'limi.

## 8-shakl.





## 9-shakl.




**Iqtisodiy qonun** – iqtisodiy qayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalarini, ularning o'zaro boqliqligini ifodalaydi.

**Iqtisodiy kategoriya** – doimo takrorlanib turadigan, iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning ayrim tomonlarini ifoda etuvchi ilmiy-nazariy tushuncha.

## 10-shakl.



## 12-shakl.



## **Tayanch tushunchalar**

**Iqtisodiyot** – cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, insonlar uchun zarur bo’lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berishga qaratilgan va chambarchas bog’liqlikda amal qiladigan faoliyatlar birligini ta’minlovchi iqtisodiy tizim.

**Ehtiyoj** – insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo’lgan zaruriyat.

**Iqtisodiy resurslar** – ma’lum davrda ma’lum bir mamlakat ixtiyorida to’plangan va mavjud bo’lgan ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish, ularni iste’molchilarga etkazib berish va iste’mol jarayonlarida qo’llanilishi mumkin bo’lgan vositalar, imkoniyatlar va manbalardir

**Iqtisodiy rivojlanish** – ko’p o’lchamli jarayon bo’lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotida o’z ifodasini topadi.

### **?Takrorlash uchun savollar.**

1. Nima uchun moddiy ne’matlar ishlab chiqarish jamiyat hayotining asosi hisoblanadi?
2. Iqtisodiy resurslar nima va ularning cheklanganligini qanday tushunamiz?
3. «Iqtisodiyyot nazariyasi» fanining predmeti nima?
4. Iqtisodiy qonunlar ta’rifini ayting va qanday iqtisodiy qonunlar bor?
5. Iqtisodiyotni rivojlantirishga qo’shgan hissasi uchun kimlar Nobel mukofotiga sazovor bo’lgan.

## *Mavzuda qo'laniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari*

### **B.B.B. usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar**

	Tushuncha	Bilaman “+”, <b>Bilmayman</b> “-”.	Bildim “+”, <b>Bila olmadim</b> “-”
1	Iqtisodiyot va uning bosh masalasi		
2	Iqtisodiy resurslar		
3	Iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi		
4	Ehtiyojlarning cheksizligi		
5	Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi		
6	Asosiy iqtisodiy oqimlar		
7	Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida qaror topishi		
8	Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar		
9	Ehtiyojlarning tarkibi		
10	Ehtiyojlarning turlari		
11	Ehtiyojlarni qondirish muammolar		
12	SHarq va G'arbdagi iqtisodiy g'oyalar		
13	Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti		
14	Iqtisodiy qonunlar		
15	Iqtisodiy qategoriylar		

### **“Insert usuli”**

**Insert** - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

### **Matnni belgilash tizimi**

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma'lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga ko'shimcha ma'lumot zarur.

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Iqtisodiyot				
Ehtiyoj				
Iqtisodiyotning bosh masalasi				
Iqtisodiy resurslar				
Iqtisodiy qonunlar				
Iqtisodiy kategoriylar				
Iqtisodiy oqimlar				
O'rghanish uslublari				

*Mavzu bo'yicha test savollari.*

**1. Iqtisodiyotning bosh masalasi va doimiy muammosi:**

- a) nima, qanday, qancha va kim uchun ishlab chiqarish;
- b) ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun qancha ishchi kuchi sarflash kerak;
- v) davlatning milliy daromadini qanday oshirish mumkin;
- g) mahsulotni yangi texnologiya orqali ishlab chiqarish kerak;
- d) to'q'ri javob yo'k.

**2. Iqtisodiyot nazariyasi fani qanday hodisalarni o'rghanadi va ularni ommaga etkazadi?**

- a) hayotiy;
- b) jamiyat;
- v) statistik;
- g) Iqtisodiy;
- d) siyosiy.

**3. Iqtisodiy nazariyaning qaysi oqimida savdo-sotiq va asosan tashqi savdo barcha boyliklarning manbai deb hisoblanadi?**

- a) merkantilizm;
- b) fiziokratlar;
- v) klassik burjua Iqtisodiy maktabi;
- g) marksistik nazariya;
- d) marjinalizm.

**4. Hozirgi zamон Iqtisodiy nazariyasining qaysi oqimida Iqtisodiy o'sishni ta'minlashning va tartibga solishning asosiy vositasi pul deb hisoblanadi?**

- a) keynschilar;
- b) monitarizm;
- v) institutsionalizm;
- g) liberalizm;
- d) barcha oqimlarda.

**5. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat?**

- a) ijtimoiy munosabatlarni o'rghanish;
- b) siyosiy munosabatlarni o'rghanish;

- v) Iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xo'jaliklarni samarali yuritishning Iqtisodiy qonun-qoidalarini o'rganish;
- g) huquqiy munosabatlarni o'rganish;
- d) tabiiy jarayon va hodisalarni o'rganish.

## **2-mavzu.Bozor tushunchasi, uning mohiyati va vazifalari**

***Kim bozorni tark qilsa, muruvvati ketib, xulqi yomonlashadi.***

***Abdullo Ibn Muborak***

### **Reja**

1. Bozor tushunchasi va bozorlarning paydo bo'lishi.
2. Bozor turlari.
3. Bozorning vazifalari va iqtisodiy ahamiyati.
4. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari

### **2.1.Bozor tushunchasi va bozorlarning paydo bo'lishi.**

**Bozor** – bu iqtisodiy kategoriya sifatida xaridorlar va sotuvchilar hamda tovarlar va pul xarakati bo'yicha savdo vositalari o'rtaсидagi muayyan iqtisodiy munosabatlар majmuyi bo'lib, u bozor munosabatlari subektlarining iqtisodiy manfatlarini aks ettiradi va mehnat maxsulotlari ayriboshlanishini ta'minlaydi.

**Bozorning tuzilishi** – bu bozor unsurlarining ichki qurilishi, joylashishi va tartibi, ularning bozor umumiy hajmidagi ulushi.

Bozor tushunchasi bozor iqtisodiyotining markaziy kategoriysi bo'lib, Iqtisodiyot nazariyasida ham, xo'jalik yuritish amaliyotida ham, barcha mamlakatlar tajribasida ham, qullaniladigan ilmiy-amaliy tushunchadir. Bu tushuncha yuzaki qaraganda oddiy tushunchaga o'xshab ko'rindi, ayrimlar bozorni tovarlar sotiladigan va xarid qilinadigan joy deb o'ylashadi. Lekin uning ichki mazmuniga e'tibor berilsa, u ko'p qirrali bo'lib, mazmuni o'zgaruvchan ekanligini turli davrlarda turli ma'noni anglatishini bilib olish mumkin. Bozor tushunchasi tovar ayriboshlashning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan bogliq bo'lib, u ibtidoiy jamoa tuzumining oxirlarida kelib chiqqan va dastlab tovar almashuv, tovar ayriboshlash joyi yoki maydoni degan mazmunni anglatgan.

Shuni aytib utish kerakki, bozor tovar ishlab chiqarishning ajralmas qismidir. Tovar ishlab chiqarish bo'lmasa bozor ham bo'lmaydi, bozor bo'lmasa ishlab chiqarish ham bo'lmaydi. Bozor vujudga kelishida mehnat shakli, tashki savdo orqali jahon iqtisodiyoti bilan yakindan aloqada bo'lish, jahon iqtisodiy doirasigacha chiqish masalalari katta o'rin egallaydi.

Bozor tushunchasi nihoyatda ko'p qirrali tushuncha. Ishlab chiqarish taraqqiyoti va kishilar orasidagi iqtisodiy muomalalar rivojlana borishi tufayli bozor tushunchasi bir necha bor o'zgarib bordi.

Dastlab bozor chakana savdo-sotiq jarayonlari amalga oshiriladigan oddiy bozor, savdo maydoni sifatida qarab kelingan. Buning sababi shundaki, bozorda ibtidoiy jamiyat parchalangan davrda, jamoalar orasida amalga oshiriladigan tovar almashuvlar muntazam tus ola boshlagan va ma'lum bir joy va ma'lum bir vaqtda olib borilar edi. Xunarmandchilik va shaharlar taraqqiy topishi bilan savdo-sotiq keng tus olib va bozor uchun alohida joylar ajratiladigan bo'ldi. Bozor to'g'risidagi ana shunday tushunchalar uz mohiyatiga ko'ra bizning davrimizgacha davom etib keldi.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti chuqurlasha borishi va tovar ishlab chiqarish rivojlanishi tufayli bozor tug'risidagi tushuncha ancha murakkab shakl ola boshladi. Bu tushuncha xozir mavjud bo'lgan iqtisodiy adabiyotlarda ham o'z aksini topgan. Masalan, frantsuz iqtisodchi-matematik Kurno «bozor» deganda ma'lum bir savdo maydonini tushunmay, balki sotuvchi va xaridor orasidagi erkin tarzda olib boriladigan va narx-navo tez tenglashib turadigan butun xududni tushunish kerak, degan fikrni olg'a suradi.

Keyinchalik, tovar ayriboshlash jarayoni rivoj topishi, pul-tovar-pul munosabatlari vujudga kelishi tufayli savdo-sotiq vaqt va joylarini boshqa shaklga keltirish mumkin bo'lib qoladi, natijada bozor savdo-sotiq maydoni degan tushuncha uning tom ma'nosini ifodalamay qoladi. CHunki bu vaqtga kelib ijtimoiy ishlab chiqarishning yangi tarkibi - muomala sohasi tashkil topadi. Natijada bozor terminining yangi ifodasi, tovar-pul almashishi jarayoni kelib chiqadi. Hozirgi kunda bozor xo'jalik sub'ektlari orasidagi xo'jalik aloqalari amalga oshiriladigan soha deb qaraladi. Bozor tushunchasi to'g'risida yuqorida aytib o'tilgan fikrlar tarixiy bosqichlar nuqtai nazaridan iqtisodiy hodisa deb qaraladigan bo'lsa, uning turli tomonlarini ifodalab beradi.

Bozor iqtisodiy kategoriya sifatida ayriboshlash, savdo-sotiq kabi boshqa qator kategoriylar bilan yaqindan bog'langan. Bozor-tsivilizatsiya maxsulidir. Siyosiy iqtisod nuqtai-nazaridan olib qaraydigan bo'lsak bozor tovar xo'jaligi kategoriyasidir.

Bozor tushunchasi bilan bogliq bo'lgan kategoriyalarning o'xshashligi va farki nimadan iborat?

Ayrboshlash jarayonini ikki tomonlama ko'rish mumkin. Birinchidan, ayrboshlash tovar va xizmatlar xarakati jarayoni, ya'ni

buyumlarning ijtimoiy almashishi, ikkinchidan, ma'lum ijtimoiy munosabatlar vujudga keltirish jarayoni, deb qarash mumkun. Bunday ayrboshlash jarayonida har bir shaxs ishtirok etadi.

Ayrboshlash jarayonini keng ma'noda tushunish lozim. Bu ma'nodagi ayrboshlash turli faoliyat xizmatlar xili, tajriba, erishilgan natijalar almashishidir. Tor ma'nodagi ayrboshlash esa mehnat natijalari hamda almashish jarayonini o'z ichiga oladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, bozor tushunchasi iqtisodiy kategoriya bo'lib, aniq iqtisodiy munosabatlar, sotuvchi bilan xaridor orasidagi aloqalar jarayonidir.

Bozor quyidagi belgilarga ega:

Oldi-sotdi ishtirokchilarining soni chegarasiz, unda, ya'ni oldi-sotdi jarayonida, qatnashuvchilar o'zlarini erkin tutadilar. Bundan shunday ma'no kelib chiqadiki, bozor sharoitida har bir ishlab chiqaruvchi shaxs turli tadbirkorlik faoliyati, jamgarmalar. Bank tizimi faoliyatları, dehqonchilik va boshqa faoliyatlar bilan shugullanishi mumkin.

Tadbirkorlar daromadlarni ko'paytirishni ko'zlab mavjud moddiy, mehnat, moliyaviy zahiralardan foydalanish imkoniga ega. Bularning hammasi ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi texnikani va yangi texnologiyani ishga solish imkonini beradi.

## 2.2 Bozor turlari

Bozor turli tuman kurinishga ega bo'lib, uning eng oddiy turlari tijorat do'konlari, avtomobilarga yog' quyish shaxobchalari, qishloq xo'jalik maxsulotlari bozori kabilar bo'lsa, yuqori darajada tashkil qilingan hamda ancha murakkab shakillari birjalar, auktsonlar va chet el valutalari bozori hisoblanadi.

Bozor obekti — bozorda sotiladigan tovarlar va xizmatlar, jumladan oziq – ovqat, kiyim – kechak, ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi va boshqalar tushuniladi, yani nima sotilsa hammasi bozor obektlariga kiradi. Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlar bozorlarida 25 mln. turdan ko'p narsalar sotiladi.

Bozor obektlari bo'yicha, yani sotiladigan narsalarning turiga qarab quyidagi bozorlarga bo'linadi:

- **Xalq istemoli tovarlari va xizmatlar bozori**
- **Ishlab chiqarish vositalari yoki resurslar bozori.**
- **Mehnat (ish kuchi) bozori.**
- **Moliya (qimmatli qog'ozlar) bozori**
- **Intellektual tovarlar bozori**

## — Axborotlar bozori.

**Xalk iste'mol tovarlari va xizmatlar bozori** iste'molchilar bozori bo'lib, aholi uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarning oldi-sotdisini bildiradi. Iste'mol bozorida aholi o'z iste'moli uchun tovarlar va tovar sifatidagi pulli xizmatlarni xarid qiladi.

**Ishlab chiqarish resurslari (vositalari) bozori** ishlab chiqarishni yuritish uchun zarur bo'lgan va tovarga aylangan mehnat vositalari, hom ashyo materiallarining to'g'ridan-to'g'ri yoki vositachilar orqali oldi-sotdi qilinishi. Bu bozorda mashina, uskuna, asboblar, bino, yer, xom ashyo, yoqilg'i va materiallar oldi-sotdi qilinadi.

Tovarlar bozori aniq shakllarda tashkil topadi. Bu shakllarga yarmarkalar, tovar birjalari, savdo uylari, ulgurji va chakana savdo firmalari, Har xil magazinlar, do'konlar, katalog savdosini uyushtiruvchi tashkilotlar, eksport va import tashkilotlari kiradi.

Bozorda firmalardan tashqari agent (vakil) va brokerlar (dallollar) ham borki, ular ham xaridor, ham sotuvchi nomidan ish yuritadilar, lekin ular tovarlar egasiga aylanmaydilar, o'zganing mulki bo'lgan tovarlarni ayriboshlanishiga xizmat qiladilar. Tovar xarakatini chakana savdo faoliyati yakunlaydi. Bu faoliyat bilan ham, savdo (firmalari shug'ullanadi, ular tovarni bevosita iste'molchiga sotadilar. Chakana savdo qiluvchilar ko'pchilik bo'ladi.

**Mehnat bozori** — ish kuchini oldi-sotdi qilish munosabatini bildiradi. Mehnat bozorining bir tomonida ish kuchi egasi tursa, ikkinchisida ish kuchiga muhtoj korxona, firma turadi. Mehnat bozori aniq shakllarda yuz beradi, ulardan eng muhimi — mehnat birjasidir. Birjada ish kuchiga talab va ish kuchi taklifi bir-biri bilan bog'lanadi. Birja bir vaqtning o'zida ham ish kuchini sotuvchi, ham uning xaridori nomidan ish ko'radi. Mehnat bozorida birjalardan tashqari ishga yollash bilan shug'ullanuvchi xususiy firmalar ham mayjud.

**Moliya bozori.** Bu bozor tizimining g'oyat muhim unsuri bo'lib, moliya resurslari (pul va pulga tenglashtirilgan qog'ozlar) bozoridir. SHu boisdan moliya bozori ikkiga ajraladi: iste'molni qondiradigan pul bozori va kapital bozori. Qimmatbaho qog'ozlar bozorida aktsiya, obligatsiya, veksel, chek, depozit, sertifiqatlar oldi-sotdi qilinadi va bozor amalda fond birjalari, auktsionlar va banklardan iborat bo'ladi. Moliya bozorining yana bir unsuri valuta bozoridir. Bu erda turli mamlakatlar valutasi oldi-sotdi qilinadi. Bozorda korxona, firma, davlat idoralari va fuqarolar qatnashadi.

Moliya bozori pulni va qimmatbaho qog'ozlarni turli sohalar o'rtasida keragicha taqsimlab, iqtisodiyot o'sishigiga faol ta'sir etadi.

**Intellektual tovarlar bozori** bozorning maxsus turi bo'lib aqliy mehnat mahsuli bo'l mish tovarlar va xizmatlarning ayriboshlanishini bildiradi. Bu erda sotuvchilar va xaridorlar maxsus tovar hisoblangan ilmiy g'oyalar, texnikaviy yangiliklar, san'at va adabiyot asarlari, xilma-xil axborotlarni oldi-sotdi etish yuzasidan munosabatda bo'ladilar. Intellektual tovarlar bozorida ilmiy-texnikaviy ishlanmalar oldi-sotdisi katta o'rin tutadi. U amalda patent litsenziya va nou-xau sotishdan iboratdir.

Sotuvchilar va xaridorlarning birgalikdagi sa'y harakatlari bozorni keltirib chiqaradi, bozor esa ularni birlashtiruvchi mexanizm bo'ladi. Bozordagi oldi-sotdi ular tarkibiga iste'mol tovarlari, ishlab chiqarish vositalari bo'lgan tovarlar, ya'ni moddiy resurslar, ish qog'ozlar, aqliy mehnat mahsuli bo'lgan tovarlar, har xil ishlab chiqarish uchun va iste'molchiga ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi. Ishlab chiqarish qanchalik rivojlangan bo'lsa, bozor ob'ektlari shunchalik ko'p va xilma-xil bo'ladi. Hozigi rivojlangan mamlakatlarda bozor oborotiga deyarli 25 mln. xil tovar va xizmatlar kelib turadi.

**Bozoring sub'ektlari** - ishtirokchilari ham bir xil emas. Ular ikki guruhga bo'linadi: sotuvchilar va xaridorlar. Ular bozor munosabatlarida turli vazifani bajaradilar. Sotuvchilar – bozordagi tovar va xizmatlarni taklif etuvchi firma, korxona yoki ayrim ishlab chiqaruvchi, ish kuchi, ersuv, mashina-uskuna, bino-inshoot egasi, pul kapitali, qimmatbaho qog'ozlar va valuta sohiblaridan iborat bo'lib, ular o'z tovarlarini sotadilar yoki ijara beradilar. Xaridorlar keng qatlam iste'molchilardan iborat bo'lib, ular bozorga o'z talab-ehtiyoji va pul bilan chiqadilar. Xaridorlar oddiy iste'molchi fuqarolar, resurslar oluvchi va ish kuchini yollovchi tadbirkorlar, davlat idoralari, jamoat tashkilotlaridan iborat bo'ladi.

**Bozor sub'ektlari mavqeい jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:**

- **Erkin bozor**
- **Monopollashgan bozor**
- **Monopol raqobatli bozor**
- **Oligapalistik bozor**
- **Sof monopoliya bozori**

**Erkin bozor** — bunda sotuvchilar va xaridorlar ko'pchilik bo'lib, ular dan hech biri bozorda hukmron mavqega ega bo'lmaydi, aksincha, ular doimo raqobatda bo'lishadi. Raqobat sotuvchilar bilan xaridorlar o'rtasida,

shuningdek ularning o'zлари ichida bo'ladi. Bu erda narx-navoni hech kim nazorat qilmaydi, narx bozorda erkin shakllanadi.

**Monopollashgan bozor** — bu ozchilik sotuvchilar va xaridorlar xukmron bo'lган, raqobat cheklangan yoki raqobat umuman yo'q bozor. Monopollashgan bozorning o'zi uch xil bo'ladi: monopol raqobatli bozor, oligopolistik bozor, sof monopoliya bozori.

**Monopol raqobatli bozor** — unda nisbatan ko'p bo'lмаган firmalar ishtirok etadi, ularning bozordagi hissasi katta bo'lmaydi, ular bozorda har xil, lekin bir-birining o'rmini bosa oladigan tovarlar (masalan, qurtka, splash, palto) bilan ishtirok etadilar, ulardan har biri boshqasi bilan raqobatlashadi.

**Oligopolistik bozor** — unda sanoqli, ozchilik firmalar va kompaniyalar hukmron bo'ladi, lekin ular ham o'zaro raqobatlashadilar bu erga bir xil yoki farqlanuvchi tovarlar chiqariladi. Raqobat ko'p hollarda ishlab chiqaruvchilar bilan xaridorlar o'rtasida yuz beradi.

**Sof monopoliya bozorida** — unda sotuvchi sifatida bir firma tanho hukmron bo'ladi, butun bir tarmoq shu firmadan iborat bo'lib, undan boshqa tovar beruvchi bo'lmaydi, uning tovarini o'rmini bosadigan boshqa tovar ham topilmaydi. Bu erda raqobat bo'lmaydi.

Bozorda talab va taklif uchrashadi. Agar talab xaridor tomonidan bo'lsa, taklif ishlab chiqaruvchi qo'lida bo'ladi.

Bozor sub'ektlari o'z manfaatlarini ko'zlaydi. Bozor ular xatti-harakatlarini muvofiqlashtiradi, shu orqali ular manfaati amalga oshadi. Bozordagi aloqalar narx vositasida o'rnatiladi. Oldi-sotdi ma'lum narxga binoan amalga oshadi va rasmiylashtiriladi. Bozorda tijorat faoliyati bilan birjalar, savdo uylari, tijorat firmalari, auktsionlar, yakka savdogarlar, tovar ishlab chiqaruvchilarning o'zлари shug'ullanadi. Bevosita bozor aloqasi yuz berganda tovar ishlab chiqaruvchi yoki uning vakili iste'molchi, ya'ni xaridorning o'zi bilan to'g'ridan-to'g'ri oldi-sotdi ishlarini olib boradi. Bilvosita munosabat paydo bo'lganda ishlab chiqaruvchi bilan xaridor o'rtasida aloqalarni o'rnatishda vositachi tijorat ahli ishtirok etadi.

### **2.3 Bozorning vazifalari va iqtisodiy ahamiyati.**

Bozorning asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaaratilgan tovar va xizmatlarni, iqtisodiy resurslarni iste'molchilarga utkazib berishdan iboratdir. Bu erda bozor ishlab chiqarish bilan iste'molni bir-biriga boglaydi, ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmat o'z iste'molchisini


topadi. Bunda bozor vositachi bo'lib xizmat qiladi. Bozorda qiymat shakillari almashadi. U qiymatni tovar shaklidan pul shakliga aylantiradi. Individual mexnat sarflari sifatida chiqqan tovarlar bozor tomonidan tan olinsa, ijtimoiy mehnat sarfini namoyon qiladi va bozorni tovar qiymati xosil bo'ladi. Bozor ayrboshlash toifasi bo'lib, ishlab chiqarishning uzuksiz takrorlanib turishiga yordam beradi. Ishlab chiqarish yangidan boshlanishi uchun yaratilgan tovarlar sotilishi va ularning pulga aylanishi, pulga esa kerakli iqtisodiy resurslar xarid qilinishi zarur.

Bozor iqtisodiyotini tartibga solib turish vazifasini talab, taklif, raqobat va baholar yordamida bajaradi. U uzida talab va taklifni jamlab, bu bilan nimani, qancha miqdorda va qasi vaqtda ishlab chiqarish kerakligini aniqlab beradi. Bozor baho vositasida iqtisodiy resurslarni tovarlarga talab kamaygan tarmoqlardan talab ortgan tarmoqlarga oqib kelishini ta'minlaydi. Bozor turli xil vazifalarni bajarsada, ular o'zaro bogliq va bir birini taqazo qiladi.

Bozor bir qator iqtisodiy vazifalarni bajaradi.

Bozor ayrboshlash jarayoni bo'lganidan, u ishlab chiqarishni iste'mol bilan bog'lovchi vosita vazifasini o'taydi. Ma'lumki, tovar harakati uni ishlab chiqarishdan boshlanib iste'mol bilan tugallanadi. Bozordagi yagona va universal xarid vositasi pul hisoblanadi. Kishilar mahsulotdagi o'z ulushini mana shu pul shaklida, ya'ni daromad tarzida oladilar.


To'yingan bozor barqaror iqtisodiyotni anglatadi. Bu erda tovarlar mo'l-ko'l, pul taqchil bo'ladi. Kuzatuvlarga qaraganda AQShdag'i supermarketlarda (universal oziq-ovqat magazinlarda) 12 000 xil oziq-ovqat mahsulotlarining turlari bo'lgan. To'yingan bozorda talabga qarab tovar turlari va markalari tez-tez almashib turadi.



## 2.4 Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.

Bozorning samarali amal qilishi ko'p jihatdan uning infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bogliq.

**Bozor infratuzilmasi** – bozor aloqalarining o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimi.



## **Tayanch tushunchalar**

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayriboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizim.

**Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalar.

**Bozor** – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayriboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisi.

**Bozor obekti** – ayriboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar.

**Bozor subekti** – ayriboshlash munosabatlari qatnashchisi.

### **? Takrorlash uchun savollar**

1. Bozor tushunchasining ta'rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.
2. Bozorni turkumlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi? Ularni sanab ko'rsating.
3. Etuklik darajasiga qarab bozorning qanday turlari ajratiladi?
4. Sotiladigan va sotib olinadigan tovar, xizmat turiga ko'ra bozorning qanday turlarini ajratish mumkin?
5. Bozor infratuzilmasi nima? Uning tarkibiy qismlari va asosiy unsurlariga ta'rif bering.

### ***Mavzuda qo'laniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari***

#### ***“Insert usuli”***

**Insert** - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

#### **Matnni belgilash tizimi**

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma'lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

## Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Bozor				
Bozorning obekti				
Bozor subekti				
Bozor segmenti				
Bozor turlari				

### Mavzu bo'yicha test savollari.

#### **1. Bozor nima?**

- A) Savdo sotiq bo'ladigan joy.
- B) Ulgurji savdo bo'ladigan joy.
- C) Sotuvchi bilan xaridor o'rtasida, pul vositasida ayirboshlash yuzasidan bo'ladigan iqtisodiy munosabatdir.
- D) Chakana savdo bo'ladigan joy.
- E) A, B to'g'ri javob.

#### **2. Bozor o'bekti nima?**

- A) Bozor ishtirokchilari.
- B) Sotuvchi.
- C) Xaridor.
- D) Tovar va xizmatlar.
- E) B,C javob to'g'ri

#### **3. Bozor sub'ekti nima?**

- A) Sotuvchilar va xaridorlar.
- B) Tovar va xizmatlar.
- C) Brokerlar.
- D) Hammasi to'g'ri .
- E) To'g'ri javob yo'q.

#### **4. Bozorning amal qilish xarakteriga ko'ra turlari.**

- A) Tartibli, tartibsiz, rejali boshqariladigan bozor.
- B) Maxalliy, milliy ,xududiy, jahon bozori.
- C) Erkin, oligopolistik, monopolistik, sof monopol bozor.
- D) Iste'mol tovarlari,mehnat, moliya, ishlab chiqarish vositalari va intelektual tovarlar bozori.
- E) Ochiq va yopiq bozor.

#### **5. Bozorning hududiy jixatdan turlari?**

- A) Yashirin pinhoniq, qora bozor.
- B) Ochiq va yopiq bozor .
- C) Maxalliy, milliy ,xududiy, jahon bozori .
- D) Hammasi to'g'ri.
- E) To'g'ri javob yo'q.

### **3-mavzu. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari**

#### **Reja**

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.
- 2.Bozor islohotlari
- 3.O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli.
4. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va kamchiliklari

#### **3.1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari**

XXI asr bo'sag'asida bozor iqtisodiyoti o'zining umuminsoniy demokratik iqtisodiyot ekanligini juda keng ko'lamda namoyish qila oldi. iqtisodiy erkinlikka, xo'jalik yuritishda esa eng adolatli tamoyillarga asoslangan iqtisodiyot bo'lidanidan, bu iqtisodiyot milliardlab madaniylashgan insonlarga manzur bo'lib, yer yuzining asosiy qismida umuminsoniy muammolarni ijobjiy hal etmoqda. Ayniqsa, hozirgi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti misolida bozor iqtisodiyotining umuminsoniy imkoniyatlari hali juda kengligi tobora yaqqol ko'rinoqda.

Bozor iqtisodiyotining mohiyati va mazmuni bozor asosida rivojlanadigan tovar ishlab chiqarish, ularni ayrboshlash va pul muomalasi bilan bog'liq bo'lidan munosabatlarda o'zining yorqin ifodasini topadi. Tovar mustaqil ravishda bozor talabiga qarab ishlab chiqariladi, tovar ayrboshlash munosabatlari esa sotuvchi bilan xaridorlar o'rtasida erkin ravishda, lekin o'zaro kelishilgan oldi-sotdi munosabatlariga asoslanadi. Lekin tovar-pul munosabatlari yuksak darajada rivojlangan taqdirdagina madaniylashgan bozor iqtisodiyotiga aylanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va tovarlarni oldi-sotdi qilish ham asosan bozorga mo'ljallanganidan hozirgi vaqtida bu iqtisodiyot umumjahon voqeasi bo'lib qoldi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtida bu iqtisodiyot ishlab chiqarishni rivojlantirish, barcha resurslardan oqilona foydalanish, xalq farovonligini ta'minlash, halol va samarali mehnatni yuksak qadrlash, umuminsoniy ijtimoiy himoyani tashkil etish kabi ulkan muammolarni hal etmoqda.

Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga yaratilgan milliy mahsulotning tobora ko'payib, aholi farovonligini oshib borayotgani bozor iqtisodiyotiga o'tishni zaruriyat qilib qo'ydi, yaxshi turmush tarzini yaratuvchi boshqa yo'l yo'q ekanligini isbotlamoqda. Lekin bozor

iqtisodiyotiga o'tishda avvalgi iqtisodiyotni yangi iqtisodiyotga qanday yo'l bilan o'tishi e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotining umumiyligini e'tirof etish bilan birga o'ziga xos va mos bo'lган yo'lни tanlab, birinchidan, mustaqillik uchun iqtisodiy shart-sharoitni ta'minlash va ikkinchidan esa, bozor iqtisodiyotiga o'tishdek ikkita muhim strategik vazifani belgilab oldi. Birinchi vazifani bajarilishi ikkinchisini ham muvaffaqiyatini ta'minlaydi va ular birgalikda asosiy strategik vazifani amalga oshiradi.

O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tishida bu iqtisodiyotning umumiyligiga e'tiborni qaratish bilan birga mamlakatning o'ziga xos bo'lган quyidagi milliy xususiyatlarini ham hisobga olish lozim:

- Iqtisodiyotni rivojlanish darajasi ancha past bo'lshiga qaramasdan salohiyati borligi;
- tabiiy resurslar, jumladan, uning tabiiy, qulay unumli yeri bilan birga mehnatsevar xalqi borligi;
- aholi o'sish sur'ati tez va shu sababli mehnat resurslari ham ko'payib borishligi. Iqtisodiyot asosan qishlok xo'jaligiga suyangani sababli aholining ko'p qismining qishlok joylarida yashashi va ishlashi;
- sharqona tsivilizatsiyasiga (meros qolgan xo'jalik yuritish usuli, iqtisodiy ko'nikma, madaniyat) mansubligi.

Bu xususiyatlar O'zbekistonning milliy manfaatini, uning real shart-sharoitini e'tiborga olgan holda bozor iqtisodiyotiga shoshilinch tarzda, sakrab emas, aksincha tinch va xotirjam bo'lib o'z xalqini ijtimoiy himoyasini yaxshi tashkil etish orqali bosqichma-bosqich o'tishini ta'minlab beradi.

O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'liga Prezident I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston bozor munosabatlariiga o'tishning o'ziga xos yo'li» kitobida shunday ta'rif bergan: «Bizning qat'iy nuqtai-nazarimiz jahon tajribasi va o'z amaliyotimizdan olingan jamiki foydali tajribalarni rad etmagan holda, o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni tanlay olishdan iboratdir». O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li Prezident I.A.Karimov tomonidan asoslاب berilgan besh tamoyilda to'la ravishda o'z ifodasini topdi va bu tamoyillar ilmiy xazinani boyitdi. Ularning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

**Birinchi tamoyil** – iqtisodiy islohatlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak; u biror mafkuraga bo’ysindirilishi mumkin emas. Buning ma’nosи shuki, iqtisodiy siyosatdan ustun turishi kerak. Ham ichki, ham tashki iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi qilish zarur;

**Ikkinci tamoyil** – davlat bosh islohotchi bo’lishi lozim. U islohotning ustivor yo’nalishlarini belgilab berishi o’zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o’tkazishi, jaholatparastlar (retogradlar) va konservatorlar qarshiligini bartaraf etishi shart;

**Uchinchi tamoyil** – qonunlarga rioya etish ustivor bo’lishi lozim. Buning ma’nosи shuki, demokratik yo’l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og’ishmay rioya etish lozim;

**To’rtinchi tamoyil** – aholining demografik tarkibini hisobga oлган holda kuchli siyosatni o’tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta’sirchan choralar ko’rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo’lidagi eng dolzarb vazifa bo’lib qoldi va bundan keyin ham shunday bo’lib qoladi;

**Beshinchi tamoyil** – bozor iqtisodiyotiga o’tish ob’ektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga oлган holda, o’tmishtagi «Inqilobiy sakrashlarsiz», ya’ni evolyutsion yo’l bilan, puxta o’ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Buning ma’nosи shundan iboratki, respublikada bozor iqtisodiyotiga o’tish, bozor munosabatlarini o’rnatish ma’lum qiyinchiliklarsiz amalga oshmaydi. Ammo bu davrda aholining manfaatlarini himoya qilish kuchayishi kerak. Buni faqat kuchli qayta taqsimlash vositasiga asoslangan davlatgina amalga oshirishi mumkin. Davlat iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda faol qatnashishi, uning tashabbuskori bo’lishi va izchillik bilan amalga oshirilishi lozim.

### 3.2. Bozor islohotlari

**Bozor islohotlari — xalq ishtirokida, lekin davlat tomonidan ishlab chiqilgan, bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni davlat nazorati ostida amalga oshirilishidir.**

Bozor munosabatlari to’satdan va birdaniga paydo bo’lmay, mavjud iqtisodiy tizimdan o’sib chiqadi, bu jarayon eski tuzumni revolutsiya yo’li bilan yuqotib, uning xarobalarida yangilik yaratish emas. Ular evolyutsion yo’l bilan vujudga keladi. Shu sababli eski tizimni sobitqadamlik bilan isloh eta borib, bozor iqtisodiga kelish mumkin. Islohatlardan oldin bozor iqtisodiga o’tishning kontseptsiyasi, ya’ni nazariy modeli yaratiladi. Shu kontseptsiyada yangi iqtisodga o’tishning umumiy jihatlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi, islohotning asosiy yo’nalishlari belgilanadi. Kontseptsiyaga tayangan holda bozor islohotini ta’minlovchi yuridik qonunlar majmuasi yaratilib, ular xayotga joriy etiladi.

## **Islohotlar quyidagi 5 ta yirik guruhlarga bo'linadi:**

- 1. *Mulkiy munosabatlar islohoti.***
- 2. *Agrar islohot.***
- 3. *Moliya-kredit tizimi islohoti.***
- 4. *Tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti.***
- 5. *Sotsial(ijtimoiy) islohotlar.***

Ularning ketma-ketligi, o'tkazish usullari va muddatlari xar xil bo'ladi. Ammo islohotlarning iqtisodning barcha tomonlariga tegishli bo'lishi, ular iqtisodiy munosabatlarda chuqur o'zgarish yasashi zarurligi — bu bozor islohotlarining umumi shartidir. Islohotlar **kompleks** xarakterda bo'ladi, ular iqtisodning hamma sohalarida o'tkaziladi, bir soha isloh etilib, boshqasi eskichasicha qolsa, bozor munosabatlari shakllana olmaydi, binobarin, islohotlar samarali bo'lmaydi. Gap shundaki, bozor iqtisodi g'oyat murakkab tizim bo'lib, uning xar bir bug'ini yoki unsuri boshqasi bilan bog'langan, biri bo'lmasa boshqasi amal qila olmaydi. Bu tizim minglab firmalar, xo'jaliklar, millionlab kishilar faoliyatining uzviy bog'lanishini bildiradi. Bozor iqtisodi biron bir faoliyat sohasi bilan cheklanmaydi, u g'oyat ko'p qirrali bo'lib, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, daromadlarni taqsimlash, nihoyat tovarlarni iste'mol etish kabi va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bozor munosabati iqtisodning barcha unsurlarini bir tizimga birlashtiradi, ularning faoliyatini o'zaro muvofiqlashtiradi, yahlit umumjamiyat iqtisodini, ya'ni maqroiqtisadiyotni xosil etadi. Iqtisodning har bir unsuri boshqasisiz amal qila olmaganidan, ayrim unsurlarning ishdan chiqishi butun iqtisodiy tizimga salbiy ta'sir etadi. Iqtisoddagi yaxlitlikning o'zi unga taalluqli islohotlarni xalk xo'jaligining hamma jabxalarida o'tishini talab qiladi. Bas shunday ekan, islohotlar chala-chulpa, yarim yo'lida qoladigan bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari bir soha islohoti boshqasidan kelib chiqishi, unga tayanishi kerak. Masalan, tadbirkorlikni yaratuvchi islohot mulk islohoti, moliya-kredit va narx-navo islohoti bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bu muqarrar, chunki iqtisodning bir jihatni yangilanib boshqasi eskichasiga qolishi mumkin emas.

Bozor islohotlarining bosh bo'g'ini bu mulkchilik shakllarini tubdan o'zgartirishdir, chunki yangicha iqktisod turli mulk shakllarining erkin va raqobat asosida rivojlanishini bildiradi, mulkiy monopoliya bilan sig'ishmaydi. Shu boisdan, hamma erda mulk davlat tasarrufidan chiqarilib,

xususiyashtiriladi(privatizatsiyalanadi), davlatlashgan iqtisod bor joyda xo’jalik yuritish ham davlat ixtiyoridan chiqarilib, boshqalarga beriladi.

Mulkchilikning demokratiyalashuvi ikki yo’l bilan o’tkaziladi:

birinchisi — privatizatsiya, ya’ni davlat mulki xisobidan nodavlat mulk shakllarini xosil etish,

ikkinchisi — reprivatizatsiya. Bunda oldin davlat ixtiyoriga olingan mulk uning egasiga qaytadan xususiy mulk etib qaytariladi. Totalitar tizimdan chiqqan mamlakatlarda reprivatizatsiya yuz bermaydi yoki juda kam bo’lishi mumkin. Bu erda davlat korxonalari privatizatsiyalanib, xususiy mulkka aylanadi yoki ular davlat tasarrufidan qaytarilib aktsioner jamiyatlariga, jamoat korxonalariga va xar xil demokratik uyushmalarga aylantiriladi. Mulkiy islohot pulni jamg’arish xisobidan, ya’ni korxonalar qurish hisobidan xususiy mulkning yangidan xosil bo’lishiga ham yo’l islohotlar qonun yo’li bilan barcha mulk shakllarining tengligi, daxlsizligi ko’yadi. va davlat himoyasiga olinishini kafolatlaydi. Masalan, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan xar bir shaxs mulkdor bo’lishga haqli, barcha mulk shakllarining xuquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza etilishi kafolatlangan, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat ximoyasida turadi.

### **3.3. O’zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o’tish modeli.**

Xalqaro tajriba ko’rsatganidek, bozor iqtisodiga o’tishning uch shakli yoki modeli mavjud:

**I. G’arbiy Evropa mamlakatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo’li;**

**II. Mustamlakachilikdan ozod bo’lib, mustaqil taraqqiyot yo’liga o’tib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari yo’li;**

**III. Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo’li.**

Bu yo’llarning umumiy va xususiy jihatlari bor albatta. Ularning hammasi bir manzilga — bozor iqtisodiga olib keladiki, bu iqtisodning qonun-qoidalari, amal qilish tamoyil(printsip)lari ko’p jihatdan umumiy bo’ladi. Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti xar xil bo’lganligi tufayli, unga o’tishning milliy yoki xududiy xususiyatlari ham mavjud bo’ladi.

Bozor munosabatlariaga o’tishning ilk, birinchi modelida, oddiy tovar xo’jaligidan klassik kapitalizm tomon va undan bozor iqtisodi tomon boriladi. Mazkur yo’l uzoq davom etgan evolyutsion o’zgarishlar orqali, ya’ni o’tmishdagi qoloq an’anaviy iqtisod bag’rida bozor munosabatlariaga xos belgilarning sekin-asta rivojlanib borishi orqali, oddiy tovar-pul


munosabatlarining kapitalistik shaklga ko'chishi va nihoyat, uning bozor iqtisodiga transformatsiyalana borishi orqali yuz bergan. **Birinchi modelda** bozor munosabatlari shakllanishiga xos hamma bosqichlardan o'tiladi, ularning birontasini chetlab bo'lmaydi. Bu model asrlar osha tarixiy-tabiyy jarayon sifatida amalga oshib, uzundan-uzoq davom etgan o'zgarishlar orqali bozor iqtisodiga xos belgilar yuzaga kelgan. Birinchi model bozor iqtisodining o'ziga xos klassik shakllanish jarayonidirki, u boshqalar uchun andaza, namuna bo'lishi mumkin, chunki mazkur iqtisodning qonun-qoidalari, uning xayotiyligi shu modelda sinab ko'rilgan.

**Ikkinci modelga** xos muhim tomon— bu mustamlakachilikdan merosga qolgan qoloq, an'anaviy iqtisoddan bozor iqtisodiga o'tishdir. Bu model milliy mustaqillik sharoitida amalga oshadi. Bunda bozor iqtisodiga xos belgilar xo'jalik turlarining transformatsiyasi orqali yuz beradi. Birinchidan, azaliy natural xo'jalik bozor doirasiga tortilib, tovar xo'jaligiga aylanadi va undan bozor iqtisodi belgilari o'sib chiqadi; ikkinchidan, kam rivojlangan, lekin real mavjud milliy kapitalistik xo'jalik bozor iqtisodi tomon yuz tutadi: uchinchidan, xorijiy kapital yaratgan xo'jalik, ya'ni ishlab chiqarishning xorijiy sektori zaminida bozor iqtisodi unsurlari rivoj topadi. Ikkinci modelning muhim belgisi unga o'tish, bozor munosabatlari rivojiga xos boskichlarning hammasidan o'tilmay, ularning ayrimlarini chetlagan holda yuz beradi. Masalan, qolok natural xo'jalik to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodiga xos yirik fermer xo'jaligiga aylanadi. Bu erda qo'l mehnatiga asoslangan, lekin yollanma mehnatni takozo etuvchi ishlab chiqarish boskichini chetlab, yirik mashinalashgan va bozorni mo'ljallagan ishlab chiqarishga o'tiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bozor munosabatlari koloklik vaziyatida tashkil topadi, shu boisdan ularning vujudga kelishida xorijiy kapital muhim o'rinn tutadi. Bu model sharoitida birinchi modelga taalluqli tarixiy tajribadan foydalanish imkonи mavjud bo'ladi. Bu esa bozor iqtisodiga o'tish jarayonini tezlashtiradi. Gap shundaki, yer yuzida mavjud bozor munosabatlari doirasiga yangi mamlakatlar tortiladigan bo'lsa, ularning iqtisodining bozor izmiga ko'chishida chet elning yordami etakchi rol o'ynaydi. Bozor iqtisodi tomon yo'lning nisbatan ham mashaqqatli va qisqa bo'lishi rivojlanayotgan mamlakatlarga xos muhim belgidir. Mazkur iqtisodga kirib borishning o'zi mustakillik garovi hisoblanadi. Chunki shu asosga tayangan holda ishlab chiqarish jadal rivojlanadi, bu esa istiqlolni mustaxkamlaydi.

Bozor iqtisodiga o'tishning **uchinchi modeli** bu jarayonga xos bo'lgan eng so'nggi yo'ldir. Uning eng muhim belgisi totalitar iqtisodiy tizimdan erkin bozor tizimiga o'tish hisoblanadi.


### 3.4. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va kamchiliklari

**1-shakl**




## 2-shakl

### Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari




## 2- shakl

### Bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmi



## 3 - shakl



### ***Tayanch tushunchalar***

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bozor islohotlari** – bozor iqtisodiyotini va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

**Iqtisodiy islohotlar** – iqtisodiyotda tub (yoki qisman) o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlardir.


### ***Takrorlash uchun savollar***

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Klassik va hozirgi zamон bozor iqtisodiyotining umumiyl томонлари va farqlarini tushuntirib bering.
3. Bozor iqtisodiyotining afzallikkleri va ziddiyatlari nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyotining asosiy ishtirokchilari kimlar va ular o'rtaсидаги iqtisodiy aloqalar qay tarzda kechadi?
5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiysi deganda nimani tushunasiz?

### ***Mavzuda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari***

#### **1. Venna diagrammasi**

##### **Klassik bozor iqtisodiyoti Xozirgi zamон bozor iqtisodiyoti**



## **2. Insert usuli”**

**Insert** - samarali o’qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o’qib-o’rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o’qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o’z fikrini ifodalaydi.

### **Matnni belgilash tizimi**

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma’lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o’ylantirdi. Bu borada menga qo’shimcha ma’lumot zarur.

### **Insert jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
Bozor iqtisodiyoti				
Bozor islohotlari				
Klassik bozor iqtisodiyoti				
Bozor iqtisodiyoti sub’ektlari				
Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va kamchiliklari				

### **Mavzu bo'yicha test savollari.**

1 Bozor iqtisodiyoti deganda qanday iqtisodiyot tushuniladi?

A) Erkin tovar pul munosabatlariga asoslangan ,monopolizmni inkor etuvchi

demokratik iqtisodiyotdir.

B) Yakka mulkchilikka asoslangan demokratik iqtisodiyotdir.

C) Ko’p mulkchilikka asoslangan demokratik iqtisodiyotdir .

D) Iqtisodiyotni asosini bozor tashkil etuvchi iqtisodiyotdir .

E) To’g’ri javob yo’q.

2 Bozor iqtisodiyotining nechta asosiy belgisi mavjud?

A) 5ta S) 8 ta E) 3 ta

B) 7ta D) 9 ta

3. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari quvida qaysi javoda to’g’ri ko’rsatilgan?

A) Turli shakllardagi mulkchilikning mavjudligi.

B) Iqtisodiy faoliyatning erkinligi va yangilikka moyillik

C) Narxning erkin shakllanishi va davlatning iqtisodiyotga cheklangan holda aralashuvi.

D) Korxona va firmalarning ichki hamda tashqi shart –sharoitlar o'zgarishlariga moslashuvchanligi.

E) Hammasi to'g'ri

4. Bozor iqtisodiyotining nechta turi( bosqichi) mavjud?

A) 2ta.

B) 8ta.

C) 5ta

D) 3ta.

E) To'g'ti javob yo'q.

5. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari quyidagi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Iqtisodiy faoliyatning erkinligi, raqobatning mavjudligi.

B) Resurslarni taqsimlashning samaradorligi va yangilikka intiluvchanlik.

C) Taklifning talabga moslashuvchanligi.

D) A, B, C javoblar to'g'ri .

E) To'g'i javob yo'q.

#### **4-mavzu. Talab va taklif. Bozor muvozanati.**

*Hatto to'tiqushni ham iqtisodchiga aylantirish mumkin, agar ikki so'zni aytishga o'rgatilsa (talab va taklif so'zi). (xalq maqoli)*

**Reja:**

- 1. Talab tushunchasi. Talab qonuni. Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar.**
- 2. Talabning turkumlanishi.**
- 3. Taklif tushunchasi Taklif qonuni. Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar**

##### **4.1.Talab tushunchasi. Talab konuni. Talab mikdoriga ta'sir kiluvchi omillar.**

Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab – bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «xohish», «istak» bo'lib qolaveradi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi, chunki narx o'zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o'zgaradi. SHu bog'liqlikdan kelib chiqib, talabga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ma'lum vaqt oralig'ida, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji **talab** deyiladi. Boshqacha qilib aytganda talab – pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir.

Talablar turlicha bo'lib, odatda bir xil tovar yoki xizmatlarga bo'lgan talabning ikki turi farq qilinadi: yakka talab va bozor talabi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxona, firmaning tovarning shu turiga bo'lgan talabi **yakka talab** deyiladi. Bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdag'i tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi **bozor talabi** deyiladi.

Hozirda iqtisodiy adabiyotlarda talabning turli ko'rinishlari ajratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, **ishlab chiqarish omillariga talab** (ishlab chiqarish talabi) va **iste'mol buyumlariga talab** (aholi talabi) farqlanadi.

Shuningdek, **haqiqiy** (tovar va xizmatlarga haqiqatda namoyon bo'luvchi), **qondirilgan** (haqiqiy talabning bozorda tovar va xizmat sotib olish orqali qondirilgan qismi) va **qondirilmagan** (haqiqiy talabning bozorda zarur tovarlarning yo'qligi yoki ular assortimenti va sifatining xaridor talabiga javob bermasligi sababli qondirilmagan qismi) talablar farqlanadi. Qondirilmagan talab turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: **yashirin, joriy, harakatchan, to'plangan talab**.

**Talab** – ma'lum vaqt oralg'ida, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji miqdori.

Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, **talab bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir**. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «hohish», «istak» bo'lib qolaveradi.

Talablar xar xil bo'lib, bir xil tovar yoki xizmatlarga bo'lgan **talabning ikki turi** farq qilinadi: **yaakka talab va bozor talabi**.



Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxona, firmaning tovarning shu turiga bo'lgan talabi **yakka talab deyiladi**.

Bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdag'i tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yigindisi **bozor talabi deyiladi**.

**Talab hajmi** – xaridorlar ma'lum vaqt va ma'lum joyda mazkur narx bo'yicha xarid qilishga tayyor bo'lgan tovar (xizmat)lar miqdori.

**Talab qonuni** - har qanday bozorda, istalgan vaqtida boshqa teng sharoitlarda tovar narxi va unga talab hajmi orasida teskari bog'liqlik mavjud.

Talab miqdorining o'zgarishi tovar narxi o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi. Bunda talabning o'zi o'zgarmaydi.



#### *Talabning narxga bog'liq bo'limgan omillari*


- iste'molchilarning ta'bi o'zgarishi
- xaridorlar soni o'zgarishi
- iste'molchilar daromadi o'zgarishi
- o'rinososar tovarlar narxi o'zgarishi
- iste'molchilar istaklaridagi o'zgarishlar

## 1-shakl

### Narx va sotib olinadigan tovar miqdori o'rta sidagi bog'liqlik


Bir kg un narxi (so'm)	1 oy davomida unga bo'lgan yakka talab miqdori (kg)	1 oy davomida unga bo'lgan bozor talabi miqdori (tn)
350	10	1,0
300	20	2,0
250	30	3,0
200	50	5,0
150	60	6,0

### Talab egri chizig'i



## 2-shakl.

### 4.2. Talabning turkumlanishi.



### 4.3. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar

**Taklif** – ma'lum vaqt oralig'idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma'lum turdag'i tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilgan miqdori.

**Taklif hajmi** - muayyan vaqt oralig'ida ma'lum narxda sotishga taklif etilgan tovarlar miqdori.


**Taklif qonuni** - har qanday bozorda, istalgan vaqtida boshqa teng sharoitlarda tovar narxi va unga taklif hajmi orasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqliq.

Taklif egri chizig'i –  $Q_s$  ning  $P$  ga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligining grafik ko'rinishi.

U ijobjiy og'ish burchagiga ega va  $SS$  bilan belgilanadi.

Taklif egri chizig'i ishlab chiqaruvchilarining joriy vaqtida turli narxlarda qancha miqdorda mahsulot sotishga tayyor ekanliklarini ko'rsatadi.

### 3-shakl



Tovarning narx o'zgarishidan tashqari boshqa barcha omillari “**narxga bog'liq bo'limgan**” omillar deb ataladi.

Bu SS taklif chizig'ida bir nuqtadan ikkinchisiga o'zgarishini emas, balki taklif egri chizig'ining o'zining o'zgarishini bildiradi.

- agar taklif ortsa, egri SS taklif chizig'i o'ngga (pastga), agar taklif kamaysa, chapga (yuqoriga) o'zgaradi.

$$S=f(P,Pr,kK,T,N,B)$$

**Pr-** resurslar narxi, **K-** mavjud texnologiya xarakteri, **T-** soliqlar va subsidiyalar.

### *Taklifga ta'sir etuvchi omillar*




- resurslar narxi o'zgarishi
- texnologiyalar o'zgarishi
- soliq va subsidiyalar o'zgarishi
- o'rinnbosar tovarlar narxi o'zgarishi
- narx o'zgarishini kutilishi
- bozordagi sotuvchilar soni

## 4.4 Muvozanatli baho

**4-shakl**

1 kg un narxi (so'm)	1 oy davomida unning yakka taklifi miqdori (kg)	1 oy davomida unning bozor taklifi miqdori (tn)
350	60	6,0
300	50	5,0
250	30	3,0
200	20	2,0
150	10	1,0

### Taklif egri chizig'i.




**Talab miqdori va taklif miqdori o'rtaqidagi nisbatning o'zgarishi.  
Bozor muvozanati.**

**5-shakl.**

### Muvozanatli narx.

So' P  
m D ortiqcha ishlab chiqarish S



### *Tayanch tushunchalar*

**Talab** – pul bilan ta'minlangan, to'lovga qodir ehtiyoj; ma'lum vaqt oraliq'ida, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji.

**Yakka talab** – har bir alohida iste'molchi (masalan, shaxs, oila, korxona, firma)ning tovarning shu turiga bo'lgan talabi.

**Bozor talabi** – bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdag'i tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi.

**Talab qonuni** – tovar narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o'zgarishi o'rtasida bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik.

**Talab egri chizig'i** – narx va talab hajmining o'zgarishi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi egri chiziq.


**Taklif** – ma'lum vaqt oralig'idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma'lum turdag'i tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilgan miqdori.

**Taklif qonuni** – narxning o'zgarishi bilan taklif etilayotgan tovar miqdorining to'g'ri bog'liqlikdagi o'zgarishi.


#### **Takrorlash uchun savollar**

1. Ehtiyoj va talab tushunchalari farqini ayting?
2. Talab qonunini tushuntiring. Talabga qanday omillar ta'sir qiladi?
3. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta'sir qiladi?
4. Taklif elastikligi nima? Talab elastikligi nima?
5. Noelastik talab va noelastik taklifni qanday tushundingiz?

#### *Mavzuda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari*



## 2. Klaster tuzish usuli



### Mavzu bo'yicha test savollari.

#### 1. Talab- bu.....

- a) ehtiyoj;
- b) pul bilan ta'minlangan ehtiyoj;
- v) bozorga sotishga chiqarilgan mahsulotlar miqdori;
- g) tovar qiymatining puldag'i ifodasi;
- d) hammasi to'g'ri.

#### 2. Bozor talabi - bu.....

- a) individual talab;
- b) o'zgarmas bozor talabi;
- v) individual talablarning yig'indisi;
- g) bozorda sotishga chiqarilgan tovar va xizmatlarning miqdori;
- d) hamma javoblar to'g'ri.

#### 3. Talabga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- a) tovarlarning narxi va miqdori, iste'mochilar soni va daromadi;
- b) birjadagi tovarlar va xizmatlar narxi va aktsiyalar kursi;
- v) ishchilarni yollash va ularga haq to'lash;
- g) sotuvchi va xaridorlarning miqdori;
- d) resurslar narxi va ishlab chiqarish texnologiyasi.

#### 4. Talab qonuni- bu.....

- a) narx oshgan sari talab ham oshadi va aksincha;

- b) narx oshgan sari talab kamayadi va aksincha;
- v) narxning pasayishi bilan talab kamayadi;
- g) narxning o'zgarishi talabga ta'sir etmaydi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

**5. Talab > taklif bo'lsa:**

- a) pul taqchil bo'ladi;
- b) bozorda tovarlar o'tmay yig'ilib qoladi;
- v) bozor muvozanatiga erishiladi;
- g) bozorda taqchillik hukm suradi;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

## **5-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati va kichik biznes tushunchasi va ularning mohiyati.**

*Daromad ketidan quvish (tadbirkorlik)—oxir—oqibatda tanimagan—bilmagan odamlar ehtiyojini qondirishning yagona usuli*

**Reja:**

- 1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifasi va rivojlanish shart- sharoitlari.**
- 2. Tadbirkorlik faoliyati shakllari va asosiy turlari.**
- 3. Menejment va marketingni tadbirkorlik faoliyatida tutgan o’rni.**
- 4. Tadbirkorlik kapitali va uning harakati**
- 5. O’zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish.**

### **5.1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifasi va rivojlanish shart- sharoitlari.**

**Tadbirkorlik tushunchasini** dastlab ingliz iqtisodchisi R. Kantilon XVIII asrda iqtisodiy adabiyotga olib kirgan. U tadbirkorlikni, asosan, savdogarlar faoliyatları bilan bogliq va bu faoliyatning bosh xususiyati tavakkalchilikdan iborat deb ko’rsatgan. Yana bir taniqli ingliz iqtisodchi olimi A.Smit ham tadbirkorni tavakkal qiluvchi mulk egasi, tijorat bilan shugullanib, foyda oluvchi deb ta’riflaydi.

**Tadbirkorlik faoliyati** tushunchasining mazmuni uning to’rtta o’zaro bog’liq vazifasini aniqlash bilan to’liq tushuniladi.

I. Tadbirkor foyda olish maqsadida tovar (yoki xizmat) ishlab chiqarishning yagona jarayonida yer, suv, kapital va mehnat resurslarini birlashtirish tashabbusini oladi. Shu bilan birga tadbirkor bir vaqtda ishlab chiqarishning harakatlantiruvchi kuchi va ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun boshqa resurslarni bir joyda uyg’unlashtiruvchi tashabbuskor hisoblanadi.


II. Tadbirkor biznesni yuritish, foydani ko’paytirish bo’yicha asosiy qarorlar qabul qiladi, bu qarorlar korxona faoliyatining maqsadini aniqlab beradi.

III. Tadbirkor — yuqori foyda orqasidan quvib, yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyasi yoki hatto biznesni tashkil qilishning yangi shakllarini tijorat asosida joriy qilishga harakat qiluvchi tashabbuskor shaxs hisoblanadi.

IV. Tadbirkorlik faoliyati — bu taxlikaga boruvchi faoliyatdir. Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining shart-sharoitlari.


**Tadbirkorlik** – ishlab chiqarish jarayonida uning omillari: yer, mehnat, kapitalni birlashtiruvchi, bilim va tashabbuskorlik va tavakkalchilik asosida daromadli ishlab chiqarishni tashkil etishni nazarda tutuvchi ishlab chiqarishning mahsus omili

### Tadbirkorlik obekti va subekti



## 5.2. Tadbirkorlik faoliyati shakllari va asosiy turlari.


### Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllari



### Tadbirkorlik turlari


**2-shakl**

### Tadbirkorlik turlari, menejment




### 5.3. Menejment va marketingni tadbirkorlik faoliyatida tutgan o'urni.

*Menejment, uning usul va vazifalari*



**2-SHAKI**

*Marketingning maqsadlari, vazifalari va tamoyillari*



## **Marketing xizmatining vazifalari**


- Maqro - va mikro muhitni (demografik, siyosiy, iqtisodiy, tabiiy va h.k.) baholash;
- bozor (xaridolar, tovarlar, narxlar, sotuvchilar va h.k.) tavsifini o'rganish;
- bozorning salohiyatini (imkoniyatini) o'rganish;
- bozorni segmentlash (ulushi) tahlili, bozorning maqsadli segmentlarini tanlash;
- tovar savdosi tahlili, tovarlarni taqsimlash kanallarini topish (yaratish) (vositachilik xizmati);
- raqobatchilar tovarlarini (xizmatlarini) o'rganish (sifat, assortiment, nomenklatura va h.k.);
- qisqa muddatli prognozlash;
- tovarlar (xizmatlar) hayotiylik davrining hisob-kitobi;
- bozorga kirish usullari va yangi tovarmi bozorga chiqarish bosqichlarini ishlab chiqish;
- talab va taklifni moslashtirish;
- yangi (tovar, narx, servis va h.k.) dan ta'sirlanishni baholash;
- uzoq muddatli prognozlash;
- davlatning narx siyosati va bozorni o'rganish;
- narx hosil bo'lishining strategiya va taktikasini ishlab chiqish;
- sotishni rag'batlantirish (reklama, targ'ibot), axborotni tarqatish vositalarini tanlash

### **Marketing tamoyillari:**

*«Ehtiyojlarni toping va ularni qondiring»*


*«Ishlab chiqarayotganingizni sotishga uringandan ko'ra, sotish mumkin bo'lган  
narsalarni ishlab chiqaring»*

#### 4- shakl




#### 5.4. Tadbirkorlik kapitali va uning harakati

Tadbirkorlik kapitali - tadbirkorlar ihtiyyorida bo'lib, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag'lari



## 5-shakl.

### Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyatning namoyon bo'lishi



### 5.5. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish.

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning zarurligi, uni xalqimizning turmush farovonligini oshirishdagi muhim omil ekanligini xayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Bozor iqtisodiyoti tizimida yashayotgan mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatmokdaki, bozorning tovarlar bilan etarli ta'minoti, asosan, kichik biznes, tadbirkorlikning qay darajada rivojlanganligiga bogliq. Biz yuqorida kichik biznes va tadbirkorlikning bir qator afzalliklarini ko'rsatib o'tdik. Shuning uchun respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qullab – quvvatlashga davlat tomonidan kata ahamiyat berilmoqda.

Iqtisodiyotdagi birinchi asosiy vazifa mulkdorlar sinfini shakllantirishdir. Erkin tadbirkorlik uchun esa iqtisodiy va huquqiy shartsharoit yaratish zarur. I.Karimov bu haqda shunday deydi: «Kichik va o'rta biznesni keng rivojlantirish uchun hamma yo'lni ochib berish lozim. Tadbirkorlik tuzilmalarini, moliya, bank va boshqa bozor tuzilmalari bilan munosabatlarini mustahkamlash, eng muhimi, kredit olish yo'lida mavjud to'siqlarni olib tashlash lozim. Ularning xom-ashyo resurslaridan foydalanishlariga keng yo'l ochib berish, ular ishlab chiqarayotgan mahsulot mamlakatning o'zida ham, tashqarida ham sotiladigan bozorni

kafolatlovchi huquqiy tizimni barpo etish darkor. Kichik biznes uchun boshqaruvchi kadrlar tayyorlaydigan, ularning iqtisodiy va huquqiy madaniyatini oshiradigan biznes makteblari tarmog'nni vujudga keltirish zarur.

Shu bilan bir vaqtida biz iqtisodiyotimizga xorijiy sarmoyani yanada kengroq jalb etish uchun, iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarida, jahon bozorida raqobat qila oladigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishda xorijiy investorlar yanada faol ishtirok etishi uchun yaratilgan huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni takomillashtirishimiz lozim».

2011 yilning yurtimizda “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”deb e'lon qilinishi munosabati bilan bank tizimida qator ustuvor vazifalar amalga oshirildi. Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar, shu jumladan, mikrokreditlar ajratish mexanizmlari takomillashtirildi va yanada soddalashtirildi.

Oilaviy biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish, boshlang'ich kapital hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish maqsadida uzoq va o'rta muddatli kreditlarni ajratish mexanizmlari qayta ko'rib chiqilib, hozirgi davr talablariga moslashtirildi.

**2012 yil 14- sentabr** kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan «**O'zbekistonda ijtimoi – iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati**» mavzusida xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi. Konferentsiya O'zbekistonda barqaror iqtisodiyotni shakillantirish va ijtimoiy islohatlarni amalga oshirishning muhim bugini sifatida kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni yuksaltirish borasidagi ilgor tajribani o'rganish, xalqaro hamjamiyatni mamlakatimizda ushbu sohada erishilayotgan yutuqlar bilan keng tanishtirishga bag'ishlanadi.

### Tayanch tushunchalar.

Tadbirkorlik faoliyati – shakli va sohasidan qat'iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyat.

Aktsiyadorlik jamiyati – ko'proq foyda olish maqsadida aktsiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital)larini birlashtirgan uyushma.

Aktsiya – bu uning egasi aktsiyadorlik jamiyati kapitaliga o’zining ma’lum hissasini qo’shganligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog’oz.

Aktsiya kursi – qimmatli qog’ozlar bozorida aktsiyalarning sotiladigan narxi.

Obligatsiya – uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo’yanligini tasdiqlovchi qimmatli qog’oz.

Ta’sischilik foydasi – sotilgan aktsiyalar va aktsiyadorlik korxonasiga haqiqatda qo’yilgan mablag’lar summasi o’rtasidagi farq.

Dividend – aktsiya egasi o’zlashtiradigan daromad turi.

Tadbirkorlik kapitali – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag’lari.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Tadbirkorlik faoliyatiga ta’rif bering. «Tadbirkorlik faoliyati» va «biznes» tushunchalarini izohlang.
2. Tadbirkorlikning vazifalarini sanab ko’rsating. Nima uchun tadbirkor tahlika (tavakkalchilik) bilan faoliyat ko’rsatadi?
3. Tadbirkorlikning rivojlanish shart–sharoitlari nimalardan iborat?
4. Aktsiyadorlik jamiyatiga ta’rif bering. Aktsiya nima, aktsiya kursi qanday aniqlanadi? Tadbirkorlik kapitali nima? Uning tarkibiy tuzilishi qanday?
5. Tadbirkorlik kapitali ishlab chiqarish va muomala jarayonida qanday bosqichlardan o’tadi hamda qanday shakllarga kiradi?

## ***Mavzuda qo’llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari***

### **1. Sinkveyn sxemasi:**

Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish

1-qator – tushuncha

2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat

3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to’g’risidagi 3 ta fe’l

4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to’g’risidagi 4 so’zdan iborat so’z birikmasi


5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

«Tadbirkorlik», «kapital» tushunchalariga sinkveyn tuzing.

Tadbirkorlik shakllari	Qanday shakllanadi	Kimga tegishli	Kim boshqaradi	Foyda (zarar) qnday taqsimlanadi	Asosiy ustuvor tomonlar	Asosiy kamchiliklar
Shaxsiy						

Xususiy						
Aktsionerlik jamiyati						

## 2. Venna diagrammasi



### 1. Tadbirkorlik faoliyati.....

- a) foyda olish maqsadida tavakkalchilik bilan amalga oshiriladigan faoliyat;
- b) bozor sub'ektlari o'rtaсидagi yuqori foyda va ko'proq tavakkalchilikka ega bo'lism uchun kurashni anglatadi;
- v) iste'mol jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vosita;
- g) asosiy kapitalni kengaytirish va uni takror ishlab chiqarishga qilinadigan sarflar;
- d) Iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar.

### 2. Tadbirkor foyda olishga qaratilgan maqsadini qanday vazifalarni bajarish orqali ro'yobga chiqaradi?

- a) biznesga tegishli asosiy qarorlar qabul qilish;
- b) Iqtisodiy resurslarni birlashtirish;
- v) ishlab chiqarish va tijorat faoliyatida tashabbus ko'rsatish;
- g) tahlikaga borish;
- d) yuqoridagilarning barchasi orqali.

### 3. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish shart-sharoitlari nimadan iborat?

- a) xo'jalik yuritish sub'ekti sifatida iqtisodiy erkinlikka ega bo'lism;
- b) mulkchilik huquqiga ega bo'lism;
- v) Iqtisodiy muhit va ijtimoiy-siyosiy shart-sharoit;
- g) mulkchilik va xo'jalik yuritishning turli-tuman shakllari;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

**4. Tadbirkorlik kapitali qanday shakllarda mavjud bo'ladi?**

- a) pul va unga tenglashtirilgan qimmatli qog'ozlar shaklida;
- b) unumli kapital yoki ishlab chiqarish vositalari shaklida;
- v) tovar va mahsulot zahiralari shaklida;
- g) tugallanmagan ishlab chiqarish va ehtiyyot fondlari shaklida;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

**5. Biznesning asosiy unsuri**

- a) savdo;
- b) ishchi kuchi;
- v) mehnat;
- g) tadbirkorlik;
- d) xaridor.

## **6-mavzu. Iqtisodiy faoliyat va uning samaradorligi. Sarf – xarajatlar va foyda**


- 1. Iqtisodiy faoliyat va uning mazmuni va turlari**
- 2. Ishlab chiqarish jarayoni mazmuni va uning o'ziga xosligi**
- 3. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi**
- 4. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir etuvchi omillar**
- 5. Iqtisodiy xarajatlar tushunchasi. Doimiy, o'zgaruvchan, va umumiylar xarajatlar.**
- 6. Foyda mazmuni. Foyda me'yori va massasi.**

### **6.1. Iqtisodiy faoliyat va uning mazmuni va turlari**

Inson hayotining asosiy qismini uning iqtisodiy faoliyati tashkil etadi. Iqtisodiy faoliyat deb insonning o'z hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash uchun turli vosita, usullardan foydalanib, ma'lum bir yaratuvchilik ishi yoki xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanishga aytildi.

Iqtisodiy faoliyat juda murakkab, keng qamrovli turli hodisa va jarayonlardan iborat. Inson yashar ekan, uning hayoti turli hodisa va jarayonlarning ma'lum tarkibiy qismini tashkil etadi. Iqtisodiy faoliyat shu jarayonlardan biri bo'lib, ular orqali insonlar o'zlarining ehtiyojlarini qondirishi va yashashi uchun turli-tuman noz ne'matlar, ya'ni moddiy, ma'naviy, ijtimoiy shart-sharoitlar yaratadilar. Insonlar turli xil mehnat faoliyati bilan ishlab chiqarish jarayonida qatnashadilar va uning natijasi sifatida jamiyatda ijtimoiy mahsulot yaaratiladi. Bu jarayon uzlusiz takrorlanib davom etadi va xarakati davomida to'rt bosqichni bosib o'tadi. Uning birinchi bosqichi ishlab chiqarish, ikkinchisi ayrboshlash, uchinchisi taqsimot, to'rtinchisi iste'olni tashkil etadi.

1-shakl



## **6.2. Ishlab chiqarish jarayoni mazmuni va uning o'ziga xosligi**

Ishlab chiqarish iqtisodiy faoliyatning boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Ishlab chiqarish shunday jarayonki, unda ishlab chiqarish omillari o'zaro qo'shilib, insonlarning turli – tuman ehtiyojlarini qondirish uchun xilma –xil moddiy va nomoddiy ne'matlar yaaratiladi. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarishning ikki sohasi bor deyiladi.

Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish deganda, ma'lum bir moddiy shaklga ega bo'lgan mahsulotlar: iste'mol buyumlari, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi buyumlar, xullas, inson tomonidan iste'mol qilinadigan ne'matlar va ishlab chiqarish jarayonida ishlataladigan qurol aslahalar, mashina va mexanizmlar, xomashyo, yoqilgi tushuniladi. Moddiy ishlab chiqarish sohasiga, odatda, qishloq va o'rmon xojaligi, baliqchilik, sanoat, qurilish tarmog'i kabilar kiradi.


Nomoddiy ishlab chiqarish deganda, ma'lum moddiy shaklga ega bo'limgan, ammo insonlar va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan tuzilmalar faoliyati tushuniladi. Nomoddiy ishlab chiqarish sohasi, bu — insonlarning a'naviy – ma'rifiy, ahloqiy-madaniy, san'at, ilmiy, ijtimoiy – siyosiy kabi jabhalardagi xizmat ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatlarini qamrab oladi. Xizmat ko'rsatish sohasi ham inson iqtisodiy faoliyatida alohida o'ren tutadi. Xizmat ko'rsatish ham ikki turga — moddiy va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohasiga bo'linadi. Moddiy sohaga xizmat ko'rsatish deganda, ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi yuk transporti, aloqa, savdo, uy-joy, kommunal xizmati, maishiy xizmat kursatish kabilar kiritiladi. Nomoddiy soxalarga xizmat qiluvchilar, bu — maorif, sog'liqni saqlash, san'at, axborot, ijtimoiy ta'minot, moliyaviy hamda yuridik xizmat ko'rsatish va boshqalar.

## **6.3. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi**

Biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, iqtisodiy faoliyatning asosiy boshlangich nuqasi bo'lgan ishlab chiqarish uning uchun zarur bo'lgan omillar iste'mol qilinishidan iborat bo'ladi. Demak, ishlab chiqarish omillari ishlab chiqarishni uzluksiz takrorlanib davom ettirish uchun kerak bo'lar ekan, jamiyat shu omillarning o'zini ham, ishlab chiqarishning doimiy takrorlanib turishini ham ta'minlab turishi zarur.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani ishlab chiqarish omillariga yer, kapital, mehnat, tadbirkorlik va ekologik omillarni kiritadi. Albatta, jamiyat iqtisodiy faoliyatida xar biri o’z o’rniga egadir.

2-shakl



Yer omili — tabiy omil hisoblanib, inson mehnati bilan yaaratilmagan. yer jamiyat uchun bebaxo boylik hisoblanadi. yer omili deganda, biz uning ostki va ustki boyliklarini tushunamiz.

Yerosti boyliklari turli-tuman bo’lib, ular, odatda, tabiiy boyliklar, ya’ni ishlab chiqarishning asosiy homashyo bazasi deb ta’riflanadi. Prezidentimiz I.A. Karimovning «O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida mamlakatimiz tabiiy boyliklari haqida yozilishicha, xozirgacha 900 dan ortiq kon topilgan bo’lib, ularning tasdiqlangan zahiralari 970 mlrd dollarini tashkil etadi, xar yili respublika konlaridan 5-6 mlrd dollarlik foydali qazilmalar olinmoqda. Vatanimiz yer qaridagi 30 dan ortiq konlardan asl metallar qazib olinmoqda.

Yer usti boyliklari ham xilma-xildir. Ularni tavsiflaganda, eng avvalo, qishloq xo’jaligi uchun yaaroqli yerlar, ya’ni xaydaladigan, sugariladigan yer maydonlari, o’rmonlar, o’tloq va tog’lardan iborat deyiladi. O’zbekiston umumiy yer maydoning 62,5% ini, ya’ni 28,5 mln hektarga yaqini qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishi uchun yaroqli yerlarni va uning 4,5% mln hektari xaydaladigan yerlarni, 96 ming km<sup>2</sup> tog’larni, ya’ni xududimizning 21,3 % ini tashkil etadi.

#### 6.4. Mehnat unumdorligi va unga ta’sir etuvchi omillar

Inson xar doim farovon yashashga intilib kelgan. Buning uchun esa maxsulot va xizmatlarni ko’plab va sifatli ishlab chiqarish zarur. Resurslar kamyob bo’lganidan ularni tejab – tergab ishlatish kerak. Bu esa, o’z navbatida, mehnat unumdorligini oshirishni talab qiladi.

Ishlab chiqarishda mehnat omilidan foydalanish darajasi ishchining mehnat unumdorligi ko’rsatkichi orqali baholanadi. Ishlab chiqarish

jarayonida sarflanadigan ish kuchini hisoblash uchun ish kuni yoki ish vaqtি toifalaridan foydalaniladi. Ish kuni deb ma'lum bir ishchining o'z ish joyida, ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan vaqtiga aytildi. Mehnat unumdorligi maxsulot va xizmatlar xajmini, ularni ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqtiga nisbatan aniqlanadi. Mehnat unumdorligini oshirish ishlab chiqarish samradorligini muhim omili hisoblanadi. Mehnat unumdorligini oshirish orqali jamiyat mo'l-qo'llik, farovonlik, ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkin. Mehnat unumdorligi alohida muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'lgani uchun uning o'sishiga ta'sir qiluvchi bir qancha omillar mavjud. Ana shu omillarning eng muhimi, bozor sharoitida uning taqdirlanishi, ragbatlantirilishi, ishslash uchun yaxshi qulay sharoitlar yaratilib berilishidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan mamlakatimizda xar bir ishlovchiga, tadbirkorga iqtisodiy-ijtimoiy, xuquqiy muhitni yaratishga xarakat qilinmoqda.

**Mehnat unumdorligi** — vaqt birligida yaratilgan maxsulot va xizmatlar miqdori yoki maxsulot va xizmatlar birligini yaratish uchun sarflangan ish vaqtidir

Masalan bir ishchi bir soatda yoki bir ish kunida yoki bir yilda qancha sifatli maxsulot yaratgani yoki maxsulot birligini (masalan, 1 ta choynak, 1 ta eshik, 1 ta etik) ishlab chiqarish uchun qancha vaqt sarflangani bilan o'lchanadi. Mehnat turlari ko'p va uning natijasida xar xil maxsulotlar yaratilgani uchun unga sarflangan vaqtini o'lhash ham qiyin. Shuning uchun maxsulotlar turlicha bo'lganidan ularni ishlab chiqarish uchun ketgan vaqtini taqqoslab bo'lmaydi. Shu sababdan mehnat unumdorligi yaratilgan maxsulotning qiymati asosida hisoblab aniqlanadi.

Mehnat unumdorligiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:


1.Ishlab chiqarishni texnik texnologik jihozlanganlik darajasi. Foydalanilayotgan texnika-texnologiyalar qanchalik yangi mukammal bo'lsa, mehnat unumdorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

2.Inson omilining sifati, ya'ni ishlovchilarning bilim darajasi, ish malakasi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning mehnat unumdorliklari ham shunchalik yuqori bo'ladi.

3.Ishlab chiqarishning tabiiy sharoiti qanchalik yaxshi bo'lsa, mehnat unumdorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Tabiiy sharoitni inson o'zgartira olmaydi, ammo texnika va texnologiyalarni takomillashtirish orqali noqulay tabiiy sharoitda ham mehnat unumdorligini oshirish mumkin. Iqtisodiyotda mehnat unumdorligining muttasil o'sib borishi degan obektiv xarakterga ega bo'lgan qonun bor, shunga ko'ra, resurslarning cheklangan bo'lishiga qaramay, ishlab chiqarilgan maxsulot

ko'payib boradi. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir etuvchi omillar quyidagi chizmada keltirilgan.

3-shakl



## 6.5. Iqtisodiy xarajatlar tushunchasi. Doimiy, o'zgaruvchan, va umumiylar xarajatlar.


**Xarajatlar** – ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarish omillarini xarid qilish va undan foydalaniш xarajatlari.

**Foya** – tovar va xizmatlar daromadlarining bu tovarlarni ishlab chiqarish va sotishga qilingan xarajatlardan ortgan qismi.



- ▶ **Tashqi (buxgalteriya) xarajatlar** – firmanın tashqaridan resurslarni xarid qilishga bevosita pul xarajatlari.
- ▶ **Ichki xarajatlar** – firmanın pulda hisobga olinmagan ichki resurslari xarajatlari.

Iqtisodiy xarajatlar

4-shakl



Iqtisodiy va buxgalteriya xarajatlari hamda korxonaning umumiylar tarkibidagi foyda



Xarajatlarning doimiy, o'zgaruvchan, umumiy, o'rta va chegaraviy (marjinal) turlarga bo'linishi


## 6-shakl

Doimiy, o'zgaruvchan, umumiy, o'rta va chegaraviy (marjinal) xarajatlarni aniqlash va ularga oid misollari

Xarajatlar	Ma'lum	Masalan
<b>Doimiy</b> FC (Fixed costs)	Ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lмаган xarajatlar	1000 sh.b.
<b>O'zgaruvchan</b> VC (Variable costs)	Ishlab chiqarish hajmiga bog'liq holda o'zgaruvchi xarajatlar	1400 sh.b. (5ta buyum)
<b>Umumiy</b> TC (Total costs)	Ishlab chiqarishning doimiy va o'zgaruvchan summasi	1000+1400=2400 sh.b.
<b>O'rta</b> ATC(Average Total costs)	Ishlab chiqarishning mahsulot birligiga xarajatlari	2400:5=480 sh.b.
<b>Chegaraviy (marjinal)</b> MS (Marginal costs)	Har qaysi yangi mahsulot birligini ishlab chiqarishda umumiy xarajatlarning ortishi	5-mahsulot - 2400 } 600 6-mahsulot - 3000 } sh.b

## 7-shakl


### Firmaning foyda va zararlari dinamikasi



**Korxona** – mahsulot, tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqaruvchi, ishlarni bajaruvchi, foyda olish maqsadida iqtisodiy faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs huquqiga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt.


## Firmaning amal qilish xususiyatlari

8-shakl




## 9-shakl

### Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'siriga qarab xarajatlarni turkumlash




## 10-shakl

Ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy resurslarni jalg qilish va ulardan foydalanish natijasida vujudga keladigan sarf-xarajatlar **ishlab chiqarish xarajatlari** deyiladi.




## 11-shakl




## 12-shakl

**Xarajatlarning namoyon bo'lish sohasiga ko'ra turkumlanishi.**



## 13-shakl

### Xarajatlarning jalb etilish manbaiga ko'ra turkumlanishi



### 6.6. Foyda mazmuni. Foyda me'yori va massasi.

**Foyda** (markscha izoh) – qo'shimcha qiymatning o'zgartirilgan shakli yoki sotilgan qo'shimcha qiymat.

**Foyda** (zamonaviy izoh) – «kapitalning chegaraviy (marjinal) mahsuloti»dan daromad.

- Foyda me'yori – foydaning ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatining foizda ifodalanishi

Korxona foydasining mutloq miqdori ya'ni yil davomida olingan foyda xajmi massasini tashkil qiladi. Foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati va uning foizda ifodalanishi foyda me'yori deyiladi.

Amaliyotda foyda me'yorini hisoblashning ikki variantidan foydalilanadi. Bular foydaning joriy sarflarga – korxona xarajatlariga yoki avanslangan mablag'larga (asosiy va aylanma kapital) nisbatidir.

Bular ko'yidagicha aniqlanadi.



$$1. R1 = \left( \frac{P}{W} \right) \times 100$$

Bu erda,  $R^1$ - foyda me'yori, R-foyda massasi, W-Iqtisodiy yoki ishlab chiqarish xarajatlari;

$$2. R1 = (R/Kavans) \times 100\%$$

Bu erda  $R^1$ - foyda me'yori, R-foyda massasi, Kavans - korxona avanslangan mablag'lari (asosiy kapital + aylanma kapital) – korxona tomonidan avanslangan mablag'lari yoki asosiy va aylanma kapitalning o'rtacha yillik qiymati.

Foyda me'yori ishlab chiqilayotgan mahsulot xajmiga to'g'ri mutanosib hamda ishlab chiqarish xarajatlari yoki avanslangan mablag'lar qiymatiga teskari mutanosibdir. Shu tufayli foyda me'yori korxona ish samaradorligini integral ko'rsatkichi hisoblanadi.



## **Tayanch tushunchalar**

**Foyda** – tovar va xizmatlardan olingan daromadning bu tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish xarajatlaridan ortishi. Tadbirkorlik sub'ektini xo'jalik yuritish faoliyati moliyaviy natijalarining muhim ko'rsatkichi.

**Yalpi foyda** – xo'jalik yuritish faoliyati mahsulotini sotishdan tushum va ishlab chiqarish omillari xarajatlari yig'indisi o'rtaсидagi pulda ifodalangan farq.

**Sof foyda** – soliq, yig'im va ajratmalar to'langach qoladigan mablag'.

**Buxgalteriya foydasi** – narh (savdodan tushgan daromadlar) va hisobga olingan buxgalteriya xarajatlari o'rtaсидagi farq sifatida hisoblanadi.

**Iqtisodiy foyda** – firmaning xarajatlardan ortuvchi (me'yoriy foydani o'z ichiga oluvchi) umumiyl daromadi.

**Me'yoriy foyda** – mazkur korxona doirasida tadbirkorlik qobiliyatini saqlab qolish uchun zarur eng kam to'lov. Ichki xarajatlarga bog'liq.

**Monopol foyda** firmanın bozordagi monopol o'mni (gaz, neft, temir yo'l va h.k.), shuningdek qulay tabiiy shart-sharoitlar (noyob foydali qazilmalar, qulay iqlim va h.k.) da yuzaga keladi.

**Ta'sischilik foydasi** – ochiq obuna bo'yicha aktsiyalarni sotish qiymati va korxonaga joylashtirilgan real kapital o'rtaсидagi farq bo'lib, aktsiyadorlik jamiyati ta'sischilari tomonidan o'zlashtiriladi.

## **Takrorlash uchun savollar**

1. Iqtisodiy faoliyat nima?
2. Foyda me'yori va massasi nima?
3. Iqisodiy faoliyat fazalari deganda nimani tushunasiz?
4. Foydani maksimallashtirishni qanday tushunasiz?
5. Foydani taqsimlanishi qanday amalga oshiriladi?

## ***Mavzuda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari***

### ***1. Insert usuli”***

**Insert** - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

### **Matnni belgilash tizimi**

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?

### 2. B.B.B. jadvali

Nº	Tushuncha	Bilaman “+”, Bilmayman “-”.	Bildim “+”, Bila olmadim “-”.
1	Ishlab chiqarish sarf-xarajatlarining mohiyatini va tarkibini tushuntiring.		
2	Ichki va tashqi xarajatlar o'rtasidagi farq nimadan iboratligini misol orqali tushuntiring.		
3	O'rtacha doimiy, o'zgaruvchi va umumiy xarajatlarning mazmuni hamda ularning ahamiyatini tushuntirib bering.		
4	Foydaning mazmuni va manbaini tushuntiring.		
5	Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqi nimada? Ularning shakllanish tartibini tushuntirib bering.		
6	Yalpi foydaning taqsimlanish tartibini tushuntirib bering. Mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarining turliligi foydaning taqsimlanish tartibiga qanday ta'sir ko'rsatadi?		
7	Foyda massasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni izohlab bering.		
8	Ishlab chiqarish resurslari tarkibidagi quyidagi o'zgarishlardan qaysilari uzoq muddatli		

	davrdagi xarajatlarga kiradi:		
--	-------------------------------	--	--

### **Mavzu bo'yicha test savollari**

#### **1. Ishlab chiqarish xarajatlari - bu.....**

- a) tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishga qilinadigan barcha sarflar;
- b) yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi;
- v) ko'payib boruvchi ehtiyojlarni qondiruvchi manba;
- g) asosiy kapitalni kengaytirish va uni takror ishlab chiqarishga qilinadigan sarflar;
- d) to'g'ri javob yo'q

#### **2. Doimiy xarajatlar nima?**

- a) asosiy fondlar;
- b) firmalarning o'zgarmas passiv va aktivlari;
- v) firmalarning doimiy aktivlari;
- g) ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lмаган xarajatlar;
- d) doimiy ashyo xarajatlari.

#### **3. O'zgaruvchan xarajatlar nima?**

- a) ishlab chiqarish hajmiga qarab o'zgaradigan xarajatlar;
- b) hamisha o'zgaradigan xarajatlar;
- v) doimiy kapitalning aylanma fondlarga nisbati;
- g) o'zgaruvchan kapital va amortizatsiya;
- d) hamma javoblar to'g'ri.

## **7-mavzu. Ish haqi. Axoli daromadlari va turmush darajasi**

**AHOLINING MUHTOJ TABAQALARINI IJTIMOIY HIMOYALASH SIRA  
KECHIKTIRIB BO’LMAYDIGAN, ENG USTIVOR VAZIFA, AMALIY  
HARAKATLARNING ENG ASOSIY QOIDASI BO’LIB KELDI VA SHUNDAY  
BO’LIB QOLADI.**

**I. KARIMOV**

**Reja:**

1. Ish haqining tashkil etishning shakllari
2. Ish haqi tizimi. Nominal va real ish haqi.
3. Ish xaqi darajasining tabaqalashuvi.
4. Mehnat tushunchasi va munosabatlari, va shartnomalari tizimi.
5. Axoli daromadi va turmush darajasi.
6. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o’zaro aloqasi

### **7.1. Ish haqining tashkil etishning shakllari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarining shakllanishiga doir adabiyotlarda «uch omil» nazariyasi mavjud bo’lib uning asoschilaridan biri fransuz olimi J.B. Seyning fikricha, tovarlarni ishlab chiqarishda «ishlab chiqarishning uch omili», ya’ni mehnat, yer va kapital omillari teng qatnashadi va ular hamma daromadlar manbaidir, demak, jamiyatda daromadlar ham shu omillar o’rtasida taqsimlanadi deydi.

Amerikalik iqtisodchi olim J.B.Klark J.B.Seyning fikiriga qo’shilib, o’zining «Boyliklarning taqsimlanishi» asarida yaratilgan boylik ana shu uch omil o’rtasida ularning har biri yaratgan mahsulot miqdoriga ya’ni «unumdorligiga» qarab taqsimlanadi deb ko’rsatgan Bu olimlarning fikrlarini oddiy qilib tushunsak, kapital, yer va ishchi kuchi qo’shilishi natijasida ishlab chiqarish jarayoni sodir bo’ladi va ma’lum bir nafl, ya’ni tovar yoki xizmatlar yaratiladi, yaratilgan naflik mikdori bilan bu uch omilni mikdori va unumdorligi urtasida bogliklik mavjud bulib, bu uch omil bir-biriga mutanosib ravishda mikdor va sifat jixatidan oshsa, tovarlar va xizmatlar xajmi ham shunga mos ravishda ko’payadi.

Bozor iqtisodiyoti barcha ishlab chiqarish munosabatlari qatorida ish haqiga ham yangicha mazmun baxsh etadi. Bu yangicha mazmun quyidagilarni o’z ichiga oladi.

1) ish haqi aholining barcha toifalari uchun bir xil ahamiyat kasb etmay qoladi. Aholi daromadlarida ish haqining hissasi aholining turli ijtimoiy toifalarida turlicha bo'lib, ular o'rtasidagi farqlar ham ortib boradi.

2) korxonalar, firmalar, tashkilot va muassasalar ish xaqining darajasi va miqdorini o'zлari belgilaydi. Ish haqining minimum darajasi esa davlat tomonidan belgilangan bo'ladi;

3) budgetdagi korxona va tashkilotlar xodimlari ish haqining umumiy miqdori va darajasini davlat belgilaydi.

4) bozor iqtisodiyoti sharoitida odamlarni mehnatga jalb qilish, ularni qiziqtirish, manfaatdorligini oshirish zaruriyati kuchayadi. Shu maqsadda ish haqini, uning darajasini mehnatga, jamoa mehnatining natijalariga bog'lab qo'yish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

5) bozor iqtisodiyoti sharoitda ish haqi darajasiga ish kuchiga nisbatan ham talab va taklif doimiy ta'sir ko'rsatadi. Ish haqi shunga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Jahon mamlakatlari qonunchiligi tajribasiga ko'ra, ish haqi asosiy ish haqi, mukofotlar va ishdan keyin, dam olish va bayram kunlarida bajarilgan ish uchun beriladigan ustama haq sifatida to'lovlardan iborat bo'ladi. Shular birgalikda jami, ya'ni to'liq ish haqini tashkil etadi.

Ish haqi- bu mehnat bozoridagi ishchi kuchi mehnatiga bo'lgan talab va taklifning namoyon bo'lishi, ishchining, uning mehnati sotib oluvchi bilan o'zaro kelishilgan narxidi.

### 1-shakl.


#### **Ish haqi mazmunini aniqlash borasidagi yondoshuvlar**

<b>Yondoshuv yo'nalishi</b>	<b>Asoschilar</b>	<b>Qisqacha mazmuni</b>
«Yashash uchun vosita minimumi» kontseptsiyasi	D.Rikardo, T.Maltus	Ish haqini yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimumi bilan bir xil, deb hisoblanadi
Ishchi kuchi qiymatining o'zgargan shakli	Ingliz klassik siyosiy iqtisod maktabi, marksistik yo'nalishdagi iqtisodchilar	Ish haqi ishchi kuchi tovar qiymatining puldag'i ifodasi sifatida qaralib, uni ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tirikchilik vositalari qiymati sifatida aniqlanadi
Ish haqini mehnat bahosi sifatida ifodalash	Zamonaviy Iqtisodiyot nazariyasining ko'plab vakillari	Ish haqini bozordagi ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif nisbati orqali belgilanuvchi mehnat bahosidan iborat, deb belgilanadi


### **7.2. Ish haqi tizimi. Nominal va real ish haqi.**

Iqtisodiy munosabatlar ichida ish haqining shakllari va turlari alohida bir tizim sifatida o'rganiladi. Ishlab chiqarishning texnik, texnologik jihatdan o'zgarib turishi, o'z navbatida, ishchilar mehnatining mazmunidagi o'zgarishlar, ularning zamonaviy bilimlarga ega bo'lib borishi va turli kasb- hunarlarning kelib chiqishi munosabati bilan ish haqi shakli va tizimlari ham tez o'zgarib bormoqda. Shu munosabat bilan ish haqini tashkil etish tizimini ham o'zgartirib, takomillashtirib borish talab qilinyapti. Hozirgi vaqtida ish haqi to'lashning ikki asosiy shakli: vaqtbay va ishbay shakllari mavjud.

## 2-shakl.



## 3-shakl.




### 7.3. Ish haqi darajasining tabaqlashuvi.

**Mehnat** turlari uning mazmun- mohiyati, miqdori va sifati turlicha, ya'ni jismoniy, ongli, oddiy, murakkab, malakali va malaka talab etilmaydigan mehnatlar bo'lgani uchun ularning natijalari ham bir xil bo'lmaydi. Shuning uchun ularga to'lanadigan ish haqi ham tabaqlashgan bo'ladi. Masalan, yuqori bilim darajasiga ega bo'lgan ongli mehnat sohibalariga, kasbiy malaka va katta ish tajribasiga ega bo'lgan, yaxshi natijalar beradigan mehnat uchun katta haq to'lanadi. Aksincha, oddiy va katta malaka talab etilmaydigan mehnat uchun past ish haqi to'lanadi.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi darjasasi bozorga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin, chunki ishchi ishlayotgan korxona mahsulotlariga bozorda talab katta bo'lsa, ular yaxshi sotilsa, ishchilarining ish haqi oshadi yoki aksincha bo'lsa, kamayadi. Demak, ish haqi mehnat keltirgan nafga bevosita bog'liq bo'lar ekan. Mehnat yaratgan tovar sifati yaxshi bo'lib, u tez sotilsa, mehnatga bo'lgan talab ham oshadi.

#### 4-shakl



*Ish haqini belgilovchi asosiy omillar*

#### 5- shakl.



#### 7.4. Mehnat tushunchasi va munosabatlari va shartnomalari tizimi.

**Mehnat** — bu insonlarning o'z maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan, oldindan rejalashtirib amalga oshiriladigan ongli faoliyati bo'lib, u kishilarning aqlidroki va jismoniy kuchining sarflanishini bildiradi. Mehat faqat insonlarga xosdir, chunki u ongli faoliyatdir.

**Mehat** — kishilarning ongli, aniq maqsadga qaratilgan faoliyat jarayoni bo'lib, ular ana shu faoliyat yordamida moddiy ashyolarni va tabiat kuchlarini o'zgartirib o'z ehtiyojlarini qondirishga moslashtiradilar.

Mehnat faqat kishilar uchun zarur bo'lgan tirikchilik vositalari yaratishning manbaigina bo'lib qolmasdan balki u har bir insonning jamiyatdagi mavqesini, obro'-e'tiborini belgilab berishning asosiy mezonidir.

Insonlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun mehnat qiladilar. Mehnat kishilarning ma'lum bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyati bo'lib, uning natijasida moddiy ne'matlar va boyliklar yaratiladi. Shu bilan birga, har qanday jamiyatda ham mehnat ijtimoi y ishlab chiqarishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Respublika mehnat qonunchiligi sohasida amaldagi qonunlar orasida O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi muhim o'rinn tutadi. U mehnat huquqini kodifikatsiyalashtirilgan asosiy manba sifatida mehnat huquqi sohasining predmeti doirasiga kiruvchi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan bo'lib, 1996 yil 1 apreldan boshlab amalga kiritildi. Uning 1-moddasida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid munosabatlar mehnat to'grisidagi qonun xujjalari, jamoa kelishuvlari, shuningdek, jamoa shartnomalari va boshqa loqal normativ xujjalarni bilan tartibga solinadi.

Mehnat bozorida ish beruvchi tadbirkorlar, firma va boshqa karxonalar bilan ishga yollanuvchi ishchilar o'rtasidagi tuziladigan shartnama O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida belgilangan talablarga binoan tuziladi va bu shartnama ular o'rtasidagi mehnat munosabatini tartibga soluvchi asosiy xujjat hisoblanadi.


O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 72-moddasiga muvofiq. Mehnat shartnomasi xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga buysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mehnat to'grisidagi qonunlar va boshqa normativ xujjalarni bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish xaqidagi kelishuvlar.

Xodim va ish beruvchi mehnat shartnomasining taraflari bo'lib hisoblanadilar. Mehnat shartnomasini tuzish xaqidagi kelishuvdan oldin qo'shimcha xolatlar (tanlovdan o'tish, lavozimga saylanish va boshqalar) bo'lishi mumkin.

Ishga yollash bo'yicha korxona ma'muriyati va ishchilar o'rtasidagi munosabat mehnat shartnomalari yordamida shakllanadi. Mehnat shartnomalari avvalo ish haki stavkasi, normadan ortiqcha bajarilgan ishlarni uchun stavka, dam olish kunlari va tanaffuslar, pensiya fondlari va

sog'liqni saqlashga ajratmalar, hamda baholarning o'zgarishini hisobga olib iste'molchilik savati qiymatini tartibga solish kabi paketlarni o'z ichiga oladi. Keyin mehnat sharoiti masalalari qarab chiqiladi. Nihoyat, qator tashkiliy masalalar hal qilinadi. Odatda kelishuv bir necha yilga (asosan uch yilga) tuziladi.

**6-shakl**



### 7.5. Axoli daromadi va turmush darajasi.

Aholi daromadlari - ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi.

**Natural daromad** - mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo'ladi

**7-shakl.**

#### **Aholi shaxsiy daromadi tarkibiy tuzilishi**

1) Pul va natural shakldagi ish haqi va maosh	Ijtimoiy bandlikdan olinadigan daromadlar
2) Qurolli kuchlar xizmatchilarining pul va natural ko'rinishdagi ta'minotlari	
3) Tadbirkorlarning ajratmaları:	
a) ijtimoiy sug'urta va shu kabilarga	
b) boshqa maqsadlarga.	
4) Erkin kasblardagi shaxslar	O'zini-o'zi band


5) Fermerlar	qilishdan olinadigan daromadlar
6) Boshqa yakka tartibdagi tadbirkorlar va savdogarlar	Mulkdan olinadigan daromadlar
7) Renta, sof foiz, dividendlar	
8) Joriy transfertlar, kompaniyalarning xayriyalari	Transfert daromadlari
9) Davlat nafaqlari va boshqa to'lovlar	

## 8-shakl

**Aholi daromadlari darajasi**

	<b>Nominal daromad</b> – aholi tomonidan ma'lum vaqt oralg'ida olingan daromadlarining pul ko'rinishidagi miqdori	
	<b>Ihtiyorida bo'lgan daromad</b> – shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad	
	<b>Real daromad</b> – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ihtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bj'lgan tovar va xizmatlar miqdori	

## 9-shakl




## 10-shakl

➤ **Aholi turmush darajasi – aholining hayot kechirishi uchun zarur bo’lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne’matlar bilan qondirilishi darajasi**

### ..... AHOLI TURMUSH DARAJASINING KO’RSATKICHLAR TIZIMI GURUHLARI .....

- 1) tug’ilish va o’lish darajasi hamda boshqa demografik ko’rsatkichlar;
- 2) hayot kechirishning sanitar-gigiena jihatidan sharoitlari;
- 3) oziq-ovqat tovarlarini iste’mol qilish;
- 4) turar joy sharoitlari;
- 5) ma’lumot va madaniyat;
- 6) mehnat qilish va bandlik sharoitlari;
- 7) aholining daromadlari va xarajatlari;
- 8) hayot kechirish qiymati va iste’mol narxlari;
- 9) transport vositalari;
- 10) dam olishni tashkil etish;
- 11) ijtimoiy ta’minot;
- 12) inson erkinligi.

## 7-ilova.




## 8-ilova.

➤ **Turmush tarzi – bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati turi hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya**

## TURMUSH TARZI QUYIDAGILARDA NAMOYON BO'LADI

- mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari;
- turmush va bo'sh vaqtdan foydalanish shakllari;
- siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish;
- moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari;
- kishilarning kundalik hayotdagi xulq-atvori me'yorlari va qoidalari

### 9-ilova.



### Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari

Birinchi  
yo'nalish

Narxlар erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish

Ikkinci  
yo'nalish

Ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish

Uchinchi  
yo'nalish

Aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash

Ishlab chiqarishning ijtimoiy samarasi insonlar farovonligiga, ya’ni turmush darajasi va sifatida namoyon bo’ladi. Kishilar xayotiy ehtiyojlarining qondirilishi me’yori turmush darajasi deyiladi. Turmush darajasi ishlab chiqarish taraqqiyotiga, tovarlar va xizmatlar mo’lko’lchiligiga bogliq bo’ladi. Chunki yaratilgan tovarlar va xizmatlarning mste’mol qilinishi ko’rsatkichlariga qarab, aholining turmush darajasini belgilash mumkin. Ishlab chiqarish darajasi yuqori bo’lgani holda unga nisbatan iste’mol miqdori kam bo’lishi mumkin. Ma’lumki, turmush farovonligi milliy daromadning hajmi va uning taqsimlanishiga bogliq. Milliy daromad sezilarli ko’payib borsa, jamgarish miqdori o’sgani holda iste’mol xajmi ortadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xos qoidalardan biri — milliy daromadning tobora ko’proq qismi farovonlikka qaratilishidir. Chunki milliy daromadning asosiy qismi iste’molga mo’ljallanmasa, barqaror iqtisodiy o’sish yuz bermaydi. Yana bir qiziq qonuniyat bor: Iqtisodiyot yuksalgani sari aholining, demakki, iste’molchilarning soni ko’payishi sekinlashib boradi. Masalan, BMT ning ma’lumotlariga ko’ra, dunyodagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning 30 ga yaqinida aholii soni tugilishning kamayshi tufayli, kamayib bormoqda. Garbiy Evropa bo'yicha esa har 1000 kishiga tabiiy o'sish 2 ta bo'layapti. Bu xol o'z-o'zidan aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotni ko'paytirish omillaridan biriga aylanadi. Eng muhimi, bozor iqtisodiyoti aralash iqtisodiyot shaklini olgan sharoitda aholining talab ehtiyojini qondirib, uning farovonligini oshirishdan iborat insonparvarlik tamoyili kuchayib boradi, bu esa iste’molning kengaytirilishini taqozo etadi.

Aholining turmush darajasini aniqlashda aholining real daromadi asosiy ko’rsatkichidir. Marx-navo qat’iy bo’lib, pul daromadi ko’paysa, real daromad ham ortadi. Turmush darajasining moddiy-natural ko’rsatkichlari ham mavjud. Bular jumlasiga aholi jon boshiga to’gri keladigan uy-joy satxi, avtomashina, sovutgichlar miqdori, aholii jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari iste’mol qilish kabilar kiradi.

## **7.6. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o’zaro aloqasi**

Ko’pchilik mamlakatlarda mehnat munosabatlarining rivojlanishi bosh masala ishsizlikni ijtimoiy kafolatlashga, ishlovchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va ish xaqini oshirish imkoniyatlari bilan bog’liq masalalar hisoblanadi. Bu muammolarni hal qilishda asosiy rol kasaba uyushmalariga tegishli bo’ladi. Ko’pchilik bozorlarda ishchilar o’zlarining ish kuchini kasaba uyushmalari orqali jamoa bo’lib sotadi. Kasaba

uyushmalari nisbatan ko'p sonli ishga yollovchilar bilan muzokaralar olib boradi va ularning asosiy iqtisodiy vazifasi ish haqini oshirishdan iborat bo'ladi. Kasaba uyushmalari bu maqsadga turli xil yo'llar bilan erishishi mumkin.

1. Ish kuchiga bo'lgan talabni oshirish. Kasaba uyushmalari nuqtai nazaridan ish haqini oshirishning eng qulay usuli mehnatga bo'lgan talabni kengaytirish hisoblanadi. Ishchi kuchiga bo'lgan talabni ortishi natijasida ish haqi stavkasi ham, ishchi o'rirlari soni ham ortadi. Kasaba uyushmalari bu talabni belgilovchi bir yoki bir necha omillarni o'zgartirish yo'li bilan ishchi kuchiga bo'lgan talabni ko'paytirish mumkin. Xususan, ular ko'yidagilarga erishishga harakat qiladi:

- 1) Ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatiladigan xizmatga talabni oshirish;
- 2) Mehnat unumdorligini oshirish;
- 3) Ishchi kuchi bilan birgalikda foydalanadigan boshqa ishlab chiqarish omillari baholarini o'zgartirish

2. Ish kuchiga taklifini kiskartirish. Kasaba uyushmalari ishchi kuchi taklifini kiskartirish yuli bilan ish xaqi stavkasini oshirish mumkin. Bunga quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

- a) ishsizlikni cheklash;
- b) bolalar mehnatini qisqartirish;
- v) pensiyaga muddatida chiqishni qo'llab-quvvatlash;
- g) ish haftasini qisqartirishga yordam berish.

Bulardan tashqari kasaba uyushmalari tadbirkorlarni o'z a'zolarini ishga yollashga majbur bo'lib, ishchi kuchi taklifi ustidan o'z a'zolari sonini qisqartirish siyosati orqali ishchi kuchi taklifini suniy ravishda qisqartiriladi. Bu o'z navbatida ish haqi stavkasini ortishiga olib keladi.

3. Kasbni malakali litsenziyalash. Bu ma'lum mehnat turi taklifini cheklash vositasi hisoblanadi. Bunda kasaba uyushmalari korxona ma'muriyatiga kasbdagi ishchilar aniq ko'rsatilgan talablarga javob bergen taqdirda ishga qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi. Bu talablar o'z ichiga ishchining ta'lim darajasi mutaxassislik bo'yicha ish staji, imtihon natijasi va shaxsiy tavsiflarni oladi.


4. Kasaba uyushmalari jamoa shartnomalari tuzishda monopol holatga ega bo'lgan tadbirkorlarga qarshilik ko'rsatish yo'li bilan ish haqi stavkasini oshirishga erishish mumkin. Buning natijasida ish haqini oshirish bilan bog'liq qo'shimcha sarflar, yangi ish kuchini yollash natijasida olinadigan ko'shimcha mahsulot hajmidan ortiq bo'ladi.

Hozirgi zamon mehnat munosabatlari o'zida davlatning ta'sirini ham aks ettiradi. Davlatning qonunchilik faoliyati mehnat munosabatlarining

barcha tamoyillarini qamrab oladi. U nafaqat iqtisodiy davlat sektorining ishchi kuchiga bo'lgan talabini bildiradi, balki xususiy sektorni ham tartibga soladi, milliy iqtisodiyot ishga yollashning asosiy o'lchamlarini aniqlaydi.


Mehnat munosabatlariaga davlatning ijtimoiy dasturlari (kam ta'minlangan oilalarga yordam, ishsizlik bo'yicha nafaqa, har-hil ijtimoiy to'lovlar, pensiya ta'minoti va boshqalar) katta ta'sir ko'rsatadi. Bu dasturlar bozor strukturasi yuqori bo'lgan davlatlarda aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini barqarorlashtirishga ma'lum bir darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### 7-shakl



### 8-shakl

### Ochiq turdag'i kasaba uyushmasining ish haqi darajasiga ta'siri



## Tayanch tushunchalar

**Ish haqi** – ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi.

**Vaqtbay ish haqi** – ishchining ishlagan vaqt (kun, hafta, oy) hisobga olinib to’lanadigan ish haqi.

**Ishbay ish haqi** – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hajmiga qarab to’lanadigan ish haqi.

**Nominal ish haqi** – pul shaklida olingan ish haqi summasi.

**Real ish haqi** – nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo’lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining sotib olish layoqati.

**Ishbay-mukofotli haq to’lash tizimi** – bajarilgan ish uchun haq to’lashni erishilgan turli natija ko’rsatkichlariga qarab mukofot berish bilan qo’shib olib borilishini nazarda tutuvchi tizim.

**Ishbay-progressiv haq to’lash tizimi** – ishchining belgilab qo’yilgan me’yor doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan tarif bo’yicha, me’yordan yuqori qismiga esa oshirilgan haq (tarif) bo’yicha ish haqi to’lanishini ko’zda tutuvchi tizim.

**Tarif tizimi** – ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasini tarmoqlar va mamlakat mintaqasi bo’yicha, ular ichida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab tartibga solib turuvchi me’yorlar majmui.

**Tarif-malaka ma’lumotnomalari** – ayrim kasblar va mehnat turlarining bat afsil ta’rifi, ishchi va mutaxassislarning bilim va ko’nikmalariga qo’yiladigan talablar, turli tavsifdagi ishlarni tariflash uchun qo’yiladigan razryadlar majmui.

**Tarif setkasi** – turli razryadlar va tarif koeffitsientlari majmui bo’lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq to’lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to’lashning o’zaro nisbatini ko’rsatadi.

**Tarif stavkalari** – tegishli ravishda belgilab berilgan turli razryadga ega bo’lgan ishchilarning mehnatiga to’lanadigan haq miqdori majmui.

**Mehnat shartnomalari** – korxona ma’muriyati va ishchilar o’rtasidagi ishga yollash bo’yicha munosabatni namoyon etuvchi va tartibga soluvchi hujjat bo’lib, unda ish haqi stavkasi, me’yordan ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka, dam olish kunlari va tanaffuslar, pensiya fondlari va sog’liqni saqlashga ajratmalar hamda narxlarning o’zgarishini hisobga olib iste’mol savati qiymatini tartibga solish kabi masalalar ifoda etiladi.

**Kasaba uyushmasi** – ish beruvchi va ishga yollanuvchi o’rtasidagi mehnat munosabatlarining shakllanishi, amalga oshirilishi va tartibga solinishida ishga yollanuvchilarining manfaatlarini himoya qiluvchi jamoat tashkiloti.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Real ish haqi darajasi qanday omillar ta’siri ostida o’zgaradi?
2. Tarif tizimi o’z ichiga qanday tarkibiy qismlarni oladi? Ularning har birining ahamiyati va farqlanishini tushuntirib bering.
3. Mehnat munosabatlari deganda nimani tushunasiz? Mehnat munosabatlari kimlar tomonidan tartibga solinadi?
4. Kasaba uyushmasi nima va uning qanday turlari mavjud?
5. Mehnat shartnomasi nima va unda qanday masalalar o’z ifodasini topadi?

### ***Mavzuda qo’llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari Insert usuli”***

**Insert** - samarali o’qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o’qib-o’rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o’qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o’z fikrini ifodalaydi.


### **Matnni belgilash tizimi**

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma’lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o’ylantirdi. Bu borada menga qo’shimcha ma’lumot zarur.

### **1. Insert jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
Nominal ish haqi				
Real ish haqi				
Ishbay ish haqi				
Vaqtbay ish haqi				
Tarif tizimi				
Tarif setkasi				
Tarif koefitsienti				
Mehnat munosabatlari				
Mehnat shartnomalari				
Kasaba uyushmalari				
Mehnat nizolari.				

## 2. KLASTER



### Klasterni tuzish qoidasi

1. Hayolingizga kelgan barcha tushunchalarni yozing. G'oya sifatini muhokama qilmang: ularni oddiy holda yozing.
2. Orfografiya va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozuvni to'xtatmang. Agarda fikrlar kelishi birdan to'xtasa, u holda qog'ozga rasm chizing, qachonki to'la fikrlar paydo bo'lmaguncha.
4. Ko'proq aloqa bo'lishligiga harakat qiling. Tushunchalar soni, ular oqimi va ular o'rtaсидagi o'zaro aloqadorlik bo'yicha chegaralanmang.

### Mavzuga doir test savollari

#### 1. Ish haqi nima?

- a) Ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unum dorligiga qarab, milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasidir;
- b) ish haqi iqtisodiy resurs hisoblangan mehnatning bahosi;
- v) ish haqi ishchi kuchi egasining hayot va mehnat faoliyatini ta'minlash vositasi;
- g) barcha javoblar to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

#### 2. Ish haqining vazifasi nimadan iborat?

- a) ishchi va xizmatchilarning hayot va mehnat sharoitini yaxshilash;
- b) sarflangan mehnatning miqdori va sifatini hisobga olish;
- v) mehnat me'yori bilan iste'mol me'yori o'rtaсидagi bog'liqlikni ta'minlash;
- g) iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

#### 3. Mehnat shartnomasida nimalar aks etadi?

- a) ish haqi darajasi, ortiqcha bajarilgan ishlar uchun stavka;
- b) dam olish kunlari, tanaffuslar;

- v) pensiya fondi, sog'liqni saqlashga ajratma;
- g) narxlar o'zgarganda ish haqini tartibga solish tizimi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

**4. Kasaba uyushmalari ish haqi darajasini oshirishga qanday yo'llar bilan erishishi mumkin?**

- a) ishchi kuchiga talabni oshirish orqali;
- b) ishchi kuchi taklifini qisqartirish orqali;
- v) aniq kasbni malakali litsenziyalash orqali;
- g) mehnat unumdorligini oshirish orqali;
- d) yuqoridagi barcha yo'llar bilan.

**5. Ish haqi darajasini tabaqlashtirishga qanday erishiladi?**

- a) tarif - malakali ma'lumotnomalar yordamida;
- b) tarif - setkalari yordamida;
- v) tarif - tavkalari yordamida;
- g) ish haqiga ko'shimcha koeffitsientlar yordamida;
- d) yuqoridagilarning barchasi yordamida.

## **8-mavzu.Raqobat nazariyasi**

**«Raqobat bo’lmagan joyda yaxshi uxlash mumkin, lekin yaxshi yashashning iloji yuq».**  
**Xalq maqoli**

**Reja:**

- 1. Raqobat tushunchasi va uning mohiyati**
- 2. Monopoliyalarning iqtisodiy asoslari va ularning turlari**
- 3. Antimonopol qonunchilik va raqobat uchun shart-sharoitlarni yaratish**

### **8.1. Raqobat tushunchasi va uning mohiyati**

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek raqobat bo’lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo’lmaydi. Raqobat — bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir». Demak, raqobat o’z mohiyatiga ko’ra, bozor iqtisodiyotining asosiy obektiv qonunlaridan biri, bozor munosabatlari takomillashib borishining muhim sharti hisoblanadi.

**Raqobat so’zi lotincha — «concurrentia» so’zidan kelib chiqqan bo’lib, to’qnashmoqni anglatadi.** Raqobat umumijtimoiy kategoriya bo’lib, ijtimoiy jarayonlar qatnashchilari o’rtasidagi yahshiroq yashash sharoiti uchun bo’ladigan kurashni anglatadi. U kishilik jamiyatni xayotining hamma jabhalariga xos bo’lib, odamlar o’rtasidagi o’z imkoniyatlaridan to’laroq foydalanish, ayrim sohalarda o’z ustunliklarni namoyon qilish, farovonrok xayot kechirish, jamoa o’rtasida obro’liroq bo’lish uchun bo’lgan kurashni aks ettiradi. Kishilarning iqtisodiy faoliyati boshqa faoliyatlarning asosini tashkil qilgani uchun kishilik jamiyatni xayotida iqtisodiy sohadagi raqobat muhim rol o’ynaydi. **Iqtisodiy sohadagi raqobat ishlab chiqarish munosabatlarining sub’ektlari ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar, tadbirkorlar, yollanma ishchilar va xokazolar o’rtasida qulayroq ishlab chiqarish sharoitiga, arzon ishlab chiqarish resurslari va ishechi kuchiga ega bo’lish unumliroq texnologiya, ish joyi, yaxshi bozorn qo’lga olish, umuman, yuqori daromad olish imkoniyati uchun olib boriladigan kurashdan iborat.**

Iqtisoddagi raqobat ko’p qirrali hodisa bo’lib, yaxshi daromad ko’rish, o’z qobiliyatini to’laroq ishga solish, o’zi maqlul ishni rivojlantirish, o’z mavqeiga, imijga ega bo’lish uchun ko’rashni bildiradi. Iqtisodiy raqobatning asosini kishilarni mulk egalari sifatida alohidalanishi tashkil etadi. Chunki xar bir mulk egasining o’z manfaati bor. Uning

barcha faoliyati shu manfaatiga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bu ma'noda raqobat ishlab chiqarish munosabatlari sub'ektlari manfaatlarining to'qnashuvidan iborat. Raqobat eng avval tadbirkorlikka xos, shuning uchun K. Marks uni kapitalning ichki tabiatini deb atagan.

Raqobatning bo'lishi uchun iqtisod sub'ektlarining alohidalashgan va mustaqil bo'lishi kifoya qilmaydi. Buning uchun tovar-pul munosabatlariham bo'lishi kerak. Shu sababli natural xo'jalikda ishlab chiqaruvchilar alohida bo'lsalarda, iqtisodiy raqobat bo'lmaydi.

Bozor xo'jaligidagi raqobat kim bo'lishidan qat'i nazar yaxshi ishlaganlarni yutib chiqishini bildiradi. Shu jihatdan u bozor iqtisodini xarakatlantiruvchi kuch hisoblanadi, iqtisodiy resurslarni tejamli ishlatishga, tovar va xizmatlarni ko'plab va sifatli ishlab chiqarishga undaydi.

Tadbirkorlar tovar bozorida sotuvchi sifatida, resurslar bozorida esa xaridorlar sifatida raqobatda bo'lishadi. Ishchilar mehnat bozorida yaxshi ish joyini egallash uchun kurashadilar. Raqobat ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi o'rtasida ham boradi, bu sotuvchi va xaridor raqobatida ko'rindi. Sotuvchi qimmatroq sotishga intilsa, xaridor arzonroq sotib olishni mo'ljallaydi. Bu moliya bozorida ham bo'ladi. Puldorlar o'z pulini qarzga berishda qarz haqini (protsentni) oshirishga intiladilar, qarz oluvchilar ko'pi pasaytirishga xarakat qiladilar.

Xullas, raqobatlashuv iqtisodiy faoliyatning hamma turlariga xos bo'ladi, u bozorning o'zida va bozordan tashqarida bo'ladi. Bozorda raqobat bevosita yuz bersa, bozordan tashqarida xususan ishlab chiqarishda unga hozirlik ko'rildi, raqobatda g'olib chiqish chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bozorda narxni o'zgartirish, savdo reklamasini tashkil etish orqali bellashuv yuz beradi.

Aralash iqtisod sharoitidagi raqobat ko'rashida ishlab chiqarishdagi novatsiya alohida ahamiyatga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida investitsion faollikni talab qiladi. Raqobatda qo'l baland kelishining yana bir sharti malakali va o'ta yuksak malakali ishchilar va mutaxassislarga ega bo'lishdir. Raqobatda yutadiganlar ishi yurishib katta daromad olsalar, yutqazganlar ishlarini to'xtatib zarar ko'radilar. Natijada iqtisodiy tabaqlanish yuz beradi. Iqtisodiy tabaqlanishning ikki jiddiy oqibati bor. Birinchidan, o'z ishini uddalay olmagan firmalarning sinishi eng ishbilarmonlarni tanlab olib, iqtisodni ularning ishonchli qo'liga berish bo'lsa; ikkinchidan, bu zo'r larning yanada zo'rayib ketishi va monopollashuv tendentsiyasini yuzaga keltiradiki, natijada erkin raqobat

cheklanib qoladi. Shu boisdan davlat o'zning antimonopol tadbirlari bilan singan firmalar o'rniga yangilarini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, chunki korxonalarda ko'p joyda raqobat qizg'in boradi.

Erkin raqobat davrida raqiblar ko'rashining ikki asosiy shakli amal qiladi: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat.

**Tarmoq ichidagi raqobat** — bunda bir tarmoq korxonalari o'zaro raqobatlashgadilar. Bu raqobat, eng avvalo, ishlab chiqarishni yuqori unumli texnika-texnologiyalar qo'llash yo'li bilan mehnat tannarxini kamaytirish orqali o'z tovarlari sotilishinng qulayroq sharoitigi ega bo'lish va qo'shimcha foyda olish uchun kurash olib boradilar.

**Tarmoqlararo raqobat** — deganda turli tarmoq firmalari o'rtasida eng yuqori foyda olish uchun olib boriladigan kurashni tushunamiz. Tarmoqlararo raqobat ko'rashi kapitalni yaxshi foyda keltiradigan sohalarga joylashtirish uchun boradi. Yuqori foyda uchun ko'rash tadbirkorlarni o'z kapitalini foyda kam tarmoqdan u ko'p tarmoqqa ko'chirishga majbur qiladi. Foyda yuqori boshqa tarmoqlardan kapitallarning oqib kelishi natijasida bu tarmoqda ishlab chiqarish kengayadi va taklif ko'payadi, bozor to'yinadi, tovarlarning meyo'riy nafligi pasayadi.

Iqtisodiy baquvvat, yirik monopoliyalar, o'tmishdagi kichik korxonalarga qaraganda, milliy va xalqaro mehnat taqsimotida chuqurroq, o'rin egalladilar. Monopoliyalar keng statistik ma'lumotlardan, tarmoq va makroiqtisodiy modellardan foydalangan holda bozorlarni, hom ashyo manbalarini, resurslarni, kapital va ishchi kuchini, texnik imkoniyatlarni taxminiy xisobga oladilar. Monopoliyalar xukmron sharoitda raqobatning quyidagi turlari ajralib turadi:

- 1) Bir tarmoq monopoliyalari o'rtasidagi raqobat.
- 2) Turli tarmoq monopoliyalari o'rtasidagi raqobat.
- 3) Turli mamlakatlar monopoliyalari o'rtasidagi raqobat.
- 4) Monopoliyalar bilan autsayderlar (monopollashmagan o'rta va mayda korxonalar) o'rtasidagi raqobat.
- 5) Autsayderlar o'rtasidagi raqobat.


Raqobatning ikki usuli bor: ***narx vositasida raqobatlashuv, narxdan foydalanmay raqobatlashuv***. Erkin raqobat davrida raqobat ko'rashning bosh usuli tovarni raqibinikidan pastroq narxda sotish bo'lgan. Bu usulni qo'llash uchun korxona boshqalarnikidan ko'ra unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va mehnatni yaxshiroq tashkil etishi kerak.

Raqobatning aytilgan usullaridan tashqari g'irrom usullari ham qo'llanib turadi. Bu usullarga sanoat josusligi (ya'ni raqibining moliya rejalar, yangilik— «nou-xau»lari va boshqa, sirlarini o'g'irlash); raqibini xom ashyo bazalaridan, transportdan maxrum qilish; raqib korxonasida diversiyalar uyuştirish; ommaviy axborot vositalaridai raqibi maxsulotlarining obro'sini tushurish uchun foydalanish va xokazolar kiradi. Bu usullar tabiatan yovvoyi bozor iqtisodiga xos bo'ladi, aralash iqtisod sharoitida ularni tsivilizatsiyalashgan usullar siqib qo'yadi. Bozor uchun kurash belgilangan tartib-qoidalarga binoan boradi. Raqobatning yovvoyi usullari man etiladi, uni qo'llaganlar imijini yo'qotadi, ular qonunchilik yo'li bilan jazolanadi.


Raqobat turli iqtisodiy sharoitda kechadi. Bu sharoit firmalar soni, maxsulotlar turi, narxlar ustidan nazorat, turli soxalarmi monopollashuv darajasi, narxsiz raqobatning mavjudligi yoki yo'qligi, axborot olish imkoniyatlarining xilma-xilligini bildiradi.

Bozor tizimida raqobatning, asosan ikki turi mavjud bo'ib, ular mukammal va nomukammal raqobat deyiladi. ***Mukammal raqobat deganda, shunday raqobatlashuv vaziyati tushuniladiki, unda bir xil maxsulot ishlab chiqaradigan ko'plab mayda va o'rta korxonalar mavjud, ular kurash doirasi keng, ular uchun mavjud tarmoqqa kirish va undan chiqish hamda axborot olish, erkinligi kafolatlanadi.*** Mukammal raqobatga misol qilib sof raqobat tizimini olishimiz mumkin. Sof raqobat tizimining asosiy xususiyati shundan iboratki, bozorda o'z maxsulotini taklif qilayotgan, bir-biridan mutlaqo mustaqil ish ko'rayotgan ko'p sonli sotuvchilar mavjud bo'ladi.


## 1-shakl.




## 2-shakl.



#### 4-shakl.




#### 5-shakl




**6-shakl.**

## **Raqobat tomonlarning manfaatlari to'qnashadi. Bu manfaatlar ularning asosiy maqsadlarini ifodalaydi.**



**7 - shakl.**



## **8.2. Monopoliyalarning iqtisodiy asoslari va ularning turlari**

**Iqtisodiyotda** bozor mexanizmining samarali amal qilishi va raqobat muhitining ta'minlanishi monopoliyalar, ularning kelib chiqish sabablari va amal qilish xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Monopoliya tushunchasiga to'rli o'quv adabiyotlarida turlicha ta'rif beriladi. Jumladan, ba'zi o'rnlarda uni «davlat, korxonalar, tashkilotlar, sotuvchilarining qandaydir xo'jalik faoliyatini amalga oshirishdagi mutla

huquqi» sifatida qaralsa, boshqa holatlarda «faoliyatning u yoki bu sohasida shaxs yoki kishilar guruhining har qanday (ba'zi adabiyotlarda – yakka) hukmronlik holati» deb ta'riflandi. Bu ta'riflardagi monopolianing «mutlaq huquq» yoki «har qanday yoki yakka hukmronlik holati» kabi tavsiflari uning mohiyatini aniq yoritib berolmasligi sababli, uni quyidagicha ta'riflash o'rqli deb hisoblaymiz: monopoliya – monopol yuqori narxlarni o'rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit maqroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari.

«Monopoliya» atamasining kelib chiqishi bozorga oid tushunchalardan (ya'ni, grekcha «monoc» - yagona, bitta va «poleo» - sotaman) tarkib topsada, biroq uning iqtisodiy asoslari aslida ishlab chiqarishga borib taqaladi.

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to'planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to'planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi.

Ishlab chiqarish to'planishining asosiy sababi bo'lib olinayotgan foyda hajmining ko'payishi hisoblanadi. Foydani muntazam ravishda ko'paytirib borish maqsadida tadbirkor olingan qo'shimcha mahsulot (foyda)ning bir qismini kapitallashtiradi, ya'ni unga qo'shimcha ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi sotib oladi. Bu esa ba'zi bir korxonalarning o'sishi hamda ishlab chiqarish miqyoslarining kengayishiga olib keladi. Shu bilan birga raqobat amaldagi kapitallarning ixtiyoriy yoki majburiy birlashtirish, markazlashtirish tendentsiyasini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ishlab chiqarish to'planishining moddiy asosi bo'lib kapitalning to'planishi va markazlashuvi hisoblanadi.

Kapitalning to'planishi – bu qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Bu

jarayon quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, qayta ishlanayotgan xomashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi.

Kapitalning to'planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to'ldiriladi. Kapitalning markazlashuvi – bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aktsiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishidir.

Ishlab chiqarishning gorizontal va vertikal to'planishi farqlanadi.

Ishlab chiqarishning gorizontal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotning ma'lum tarmog'i doirasidagi korxona va firmalarning yiriklashuvidir. U erkin raqobat davri, shuningdek, XX asrning boshlarida ishlab chiqarish to'planishining asosiy shakli sifatida maydonga tushgan edi.

Ishlab chiqarishning vertikal to'planishi – bu milliy iqtisodiyotdagagi bir necha o'zaro bog'liq tarmoqlarda mahsulot ishlab chiqarishning to'planishidir. U ilmiy-texnika inqilobi sharoitlarida keng rivojlandi.

Ishlab chiqarishning to'planishi o'z rivojining ma'lum darajasida monopoliyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning to'planishi hamda monopoliyalarning paydo bo'lishi o'rtaqidagi ichki aloqalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) tarmoqlarda bir necha yirik korxonalarning hukmron mavqega ega bo'lishi ularning bir-biri bilan kelishuviga hamda monopolistik birlashmalar tuzishiga imkon yaratadi;

2) yirik korxonalar o'rtaqidagi raqobat juda qaltis bo'lib, ular uchun katta miqyosdagi yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shunga ko'ra, raqobatni cheklash, tovarlarga yuqori narxlar belgilash va yuqori foyda olish uchun yirik ishlab chiqaruvchilarning monopolistik ittifoqlarga birlashishi lozim bo'ladi.

Monopoliyalarning vujudga kelishida ishlab chiqarishning to'planishidan tashqari yana bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) davlatning protektsionistik bojxona siyosati. U chet eldag'i raqobatchilarning ichki bozorga kirish imkoniyatini yo'qotib, monopoliyalarning paydo bo'lishiga sharoit yaratadi;

2) banklarning faoliyati va moliyaviy siyosati. Banklar sanoat monopoliyalarining jadal o'sishiga imkon beradi.

Monopoliyalarning mohiyatini ochib berishda uning turlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Monopoliyalarning turlarini bir necha mezonlarga ko'ra ajratish mumkin.

**1. Bozorni qamrab olish darajasiga ko'ra:** sof monopoliya, oligopoliya va monopsoniya.

**Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi.** O'zbekistonda sof monopoliyalar sifatida «O'zbekiston havo yo'llari» DAK, «O'zbekiston temir yo'llari» DAK, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasini misol keltirish mumkin. Darhaqiqat, ular o'z tarmoqlaridagi tegishli faoliyatlarining yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadilar. Shuningdek, ba'zi hollarda tarmoqdagi monopolist ishlab chiqaruvchilar sonining ko'payib borishi monopolistik raqobat holatining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. **Monopolistik raqobat – tarmokdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi.** Bunga misol tariqasida ko'plab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini keltirish mumkin.

**Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi.** Oligopolist-ishlab chiqaruvchilarga O'zbekistonda tsement (asosan Bekobod, Kuvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko'mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (SHarg'un) va Boysun (To'da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

**Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko'p bo'lib, ular tovar yoki xizmatharining yagona iste'molchisi yoki xaridori mavjud bo'lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi.** Bunga «O'zDEUavto» korxonasi yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur yirik korxona mamlakatimizdagi yengil avtomobilarni ishlab chiqarishda zarur bo'lgan ko'plab ehtiyyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab chiqaruvchilaridan sotib olishda yakka

hukmronlik mavqeiga ega bo'ladi.

**2. Monopolianing vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko'ra:** tabiiy monopoliya, legal monopoliya, sun'iy monopoliya.

Tabiiy monopoliya tarkibiga kamyob va ishlab chiqarishning erkin tarzda takror hosil qilib bo'lmaydigan unsurlari (masalan, nodir metallar, foydali qazilmalar va h.k.)ga ega bo'lgan mulkdorlar va xo'jalik tashkilotlari kiradi. Shuningdek, mazkur monopoliya tarkibiga o'ziga xos texnologiyaning qo'llanishi sababli raqobatni rivojlantirib bo'lmaydigan ba'zi bir tarmoqlar va ishlab chiqarish turlari ham kiritiladi.

**Tabiiy monopoliya – korxonaning texnologik xususiyatlari sababli mahsulotga bo'lgan talabni qondirish raqobat mavjud bo'limgan sharoitda samaralirok amalga oshiriluvchi tovar bozorining holati.** Bunday samaradorlik ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi bilan tovar birligiga to'g'ri keluvchi xo'jalik xarajatlarining ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, tabiiy monopoliya sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini boshqa turdag'i mahsulotlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

**Legal (qonuniy) monopoliya – bu qonuniy tarzda tashkil etiluvchi monopolistik holat.** Ular tarkibiga raqobatdan himoya qiluvchi quyidagi monopoliya shakllarini kiritish mumkin:

**1) patent tizimi** – bu ixtirochi va mualliflar tomonidan yaratilgan ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalarini tasdiqlovchi hamda ularga mutlaq huquqni taqdim etish tizimi. Bu jarayon maxsus guvohnomalar – patentlar orqali amalga oshiriladi;

**2) mualliflik huquqi** – ilmiy, badiiy va san'at asarlari, ijro san'ati fonogrammalari, ko'rsatuvlar, efir to'lqini yoki qabel orqali tasvir uzatish kabilarni yaratish va ulardan foydalanish munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli. Mualliflik huquqi faqat mualliflar tomonidan o'z mahsulotlarini ma'lum vaqtga yoki butunlay sotish, ulardan nusxa olish va ko'paytirishga ruxsat berish imkonini ta'minlaydi;

**3) tovar belgilari** – bu savdo belgilari, nishonlari, maxsus ramzlari, nomi va boshqalarni ro'yxatga olish, huquqiy jihatdan himoya qilish va ulardan foydalanish bo'yicha paydo bo'lgan munosabatlarni qonuniy tarzda tartibga solish shakli.

**Sun'iy monopoliya – monopol foyda olish maqsadida tashkil etiluvchi birlashmalarining shartli (tabiiy monopoliyalardan ajratib turish uchun) nomi.**

Sun'iy monopoliya o'z manfaatlari yo'lida bozor muhiti tuzilishini ataylab o'zgartiradi, ya'ni:

- bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun turli to'siqlar hosil qiladi (xomashyo va energiya manbalarini egallab oladi; banklarning yangi korxonalarga kredit berishini taqiqlashga harakat qiladi va boshqalar);

- ishlab chiqarishning eng yuksak darajadagi texnologiyasiga erishib, qolgan raqiblarining bu darajaga chiqishiga imkon bermaydi;

- ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish imkonini beruvchi nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qo'llaydi;

- o'z faoliyatini yuqori darajada reklama qilish orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga harakat qiladi.

### **8.3. Antimonopol qonunchilik va raqobat uchun shart-sharoitlarni yaratish**

Monopoliyaning **salbiy tomoni** sifatida quyidagi jihatlarni ko'rsatish mumkin:

**1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi.** Bu holat monopoliyalarning yuqori foya ketidan quvib, sun'iy ravishda ishlab chiqarishni cheklash vositasida narxlarni ko'tarishi, mahsulotlarning u qadar yaxshi bo'lмаган turlarini, past texnikaviy darajasini, past sifati hamda sotishning yomon sharoitlarini vujudga keltirishi orqali namoyon bo'ladi. Natijada, raqobat sharoitida amal qiluvchi iqtisodiyot samaradorligini bozor vositasida tartibga solish mexanizmi ishdan chikadi.

Monopoliyalar bilan bog'liq bo'lган iqtisodiy faoliyatlar erkin hamda oqilona tanlov imkoniyatidan mahrum bo'ladi, monopoliyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanmagan shart-sharoit va narxlari tazyikiga chiday olmaydi, ish faolligini pasaytirib, ba'zi hollarda xonavayron bo'ladilar. Oqibatda ishlab chiqarish qisqarib, ishsizlik va inflyatsiya o'sadi, xo'jalikning izdan chiqishi kuchayadi. Jamiyat boyligi resurslarning oqilona raqobatli-bozor taqsimoti sharoitida qo'lga kiritilishi mumkin bo'lган miqdoriga qaraganda kamayib ketadi;

**2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi.** Bu holat ham narxlarning monopol tarzda oshirilishi (pasaytirilishi) hamda yuqori foya olinishi bilan bog'liq bo'lib, bu aholi qolgan qismi daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi;

**3) Iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi.** Bunday holatning vujudga kelishi monopolistlarning raqobatchilar bosimini sezmasliklari hamda aksariyat hollarda yuqori foydani ko'shimcha urinishlarsiz o'zlarining bozordagi hukmronliklari hisobiga olishlari mumkin. Bu esa ularni ishlab chiqarishni ratsionallashtirish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirish,


mahsulot sifatini oshirish, uning assortimentini kengaytirish, FTTni rivojlantirish va xaridorlar manfaatlari to'g'risida kayg'urish kabi xattiharakatlardan qaytaradi;

#### **4) Iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi.**

Monopolistlar iqtisodiyotdagi erkin va halol raqobatga to'sqinlik qilib, nisbatan kuchsiz bo'lgan korxonalarni o'zlariga bo'ysundirishlari, jamiyatga o'z ishchilarining mehnatiga pasaytirilgan miqdorda haq to'lash, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarish, o'ta darajada oshirib yuborilgan sotish narxlari (yoki pasaytirilgan xarid narxlari), o'z mahsulotini iste'mol qilishga bilvosita usul orqali majburlash kabi o'zlarining kansituvchi shartlarini ko'ndalang qo'yishlari mumkin.

Bundan ko'rindiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatishi, taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lishi ham mumkin. Shunga ko'ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish choratadbirlari qo'llanilib, bu **monopoliyaga qarshi siyosat** deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini **monopoliyaga qarshi qonunchilik** tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo'ladi.

### **8-shakl.**



## 9-shakl

Antimonopol tartibga solishning asosiy  
vo'nalishlari:

- bozorning monopollashuvini cheklash;
- raqobatchi kompaniyalar qo'shilishini taqiqlash;
- monopol narxlar belgilashni taqiqlash;
- raqobatni madaniylashgan tarzda olib borishni qo'llab-quvvatlash

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov farmoni bilan O'zbekiston Respublikasida Davlat mulkini boshqarish davlat komitasi hamda O'zbekiston Respublikasida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish komitasi negizida O'zbekiston Respublikasining Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat ko'mitasi tashkil qilindi ( 2012 yil 12 noyabr)**

### Tayanch tushunchalar

**Raqobat** — bu har bir tovar ishlab chiqaruvchilar, turli xizmat ko'rsatuvchilar hamda iste'molchilar o'rtasidagi yaxshi foyda olish, bozorda, umuman, iqtisodiyotda o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurashdan iborat.

**Raqobat strategiyasi** — bu ma'lum bir firmanın bozorda olib boradigan rakobat kurashining uzok davrga muljallangan asosiy rejasi, yul – yuriklaridir.

**Tarmoq ichidagi raqobat** — bunda bir tarmoq korxonalari o'zaro raqobatlashgadilar. Bu raqobat, eng avvalo, ishlab chiqarishni yuqori unumli texnika-texnologiyalar qo'llash yo'li bilan mehnat tannarxini kamaytirish orqali o'z tovarlari sotilishinng qulayroq sharoitigi ega bo'lish va qo'shimcha foyda olish uchun kurash olib boradilar.

**Tarmoqlararo raqobat** — deganda turli tarmoq firmalari o'rtasida eng yuqori foyda olish uchun olib boriladigan kurashni tushunamiz. Tarmoqlararo raqobat ko'rashi kapitalni yaxshi foyda keltiradigan sohalarga joylashtirish uchun boradi. Yuqori foyda uchun ko'rash tadbirkorlarni o'z kapitalini foyda kam tarmoqdan u ko'p tarmoqqa ko'chirishga majbur qiladi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Raqobatning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatning farqini tushuntirib bering.
3. Raqobatlashuvning demping narxlarni qo'llash usuli qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?
4. Monopoliyaga qarshi siyosat va monopoliyaga qarshi qonunchilikning mohiyati qanday?
5. O'zbekistonda monopoliyaga qarshi kurashuvchi va raqobatni qo'llab-quvvatlovchi qanday tashkilot bor va qachon tashkil etilgan?

### ***Mavzuda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari***

***“Insert usuli”***

**Insert** - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rghanishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

### **Matnni belgilash tizimi**

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma'lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

### **Insert jadvali**

<b>Tushunchalar</b>	<b>V</b>	<b>+</b>	<b>-</b>	<b>?</b>
Raqobat				
Tarmoqlar ichidagi raqobat				
Tarmoqlararo raqobat				
Monopoliya				
Sof monopoliya				
Oligopoliya				
Monopolistik raqobat				
Antimonopol qonunchilik				

## **Mavzu bo'yicha test savollari**

### **1.Raqobat nima?**

- a) Qisqa muddatli ko'p maxsulot ishlab chiqarish
- b) Tez va qulay sotib olish uchun bo'ladigan kurash
- c) Barcha tovarlar uchun bozorni ochib qo'yish
- d) A va V to'g'ri
- e) Hammasi noto'g'ri

### **2.Monopoliya deb nimaga aytildi?**

- a) ishlab chiqarish vositalarini xarakatga keltirish
- b) xalqaro miqyosida tovar ishlab chiqarish va sotish
- c) iqtisodiyotga davlatning aralashuvi
- d) biron – bir sohadagi tanho xukmronlik
- e) davlatning pul-kredit borasidagi siyosati

### **3.Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining asosiy ragbatlantiruvchi kuchi va maqsadi nimadan iborat?**

- a) narx belgilash
- b) foyda olish
- c) raqobatda engish
- d) xarajatlarni kamaytirish
- e) eksportga maxsulot chiqarish

### **4.Xalol raqobatda qanday usullar qo'llaniladi?**

- a) siyosiy xokimiyatdan foydalanish
- b) raqibning tovar belgisidan foydalanish
- c) narxni pasaytirish bilan
- d) raqib korxona siridan ogoh bo'lish
- e) demping siyosati

### **5.Raqobat kurash vositalari va usullari jihatidan qanday turlarga bo'linadi?**

- a) tarmoq ichidagi va tarmoqlararo
- b) xaridorlar va sotuvchilar
- c) monopolistik va monopol bo'limgan
- d) halol va g'irrom
- e) mukammal va nomukammal

## **9-mavzu.Narxning mohiyati va shakllanish mexanizmi**

**Reja:**

- 1. Narx tushunchasi va vazifalari**
- 2. Narxning shakllanishiga ta'sir e'tuvchi omillar**
- 3. O'zbekistonda amaldagi narx tizimi va turlari.**
- 4. Raqobatning turli ko'rinishlari sharoitida narxning shakllanishi.**

### **9.1.Narx tushunchasi va vazifalari**

«Narx nima?», «Uning iqtisodiy mazmuni nimani anglatadi?» kabi savollar nafaqat iqtisodchi olimlarni, balki har qanday tovar va xizmatlarni sotuvchi hamda shu tovar va xizmatlarni sotib oluvchilarni qiziqtiradi. Iqtisodchi olimlar narx tushunchasiga va uning iqtisodiy mazmunini ochib berishga ikki xil yondashadilar: ularning bir guruhi klassiklar, va ikkinchi guruhi neoklassiklar deb ataladi.

Klassik narx tushunchasi, uning mazmun-mohiyatini ishlab chiqarish nuqtai nazaridan yondashib tushuntirishga xarakat qiladilar. Ularning fikricha, narx ishlab chiqarish omillari, eng avvalo, mehnat omili bilan bog'liqdir, «Narx— tovar qiymatining puldagi ifodasıdır» deyishadi. Bundan ko'rini turibdiki, ular narx asosini qiymat tashkil qiladi deb qaraydilar. Har qanday qiymat mehnat orqali yaratiladi, deb o'z fikrlarini asoslashadi.

Neoklassik guruh vakillari (bu guruhning eng atoqli namoyandası Alfred Marshal) nuqtai nazariga ko'ra, «Narx tovarlar va xizmatlarning nafliligini baholash vositasi bo'lib, unga to'lanadigan pul miqdorini ifodalaydi». A.Marshall qiymatni butunlay inkor qilib, faqat almashev qiymat bor va narxning asosini tashkil qiladi, deb ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, narx shakllanishining asosida, eng avvalo, me'yoriy naflilik, so'ngra ishlab chiqarish xarajatlari hamda talab va taklif turadi.

Narx bamisol barometr kabi bozor holatini ko'rsatib turadi, narx pasiyib ketsa, tovar bozori kasodga yo'liqqan bo'ladi, tovar nafsiz bo'lib, uni boshqa tovar bilan almashtirish yoki uning sifatini tubdan yaxshilash va zarurligi kun tartibiga qo'yiladi. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari yaqqol ko'rsatib berdi. Narx besh asosiy vazifani bajaradi:

1. Bozor muvozanatini ta'minlash vazifasi.

Bunda narx bozordagi talab va taklifning xajmi va tarkibiga ta'sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi.

2. Qiymatni hisobga olish vazifasi

Narx qiymatining puldagi ifodasi deb ataymiz, chunki qilingan sarf-xarajat, ko'rilgan foyda-zarar, bajarilgan ish hajmining hammasi ma'lum narxlar asosida hisob-kitob qilinadi. Ishlab chiqarish va uning natijalarining natural moddiy, qiymat-pul o'lchovi bor. Natural-moddiy ko'rsatkichlarni taqqoslash yoki umumiyoq ko'rsatkichga keltirib bo'maydi.

### 3. Tartibga solish vazifasi

Narx bozor iqtisodiyotining asosiy vositasidir. Tovar ishlab chiqarish bozor iqtisodiyotining moddiy asosi, uning bozor bilan aloqasi narx-navo orqali yuz beradi. Narxdagi o'zgarish bozor holatini bildiradi, bu esa talab-taklif nisbatiga bog'liq. Talabning ortishi muayyan tovarni ishlab chiqarishni kengaytirish zarurligini bildiradi, aksincha tovar taklifning ko'pligi uni ishlab chiqarish ortiqcha bo'lib, qisqartirish zarurligini ko'rsatadi. Narx tovar ishlab chiqarish faoliyatiga o'z-o'zidan emas, balki uning daromadi orqali ta'sir etadi. Muayyan ishlab chiqarish xarajatlari sakllangan holda narx yuqori bo'lsa, foyda ortadi, narx pasaysa, aksincha foyda kamayadi. Hatto zarar ko'rish ham mumkin. Foyda yoki zarar ko'rish ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir etadi. Foyda ko'rgan korxona rivoj topadi, zarar ko'rgani esa sinib, yopilib ketadi. Raqobatda omon qolish uchun korxona bozorlardagi narx darajasiga moslashuvi kerak. Narx oshsa, ishlab chiqarish kengaytiriladi, kapital foyda yaxshi kelgan tomonga qarab oqadi. Tovarlar ko'payib, bozor to'lgandan so'ng narx pasayadi, muayyan tovarni ishlab chiqarish qulay bo'lmay qoladi, chunki foyda qisqara boshlaydi. Kapitalni boshqa sohaga, ya'ni tovarning narxi yuqori, bozori chaqqon, sohaga ko'chirish zarur bo'ladi, narxlardagi o'zgarish korxonani yaxshi ishlashga, xarajatini pasaytirgan holda yangilikni o'zlashtirishga, ya'ni novatsiyaga undaydi.

### 4.Raqobat vositasi vazifasi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga xos narsa raqobat hisoblanadi. Raqobat usullaridan eng muhimi narx vositasida kurash. Firmalar o'z raqiblarini sindirish, ularni bozordan siqib chiqarish uchun narxni o'zgartirib turadilar. Bir xil o'rribbosar tovar chiqaruvchi firmalar xaridorni og'dirib olish uchun narxni pasaytiradi, zarar ko'rmaslik uchun tovarlarni ishlab chiqarish tashish, saqlash va sotish xarajatlarini ham qisqartiradi. Ammo vaqtি kelganda narx harakat bilan bog'lanmagan holda ham pasaytiriladi. Narx muhim iqtisodiy dastak bo'lganidan uni tez-tez o'zgartirib turishdek usul raqobatda keng ishlatiladi.


### 5. Ijtimoiy himoya vazifasi.

Narx aholining ayrim toifasi yoki xalqni qimmatchilikdan saqlash vazifasini o'taydi. Odatda aholining nochor va kambag'al qatlamlariga tovarlar arzonlashtirilgan narxda sotiladi. Bular ijtimoiy dotatsiyalashgan narxlar bo'lib, ularni moliyaviy jihatdan davlat budjeti yoki turlicha xayriya mablag'lari ta'minlaydi. Aholining nochor qatlamlariga arzonlashtirilgan narxda oziq-ovqat, qiyim kechak sotiladi. M: G'arb mamlakatlarida aholi eski kiyim-kechakni xayriya qilib turli tashkilotlarga beradi, bu kiyimlar o'ta arzon narxda kambag'allarga sotiladi. Ammo bozor iqtisodiyotida ijtimoiy narxlarni asosiy emas, ular onda-sonda uchrab turadi, chunki ijtimoiy himoyaga muhtojlar pul berish orqali ta'minlanadi, bu pulga ular bozor narxida tovarlar oladilar. Ammo bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichida ayrim mamlakatlarda ijtimoiy himoya vazifasini o'tovchi narxlar keng qo'llaniladi, ular davlatning yordamiga muhtoj tayanadi.

Dotatsiyalangan narxlarni davlat belgilaydi. Bundan maqsad aholining keng qatlamlarini eng zarur iste'mol mollari bilan minimal darajada ta'minlashdir. Masalan, O'zbekistonda 1991 yildan boshlab, un, guruch, qand-shakar, sovun, o'simlik moyi, choy, makaron kabi tovarlar dotatsiyalangan arzon narxlarda va cheklangan miqdorda sotila boshlanadi.

### **1-shakl**


#### **Narxning vazifalari**



## 9.2.Narxning shakillanishiga ta'sir e'tuvchi omillar


2-ilova.

### Tovar narxining shakillanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar



3-shakl.

### Narxga ta'sir qiluvchi omillar



## 9.3.O'zbekistonda amaldagi narx tizimi va turlari.

Hozirgi vaqtida respublikamiz iqtisodiyotida amal qilib turgan barcha narx turlari narx tizimini tashkil qiladi. Narx tizimi va ularning ayrim turlarining iqtisodiy mazmunini qisqacha tavsiflab chiqamiz.

Ulgurji (ko'tara) narxlar — bu narxlardan, asosan, ishlab chiqaruvchilar foydalaniлади. Bunda katta miqdordagi tovarlarga taklif etilib, o'zaro kelishilgan xolda sotiladi. Ulgurji narxlar ishlab chiqaruvchilar va

ta'minot-savdo tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro kelishuv orqali kelib chiqadi.

Shartnomaviy narxlar — shartnomaviy narxlar sotuvchi va xaridor o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida shakllanadi va u ma'lum muddatga tuzilgan xolda amal qiladi. Faqat taraflarning roziligi bilangina o'zgartirilishi mumkin. Bunday narxlar milliy va xalqaro bozorlarda qo'llaniladi. Xalqaro bozorda shartnomaviy narxlar tovar va xizmatlarning jahon bozorlaridagi narxlariga asoslangan xolda kelib chiqadi. Shartnomaviy narxlar deb sotuvchi va xaridorning o'zaro kelishuvi bilan belgilanadigan va tuzilgan shartnomada qayd qilingan narxlarga aytildi.

Chakana narx — iste'mol tovarlarini bevosita aholiga sotish narxi

Chegaralangan narx — bunday narxlarning yuqori va quyi chegarasi belgilangan bo'lib, u davlat tomonidan amalga oshiriladi. Ularning ba'zilari limitlangan yoki imtiyozli narxlar deb yuritiladi.

Dotatsiyalangan narx — bular davlat budgeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxlardir. Bu davlatning narxlarni tartibga solish bo'yicha faoliyatini amalga oshirish natijasi sifatida vujudga keladi. Bunday narxlar yordamida davlat infliyatsiyani jilovlash, kam daromadli oilalar, ishsiz va nogironlarga iqtisodiy yordam berish kabi tadbirlarni amalga oshirib, ularni nazorat qiladi.

Demping narx — bozordan raqiblarni siqib chiqarib, o'z mavqeini mustaxkamlash uchun qo'llaniladigan narx.

Nufuzli narx — Firma narx qo'yganda tovar sotilishini qisqartirmagan holda yuqori narx hisobiga foyda olish.

Erkin bozor narxlari — bu narxlar talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxlardir. Bu narxlar xozirgi zamonaviy, madaniylashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda, bozor munosabatlarining barcha ishtirokchilari mafaatlarini eng maqbul tarzda uygunlashtirishga imkon beradigan narxlar hisoblanadi.

Xududiy, milliy va xalqaro narxlar — xududiy narx deb faqat ma'lum bir xududiy bozorga xos bo'lgan bozor qo'lамини hisobga olgan xolda shu xudud doirasidagi omillar ta'sir ostida shakillanadigan narxlarga aytildi.

Milliy bozor narxi — bu ma'lum bir mamlakat xususiyatlarini xisobga olgan xolda shakllangan va fakat shu mamlakat doirasidagi ijtimoiy xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar naflilagini, uning qanchalik qadrlanishini hisobga olgan xolda shakllanadi.

Jahon narxi — bu muayayan tovarga ketgan baynalminal xarajatlarni, tovarning jahon andozasi talabiga mos kelish darajasini hamda xalqaro bozordagi talab va taklifni hisobga olgan xolda shakllanadi.

Narx diapazoni — bu narxlar oralig'ini puldagi ifodasi bo'lib, uning quyi, o'rta va yuqori chegaralari mayjud bo'ladi. Narx diapazoni qanchalik kata bo'lsa, tovar muomalasi shunchalik tez yuz beradi, chunki talab bilan narx o'zaro bog'lanadi.

Narx pariteti — bu tushuncha iqtisodiyot nazariyasida narxlar nisbati deb ham yuritiladi. iqtisodiy jarayonlar xilma-xil bo'lsada, ular bir birlari bilan chambarchas bog'liq xolda sodir bo'ladi va rivojlanadi. Bu jarayonlar va ularning oxir — oqibat natijalari narxlar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, ma'lum bir maxsulot ishlab chiqarish uchun ketgan boshqa maxsulotlarning xarajatlari eng so'nggi maxsulot xarajatlarini shakllantiradi. Shuning uchun barcha ketgan maxsulotlar narxining o'zgarishi butun narxlar nisbatini o'zgartirish mumkin va buni aniqlashda narx pariteti tushunchasidan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, narx turlari xilma-xil bo'lsada, ular bir-biri bilan o'zaro boglangan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatalish samarasi o'z ifodasini topadi. Shuning uchun «iqtisodiyot nazariyasi» fani narxni iqtisodiy toifa sifatida o'rganadi.

**Muvozanatli narx** — raqobatli kuchlar ta'siri natijasida bozorda talab va taklifni muvozanatlashtiruvchi narx.

Erishilgan muvozanat yuzaga kelgan bozor vaziyatlarining katta iqtisodiy samaradorligidan dalolatdir.

### **Muvozanatli narx va muvozanatli tovar mikdori xususiyatlari:**

1. Bozorda insonlar iste'moli uchun zarur bo'lgan miqdordan ko'p ham, kam ham bo'lмаган tovarlar taqdim etiladi. Ne'matlarni ishlab chiqarish xarajatlari ularning muvozanatli narxi bo'yicha qoplanadi.
2. Muvozanat nuqtasida katta iqtisodiy samara ham ifodalangan. Iste'molchi muvozanatli narxga foydali mahsulotlarning katta (uning daromadiga) miqdorini sotib oladi.
3. Bozorda tovarlar ortiqchaligi ham (aholi daromadlarining mazkur hajmida sotish uchun ortiqcha miqdor), ne'matlar tanqisligi ham kuzatilmaydi.

#### **9.4. Rakobatning turli ko'rinishlari sharoitida narxning shakllanishi.**

Narxning shakllanishiga bozorning holati bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki narxning shakllanishida bozordagi talab va taklif nisbati asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**Mukammal rakobat sharoitida narxning shakllanishi.** Erkin raqobat kurashi sharoitida narxning tashkil topish xususiyatlarini tadqiq etgan dastlabki iqtisodchilardan biri A.Marshall hisoblanadi. Uning fikricha, tovarning oldi-sotdi jarayoniga kadar ikki xil, ya'ni sotuvchi va xaridor narxlari mavjud bo'ladi. Nazariy jihatdan har ikki narxning yuqori va quyi darajalari mavjud. Sotuvchi o'z tovari narxining imkon kadar yuqori bo'lishidan manfaatdor, chunki bunday narx uning foydasi hajmini oshiradi. Biroq, erkin raqobat sharoitida narxni boshqalardan yuqori darajada belgilashga intilish mazkur sotuvchining bozordan siqib chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Sotuvchi narxining eng past darjasи shu tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarni qoplashi kerak. Xaridor tovarni eng past narxda sotib olishdan manfaatdor, biroq erkin raqobatli bozor sharoitida uning ham tovar sotib ololmay qolish xavfi mavjud bo'ladi.

**Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi.** Monopoliya sharoitida narx shakllanishining o'ziga xos jihat shundaki, agar mayda tovar ishlab chiqaruvchilar faqat o'zlarining individual narxlarini o'zgartira olsalar, ulardan farqi o'laroq bozor ishtirokchilari sifatidagi monopoliyalar bozor narxlarini o'zlari belgilay oladilar. Bunda monopoliyalar ommaviy talabning oshishi bilan narxning oshishi hamda ommaviy taklifning oshishi bilan narxning pasayib borishidan o'ziga xos tarzda foydalanadilar.

Ommaviy tartibda tovarlarni sotuvchi monopoliyalar o'z manfaatlari yo'lida taklif kam bo'lganda narxning oshishi tendentsiyasidan foydalanadilar.

**Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi.** Monopsoniya mayda tovar ishlab chiqaruvchilardan tovarlarning katta hajmini sotib olib, talab bo'yicha narx qonunidan o'ziga xos tarzda foydalanadi.

**Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi.** Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi tarmoqdagi tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'llaniluvchi «ergashish» hamda «inkor etish» hatti-harakatlari orqali izohlanadi.

«Ergashish» holatida bir oligopolist tomonidan narx bo'yicha qilingan o'zgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga qolgan oligopolistlar

tomonidan ham ergashish, ya’ni shunday o’zgarishlar qilish kuzatiladi. Odatda, bozorda o’z tovarlariga narxni pasaytirish orqali iste’molchilar soni hamda sotish hajmini oshirishga qaror qilgan oligopolist hattiharkatiga javoban qolgan oligopolistlar ham narxlarni pasaytiradilar.

«Inkor etish» holatida bir oligopolist tomonidan narx bo'yicha qilingan o'zgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga qolgan oligopolistlar tomonidan inkor etish, ya'ni hech qanday javob o'zgarishlari qilmaslik kuzatiladi. Ko'pincha bunday holat oligopolist tomonidan o'z tovariga narxni oshirgan chog'ida ro'y beradi, ya'ni qolgan oligopolistlar tovarlari narxlarini oshirmaydilar. Natijada, narxni oshirgan oligopolist o'z iste'molchilarini yo'qotib, bozordan siqib chiqariladi.

### **Tayanch tushunchalar**

**Narx** – bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidi

**Ulgurji narxlar** — ishlab chiqaruvchilar tomonidan tovarlar katta partiyalarda bir yo'la ko'tarasiga sotilganda mavjud bo'ladi.

**Chakana narxlar** – tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladigan narxlardir.

**Dotatsiyalashgan narx** – davlat budgeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxdir.

**Demping narx** – bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun foydalaniib, bozorga kirib olish narxi deb ham yuritiladi.

**Erkin narx** – talab va taklif ta'sirida shakllanadigan narxlardir.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntirib bering.

2. Qanday narx turlarini bilasiz? Ularga qisqacha tavsif bering.

3. Narxning tashkil topishi borasida qanday nazariyalar mavjud?

4. Nazariyalarning afzallik va kamchilik tomonlarini ko'rsatib bering.

5. Narx siyosati nima? O'zbekistonda narx siyosati amalga oshirilishining qanday xususiyatlari mavjud?

### ***Mavzuda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari* “Insert usuli”**

**Insert** - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa

qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

### **Matnni belgilash tizimi**

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma'lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

### **Insert jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
Ulgurji narx				
Chakana narx				
Dotatsiyalashgan narx				
Demping narx				
Nufuzli narx				
Narx diapazoni				

### **Mavzu bo'yicha test savollari**

#### **1. Narx-.....**

- a) oldi-sotdi vositasi;
- v) ishchi kuchining bahosi;
- g) qiymatning va naflilikning puldagi ifodasi;
- d) qo'shimcha qiymat.

#### **2. Baholar oralig'idagi farqlarning puldagi miqdoriy ifodasi qanday nom bilan ataladi?**

- b) narx ko'rsatkichi;
- v) narx diapazoni;
- g) narx chegarasi;
- d) yuqoridagi barcha nom bilan.

#### **3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx-navo qanday belgilanadi?**

- a) narx-navo davlat tomonidan o'rnatiladi
- v) narxni narx kumitasi belgilaydi
- g) narx erkin shakllanadi va ayrim tovarlarga qat'iy davlat narxlari bo'ladi.
- d) narx markazlashgan tarzda belgilanadi.

#### **4. Narx-navo qanday vazifani bajaradi?**

- a) rag'batlantirish
- v) Iqtisodiy axborot berish
- g) bozor regulatori
- d) hammasi to'g'ri

#### **5. Bahol shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?**

- a) iqtisodiy xarajatlar;
- v) tovarning nafliligi;
- g) raqobat va davlat siyosati;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

## **10-mavzu.Bozor iqtisodiyotining tartiblanishi**

Reja:

1. Iqtisodiyotni tartiblash va uning zarurligi
2. Iqtisodiyotni tartiblashda bozor mexanizmi
3. Iqtisodiyotni tartiblashda davlatni roli va vazifalari
4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning monetar va yangi klassik modellari.

### **10.1.Iqtisodiyotni tartiblash va uning zarurligi**

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotni boshqarish, tartibga solish, tartiblashtirish kabi tushunchalar ko'pincha bir xil ma'noni anglatuvchi tushunchalar sifatida qo'llaniladi. Jumladan, boshqarish nazariyasining asoschisi fransiyalik Anri Feyil boshqarishga shunday ta'rif beradi: «Boshqarish barcha imkoniyatlardan iloji boricha foyda olgan xolda mehnat ahlini korxona maqsadlari sari etaklashdir...»

Ma'lumki, «Iqtisodiyot nazariyasi» fani itisodiyotni ikki darajada: makro va mikrodarajada o'rganadi. Shuning uchun iqtisodiyotni tartiblash ham shu ikki darajada olib boriladi. Mikrodarajada tartiblash deganda ma'lum bir korxona yoki firma faoliyatini boshqarib, tartibga solib borish tushuniladi. Makrodarajada tartiblash deganda ma'lum bir mamlakatning iqtisodiyotini tartibga solib boshqarib turish tushuniladi.

Iqtisodiyotni tartiblash — bu undagi turli bo'g'inlar faoliyatining bir-biriga bog'lanish va mos xolda rivojlanib borishdir.

Xar bir mamlakat iqtisodiyoti milliy iqtisodiyot deb yuritiladi va bozor sharoitida unga, eng avvalo, yalpi talab bilan yalpi taklif bir-biriga mos bo'lishi zarur bo'ladi. Buning uchun ishlab chiqarish tarkibi ham ularga mos bo'lishi kerak. Bu vazifani bajarishda iqtisodiyotni tartibga solishning ikki usulidan foydalaniladi.

1. Iqtisodiyotning o'z-o'zini tartiblash — bozor mexanizmi usuli.
2. Davlat tomonidan tartibga solish. Lekin turli bosqichlarida ular o'rtasidagi nisbat turlichcha bo'lган.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmi birgalikda amal qilgandagina ma'lum darajada barqarorlikni, muvozanatni bir me'yorda ta'minlab, iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

## 1-shakl.


### Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi

- iqtisodiy o'sish
- to'la bandlik
- iqtisodiy samaradorlik
- iqtisodiy erkinlik
- mehnat qobiliyati bo'l maganlarni ta'minlash
- barqaror narx darajasi
- tashqi aloqalardagi balans

## 2-shakl

### Makroiqtisodiy tartibga solish

**Makroiqtisodiy tartibga solish** – bu milliy xo'jalikni ijtimoiy tashkil etish va tartibga solish usullari va mazkur bosqichda tabiiy, moddiy, mehnat, moliyaviy, intellektual va boshqa resurslarni jamiyat ehtiyojlariga muvofiq tarzda taqsimlash mexanizmlari yig'indisi.



## **10.2.Iqtisodiyotni tartiblashda bozor mexanizmi**

Iqtisodiyotni o'z-o'zini tartiblanishning bozor mexanizimi bozor tartibga solish (tartiblash vositasi) ta'siriga asoslanadi. Tartibga solishlar orasida narx etakchilik qiladi. Narx o'zgarishlarga xo'jalik faoliyatining moslashib borishi iqtisodiyotni tartiblab turadi.

Bozor mexanizmi talab va taklif o'yiniga ularning mos bo'lishi yoki bo'lmasligiga asoslanadi va narx orqali amalga oshadi. Narx iqtisodiy xatti xarakatlarni o'zaro bog'lab talab va taklifni moslashtiradi iqtisodiy koordinator (muvofiglashtiruvchi) vazifasini bajaradi.

Narx tartibga solish sifatida iste'molni ham koordinatsiyalaydi. Narx oshganda xaridorlar xarakati o'zgaradi, ular tavarlarni kam sotib oladilr. Bozor iqtisodiyoti tavar ishlab chiqarishga asoslangan, bu tovar ishlab chiqarish o'z navbatida mehnat taqsimotiga tayanadi, bu ishlab chiqarishni chuqur ixtisoslashuviga olib keladi. Ixtisoslashuv bozorga moslashish uchun turli korxonalar faoliyatining koordinatsiyalashuvini talab qiladi va bu vazifani ham narx bajaradi. Agar davlat narxga aralashib, uni muzlatsa, ya'ni uni ma'lum miqdordan ortiq bo'lishini cheklab qo'ysa, bozor muvozanati buzilib, taqchillik paydo bo'ladi.

Birinchi mata ingliz klassik iqtisod namoyandasi bo'lgan A.Smit o'zining mashxur «Odamlar boyligining tabiatini va sabablari xususida tadkikot» kitobida iqtisodiyotning tartibga solishning bozor mexanizmi to'g'risida nazariy fikirlarini asoslab, uning uch fundamental qoidasi borligini ta'kidlaydi va ularni yoritib beradi.

Birinchi qoida — bozor mexanizmini tartibga solishga davlat aralashmasligi kerak. Uning fikricha davlat tenglikni saqlasa, me'yorida soliqlar belgilasa, adolatli sud qilishni ta'minlasa qolganini bozorning o'zi bajaradi. A.Smit davlat xarajatlarini aniq belgilab beradi.

- mamlakat mudofaasi, huquqni himoya qilish, ijtimoiy ishlar va ijtimoiy muassasalar xarajatlari, iqtisodiyotni boshqarish xarajatlari ko'rsatilmagan, demak davlat iqtisodiyotni tartibga solishda qatnashmaydi.

Ikkinci qoida — «ko'rinas qo'l» haqida. U butun xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarni jamiyat mmanfaatiga xizmat qilishga undaydi. «Ko'zga ko'rinas qo'l» - bu bozor, undagi talab va taklif, raqobat. Ular asosida narx tashkil topadi. Har bir tovar ishlab chiqaruvchi jamiyatning yalpi ehtiyojini qondirishdan manfaatdor, shuning uchun iste'molchi talabiga moslashishga majbur. Bunga davlat aralashuvining keragi yo'q.

Uchinchi qoida — bozorni o'z-o'zini boshqarishi to'g'risida. Bu mexanizm tovar ishlab chiqaruvchilar bilan bozor talabi o'rtasidagi to'g'ri va qarama – qarshi iqtisodiy aloqalarni mujassamlashtiradi.

Bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartibga solish klassik modeli tajribada qattiq sinovlarga dosh berolmadidi.

Makroiqtisodiyot davlatning aralashuvchisiz muvaffaqiyatli rivojlanma olmasligi ayon bo'lib qoldi. Yangi makroiqtisodiy regulator zarur edi. Makroiqtisodiyotni tartibga solishning tamomila yangi modeli yaratildi. Iqtisodiy nazariyada uning neoklassik yo'nalishida yangi revolyutsion burilish yasaldi. Uning asoschisi XX asrning buyuk iktisodchisi Jon Maynard Keynsdir.

Uning eng mashhur asari «Ish bilan bandlik, protsent va pulning umumiy nazariyasi» 1936 yil bosmdan chiqdi. Uning asosiy diqqatini tortadigan tomoni makroiqtisodiy jarayonlarni tartiblash nazariyasini asoslab berishidir.

Iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil, Keyns fikricha «samarali talab», u o'z navbatida ikki komponent iste'mol (ya'ni shaxsiy iste'mol) va investitsiya (ya'ni ishlab chiqarish iste'moli)dan iborat. Undan tashqari davlat xaridlari ham yalpi talab miqdorini ko'paytiradi. Shunday qilib:

Iste'mol xarajatlari + investitsiya + davlat xaridlari = yalpi talab.

Keyns fikricha davlatning markaziy vazifasi daromadlarni o'sishga olib keluvchi «samarali talab»ni ta'minlash. Natijada ish bilan bandlik va firmalar daromadi ham o'sadi.

Keyns nazariyasining asosiy tamoyili shuki, davlatga iqtisodiy samarali talabni ta'minlash vazifasi yuklatiladi. Bu milliy xo'jalikka investitsiya va davlat xarajatlariga ta'sir qilish orqali amalga oshadi.

Keyns kontseptsiyasi davlatning uzoq muddatga asoslangan tartibga solishga qaratilgan. Uning parametrlari va yo'nalishlari har bir mamlakatning xususiyatidan kelib chiqib, milliy iqtisodga moslashtirilgan. Keyns nazariyasiga asoslanib davlatning fiskal siyosati shakllangan.

J.M.Keyns tomonidan G'arb mamlakatlari, ayniqsa AQSh (eng to'laqonli ifodasini Franklin Ruzvelt siyosatida topgan), Angliya va boshqa mamlakatlarda qo'llanib, iqtisodiyotni tanglikdan olib chiqishga yordam berdi.

### 10.3. Iqtisodiyotni tartiblashda davlatni roli va vazifalari


Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – bu davlatning jamiyat a’zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan iqtisodiy resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta’minlovchi, umumiyligi iqtisodiy muvozanatga erishishga yo’naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha faoliyati tushuniladi.

3-shakl


Davlatning Iqtisodiyotdagi rolini oshirish nazariyalari	
A.Smitning «Tinch qo'yish» nazariyasi	1929-1933 yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqozo qildi.
J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiyligi nazariyasi» (1936) nomli asari	Davlat fiskal (xazinaviy) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarur.

## 4-shakl


### Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifalari




## 5-shakl




## 6-shakl



## 7-shakl



## 8-shakl



### 10.4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning monetar va yangi klassik modellari.

Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solish to'g'risidagi xozirgi zamon nazariyalari ichida alohida o'rinn tutgan, keng tarqalgan mashxur va nufuzli model — bu monktarizmdir. Bu nazariyaning asoschisi AQSh iqtisodchisi Milton Fridmendir. U 1976-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Monetarizm moneta, ya'ni tanga so'zidan kelib chiqqan. Bu nazariya pul muomalasi to'g'risidagi nazariya deb yuritiladi. Nazariyaning bosh goyasi iqtisodiyotning o'sishini, bozornining barqaror rivojlanishini

ta'minlashning asosiy mexanizmi, vositasini pul deb tushuntirishdan iborat. Fridmenning fikricha, davlat iqtisodiyotga aralashuvi faqat pul muomalasi doirasida bo'lishi kerak. Davlat yalpi talabga muomaladagi pul miqdorini tartibga solish bilangina ta'siretishi kerak deydi. Muomaladagi pul miqdorining esa quyidagi formula orqali aniqlanishini ko'rsatadi:

$$P_m = \frac{YMM}{O}$$

**Pm = YMM qiymati** / Pb pul birligi va uning aylanish soni, ya'ni O ga bo'linadi, deb olinadi.

Monetaristlar pul birligi aylanish soni, odatda kam o'zgaradi., shuning uchun YAMM qiymatiga muomaladagi pul miqdorini tartibga solish bilan ta'sir qilish mumkin. Pul birligi aylanish soniga ko'paytirilgan, emissiya qilingan pul miqdori ishlab chiqarilgan ne'matlarni sotib olish uchun aholida mavjud pul miqdorini ifodalaydi. Ya'ni yalpi talabni ifodalaydi. Demak, YAMM qiymati yalpi talabga bog'liq bo'ladi deyishadi. Fridmen erkin bozorni, talab va taklifni iqtisodiyoni rivojlantirishning eng qudratli iqtisodiy vositasi deb hisoblaydi.

Monetaristlar nazariyasiga binoan ish yuritish bilan inflyatsiya sur'atlarini so'ndirishga erishildi, iqtisodiy faollikni oshirishga yordam berdi. Ammo ishsizlik ortib borib, o'tkir sotsial muammoga aylandi, mehnat resurslaridan foydalanish samarasi pasaydi.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: har ikki nazariya tavsiyalari bir vaziyatda qo'l kelsa, boshqa vaziyatda ish bermay qo'yadi. Agar keynschilar nazariyasi iqtisodiy tushkunlikdan chiqib ketishda qo'l kelsa, monetaristlarning qarashlari iqtisodiy o'nglangan sharoitda uni o'stirishga yordam beradi. Har ikkala oqim iqtisodiyotni tartiblash zaruratidan kelib chiqadi.

Keynschilar asosiy e'tiborini davlatning tartiblash kuchiga qaratgan bo'lsalar, monetaristlar esa iqtisodiyotni o'z-o'zini tartiblash uchun bozor mexanizmi bor, davlat esa ularga yo'l berib, Iqtisodiyotga kam aralashgani ma'qul deydilar.

Keyns nazariyasiga ko'ra fiskal siyosat shakllansa, Fridman nazariyasiga ko'ra monetar pul-kredit siyosati shakllanadi.

Hozirgi kunda turli mamlakatlarda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning asosini keynschilar va monetaristlar nazariy qoidalari va tashkil etadi.

## **Tayanch tushunchalar**

**Iqisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish** – qonunchilik, ijro va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi** – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustaqamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish.

**Davlatning iqtisodiy vazifalari** – iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari** – tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari birligi.

**Bevosita usullar** – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish tavsifidagi ma'muriy vositalari.

**Bilvosita usullar** – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang.
2. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi to'g'risidagi qanday nazariyalarni bilasiz?
3. Davlatning asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering?
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?

### **Mavzuda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari**

#### **1. B.B.B. jadvali**

<b>№</b>	<b>Tushuncha</b>	<b>Bilaman “+”, Bilmayman “-”.</b>	<b>Bildim “+”, Bila olmadim “-”.</b>
1			
2			
3			

### ***“Insert usuli”***

**Insert** - samarali o’qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o’qib-o’rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o’qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o’z fikrini ifodalaydi.

### **Matnni belgilash tizimi**

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma’lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o’ylantirdi. Bu borada menga qo’shimcha ma’lumot zarur.

### **Insert jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
Iqisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish				
Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi				
Davlatning iqtisodiy vazifalari				
Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari				
Bevosita usullar –				
Bilvosita usullar –				

### **Mavzu bo'yicha test savollari**

#### **1.Iqtisodiyotga davlatning aralashuvining qanday usullari mavjud?**

- a) iqtisodiy, ma’muriy
- b) to’gri, egri
- c) oddiy, imtiyozli
- d) oddiy, ma’muriy, iqtisodiy
- e) iqtisodiy, egri

#### **2.Xozirgi zamон sharoitida bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan boshqarish mexanizmi qanday?**

- a) davlat iqtisodiyot rivojlanishini inflyatsiya qarshi siyosat baxo soliq normativ investitsion va strukturaviy siyosat yordamida boshqarib boradi
- b) iqtisodiyotni ma’muriy choralar orqali boshqaradi
- c) iqtisodiyotni ma’muriy huquqiy iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqaradilar
- d) iqtisodiyotni qonun va farmonlar orqali boshqaradi
- e) davlat iqtisodiyotini vazirlar mahkamasi va prezident boshqaradi

#### **3.Bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagi muammolarning qay biri bilan davlat shugullanishi kerak?**

- a) talab va taklifni bir-biriga miqdor va tarkib jihatdan moslashishiga

b) markazlashtirilgan pul fondlarining shakllanishi va uni to'g'ri taqsimlash bilan

c) ishlab chiqarish korxonalariga olgan pul daromadlarining samarali foydalanish usullarini belgilab berish bilan

d) tovar ishlab chiqarish hajmi va uni turlarini rejalashtirish bilan

e) jamiyatga zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar doirasini aniqlash bilan

**4.O'zbekiston Respublikasi ichki va tashki siyosatining asosiy yo'nalishlari qaysi davlat organi belgilaydi?**

a) oliy majlisi

b) tashqi ishlar vazirligi

c) oliy majlis kengashi

d) vazirlar maxkamasi

e) respublika prezidenti va vazirlar maxkamasi

**5.Mustaqil O'zbekiston davlatning bosh strategik maqsadlari bular?**

a) bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etish

b) fuqarolarga munosib xayot sharoiti yaratib berish

c) aholida milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish

d) davlatning islohotchilik vazifalarini demokratik talablar asosida xalk manfaatlariga mos xolda amalga oshirish

e) yuqoridaqilarning barchasi

## **11-mavzu. Agrar munosabatlar**

**YERNI QANCHА QADRLAB, QANCHА E'ZOZLASAK, U BIZGA  
SHUNCHА KO'P RIZQU NASIBA VA NE'MAT BERAVERADI**

**I.A.Karimov**

**Reja:**

- 1. Agrar munosabatlar va jamiyatning agrar sektorlari**
- 2. Yer mult hamda xo'jalik yuritish obekti sifatida ijara munosabatlari**
- 3. Renta va uning miqdoriga ta'sir etuvchi omillar**
- 4. Agrasanoat integratsiyasi**
- 5. Agrosanoat kompleksi va uning tarkibi**

### **11.1.Agrar munosabatlar va jamiyatning agrar sektorlari**

Qishloq ho'jaligi iqtisodiyotining muhim sohasi bo'lib, unda inson uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat maxsulotlari va aholi uchun iste'mol buyumlari tayyorlovchi sanoat tarmoqlariga hom ashyo ishlab chiqariladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz rahbari bu sohaga xar doim alohida e'tibor berib kelmoqda.

«Aloxida e'tibor qaratish lozim bo'lgan navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa, — deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov, —qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bogliq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkor

#### **Iqtisodiy tsikl fazalari**

aqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir».

Agrar sohada ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan brg'liq. yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi.

Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu erda ishlab chiqarish jarayoni bevosita tirik mavjudotlar — yer, o'simlik, chorva mollari bilan bog'liq bo'ladi va tabiiy qonunlar iqtisodiy qonunlar bilan bog'lanib ketadi. Bunda yer mehnat quroli va mehnat predmeti sifatida qatnashadi. Yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqi shundaki, undan foydalanish jarayonida u yeyilmaydi, eskirmaydi. Aksincha, agar undan to'gri foydalanilsa, uning unumdarligi oshib boradi.

Agrar munosabatlarni o'rganishda ham ishchi kuchining, jonli mehnatning faol rol o'ynashini, uning hamma moddiy vositalarga jon ato etib, xarakatga keltiruvchi rolini tushunmaslik guyo kapital foyda yoki foiz, yer esa renta yaratadi, degan ko'pgina xato fikr-mulohazalarga, yolg'on tasavvurlarga olib keladi. Bu masalalarni to'g'ri tushunishda renta munosabatlarini o'rganish muhim rol o'ynaydi.

## **11.2.Yer mulk hamda xo'jalik yuritish ob'ekti sifatida ijara munosabatlari**

Yerga egalik yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum yer uchaskalari tarixan tarkib topgan asoslardagi yoki qonun xujjatlarida belgilangan tartibdagi egalik xuquqini tan olishini bildiradi. Yerga egalik deganda, avvalo, yerga bo'lgan mulkchilik huquqi ko'zda tutiladi. yerga egalikni yeri bo'lgan mulkdor amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksida ko'rsatilganidek, «Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin».

Yerga bo'lgan iqtisodiy munosabatlar. Yerning, birinchidan, mulk obekti va ikkinchidan esa xo'jalik yuritish obekti bo'lishi yerga bo'lgan iqtisodiy munosabatlarning ikki tomonini bildiradi. Yerning mulk ekanligi, uning hech qachon egasiz bo'lmasligi, yer egasining o'z mulkidan naf ko'rishini ko'zlab mablag' sarflashga majbur etadi. Egasiz yer bo'limgani sababli, har qanday yer ham tekinga berilmaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yer egasiga yerdan kimdir foydalangani uchun xaq to'lashni shart qilib qo'yadi.

**Iste'molning bir nechta turi mavjud bular;**

O'zaro kelishilgan muddatga yerdan foydalanganlik uchun haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy aloqalar ijara munosabatlari deyiladi. Bir tomonda yerning egasi, ikkinchi tomonda oluvchi turadi va ular o'rtasidagi munosabatlar ijara shartnomasi orqali ijarachi mustaqil xo'jalik yuritish va yerdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsada, lekin mulk egasi bo'la olmaydi, ya'ni bunda mulk egasi o'zgarmaydi.

## **1-shakl**

### **Ijara haqi**

Ijara haqi quyidagilardan iborat:  
yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan renta ( $R$ ),  
yerga ilgari sarflangan kapital uchun foiz ( $r$ );  
yer uchastkasini ijara qilgan qurilgan inshootlar amortizatsiyasi ( $A$ ).

## **2-shakl.**

### **Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning muhim xususiyatlari**

Ishlab chiqarish jarayonining bevosita tirik mavjudotlar (yer, o'simlik, chorva mollari va h.k.) bilan bog'liqligi

Yerning asosiy mehnat quroli va mehnat predmeti sifatidagi ishtiroki

Kapital tarkibida turli inshootlar, binolar, uzatma mexanizmlar va boshqalar hissasining ko'pligi

Aylanma kapital salmoqli qismining tugallanmagan ishlab chiqarish shaklida bo'lishi

Ish davri va umumiy ishlab chiqarish vaqt o'rtaсидаги muddatning nisbatan uzoqligi

Ishlab chiqarish jarayonining mavsumiyligi

Yil davomida aylanma mablag'lar sarfining bir me'yorda bo'lmasligi

### **11.3.Renta munosabatlari va uning miqdoriga ta'sir etuvchi omillar**

Renta munosabatlari - yerdan foydalanish natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromadni taqsimlash va o'zlashtirish bilan bog'liqlikda vujudga keladigan munosabatlar

Yer rentasi – yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirishning shakli

Yer rentasi orqali erga bo'lgan mulkchilik huquqi ro'yobga chiqariladi. O'zbekistonda «yer – davlat mulki – umummiliy boylik ...» bo'lganligi sababli erga bo'lgan mulkchilik, erga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalari alohida ajratib tahlil qilinishi lozim.

Yerga egalik jismoniy va huquqiy shaxslarning ma'lum yer uchastkasiga tarixan tarkib topgan asoslardagi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi egalik huquqini tan olishini bildiradi. Yerga egalik deganda avvalo yerga bo'lgan mulkchilik huquqi ko'zda tutiladi. Yerga egalikni yeri bo'lgan mulkdor amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksida ta'kidlanganidek: «Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin».

Yerdan foydalanish huquqi – bu o'rnatilgan urf-odatlar yoki qonuniy tartibda undan foydalanishni bildiradi. Yerdan foydalanuvchi yer egasi bo'lishi shart emas. Real xo'jalik hayotida yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ko'pincha har xil jismoniy va huquqiy shahslar bajaradilar.

Agrar munosabatlarning asosini renta munosabatlari tashkil qiladi.

Renta munosabatlari qishloq xo'jaligida yer kimning mulki bo'lsa, mulk egasi yerdan foydalanganlik uchun undan foydalanuvchilardan to'lov oladi. Bu to'lov larning manbai qishloq xo'jaligida yaratilgan qo'shimcha mahsulotdir. Ya'ni yer egasi faqat yer egasi bo'lganligi uchun yaratilgan ko'shimcha mahsulotning bir qismini o'zlashtirib oladi. Bu yerda yer davlatnikimi, xususiyimi buning ahamiyati yo'q. Davlat uni yer solig'i sifatida oladi. Xususiy yer egalari esa yerdan foydalanganliklari uchun to'lov sifatida oladi. Shuning uchun yer rentasi yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish (realizatsiya qilish)ning shaklidir. Hozirgi paytda turli mamlakatlarda mavjud rentaning turlari bir necha xildir.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida yer faqat ijara obekti emas, balki oldi-sotdi obekti hamdir. Yer ham qishloq xo'jalik mahsuloti


etishtirish va tabiiy qazilma boyliklar qazib olish uchun, har xil ishlab chiqarish va turar joy binolari, inshootlar, yo'llar, aeroportlar va hokazolar qurish uchun sotib olinadi. Yerning bahosi nima bilan belgilanadi? Yer almashuv qiymatga ega emas. Chunki u inson mehnati mahsuli emas.

Shu sababli yer va boshqa tabiat in'omlari narxini nazariyotchilar irratsional narxlar deb ataydilar. Yer ham irratsional narxga ega. Yer uchastkasining egasi uni sotishda olingan summani bankka qo'yilganda, foiz tarzida u keltiradigan daromad shu yer uchastkasidan olinadigan rentadan kam bo'lмаган taqdirdagina yerni sotadi. Boshqacha aytganda, yerning narxi kapitallashtirilgan rentadir. Boshqa sharoitlar teng bo'lganda, xuddi shu renta miqdori yer narxini belgilaydi. U renta miqdoriga to'g'ri mutanosib va ssuda foizi normasiga teskari mutanosibdir. Shunday qilib, yerning narxi ikkita miqdorga bog'liq: 1) yer uchastkasi egasi olish mumkin bo'lган yer rentasi miqdoriga; 2) ssuda foizi normasiga.

Renta miqdori o'sib, ssuda foizi normasi pasayib borgan takdirda yerning narxi o'sib boradi.

Yer narxini aniqlashniig bu usuli nazariy ahamiyatga ega. Amalda yer narxi, yer uchastkasiga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillarga bog'liq. Jumladan, yerga narxning o'sishini, unga noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun foydalanishga talabning o'sishi bilan tushuntirilishi mumkin. Inflyatsiya va asosan giperinflyatsiya sharoitida yerga talab keskin o'sadi, bu tegishli ravishda yer narxining o'sishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan g'arb mamlakatlarida XX asr boshlaridan to hozirgi davrgacha yer narxi barqaror o'sish tamoyiliga ega bo'lib, faqat ayrim davrlardagina uning pasayishi kuzatiladi.

### 3-shakl.



**4-shakl.**

**Differentsial renta I ning hosil bo'lishi**


Yer Uchastkasi	Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari (so'm),	O'rtacha foyda (so'm)	Ijtimoiy qiymat (so'm)	YAlpi mahsulot (tonna)	Mahsulotning individual qiymati (so'm)	Ijtimoiy qiymat bozor narxi (so'm)	YAlpi sotilgan mahsulot (so'm)	Differentsial renta I (so'm)
A	8000	2000	10000	20	500	500	10000	-
B	8000	2000	10000	25	400	500	12500	2500
V	8000	2000	10000	30	333	500	15000	5000

**5-shakl.**

**Differentsial renta II ning hosil bo'lishi**

Ishlab chiqarish davri	Ishlab chiqarish xarajatlari (so'm)	YAlpi mahsulot (tonna)	1 tonna mahsulotning individual qiymati (so'm)	1 tonna mahsulotning ijtimoiy qiymati (so'm)	Sotilgan mahsulot summasi so'm	Qo'shimcha mahsulot, ya'ni differentsial renta II, (so'm )
Birinchi yil	10000	20	500	500	10000	-
Ikkinci yil	15000	40	375	500	20000	10000

## **Yer rentasi va uning turlari**



**Agrar munosabatlari** – yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlari

### **11.4. Agrasanoat integratsiyasi**

Agrosanoat integratsiyasi – qishloq xo'jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va maxsulotni iste'molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o'rtaida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning o'zviy birikish jarayonidir.

Agrosanoat integratsiyasi ko'p qirrali bo'lib, u g'oyat xilma – xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bular eng avvalo, ana shu jarayon qaysi darajada ya'ni butun mamlakat ko'lamida, viloyat doirasi yoki korxona darajasida yuz berishiga bog'liq.

Butun mamlakat mintakalar ko'lamida agrosanoat integratsiyasi qishloq xo'jaligining tarmoqlararo kuchayishida, xalk xo'jaligi tarmoq va mintaqa agrosanoat majmualari tashkil bo'lishi va rivojlanishida ifodalanadi.

Agrosanoat majmuasini rivojlanishida agrosanoat integratsiyasi asosiy ro'l o'ynaydi. Agrosanoat integratsiyasining o'zi fan – texnika taraqqiyoti, ijtimoiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvini chuqurlashuvi tufayli yuz beradi.

### **11.5 Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi**

Agrosanoat majmumasi – bu iqtisodning qishloq xo'jaligini zarur ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash, qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqarish uni saqlash, qayta ishlash, iste'molchiga etkazish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlari majmuidan iborat.

Bu majmua qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalarni ishlab chiqarish va tijorat aloqalari bilan barqaror va chambarchas bog'langan, mulkchilik va shartnoma munosabatlariga asoslangan tizimi sifatida yuzaga chiqadi.

Tadbirkorlik foliyatini yagona tizim-agrosanoat majmuasi shaklida tashkil etishi g'arbda agrobiznes deb yuritiladi.

Agrobiznes nazariyasining asoschilari bo'lib, Jon Devis va Rey Golberg hisoblanadi. Ularning 1958 yili «Agrobiznes kontseptsiyasi» nomli kitobi nashrdan chiqqach, agrobiznes so'zi keng qo'llanila boshlandi. Ularning fikricha agrobiznes bu — daromadni maksimallashtirish maqsadida qishloq xo'jaligini resurslar bilan ta'minlash, fermerlarda ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligini hom ashyosini qayta ishlash va undan olingan iste'mol mollarini realizatsiya qilish, saqlash operatsiyalarining yig'indisidir.

Agrobiznes qishloq xo'jaligini zarur resurslar bilan ta'minlash va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishni tashkil etishni o'ziga xos kordinatsiyalash (tashkil etish va tartibga solish) tizimidir.

Qishloq xo'jalik infrastrukturasi har uch sohaga xos hamda sotsial infrastrukturani o'z ichiga oladi. U hamma sohalarni bir butun qilib bog'laydi.

Uzoq vaqt davomida aholini oziq ovqat bilan ta'minlash agrar mehnatning funktsiyasi bo'lsa, endi u sanoatning ham funktsiyasiga aylanadi. Hozirgi paytda iste'molchilarga sotilayotgan oziq- ovqat maxsulotlarni ishlab chiqarish unga sarflangan xarajatlarda AQSh, Frantsiya, Skandinaviya mamlakatlarida 70-75 % va boshqa ko'pgina

mamlakatlarda 60-65 % sanoat xarajatlariga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jalik maxsulotlarining taxminan 1/4 qismi to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilinsa 3/4 qismi texnik qayta tiklanib iste'molga tushadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchidan iste'mol maxsuloti ishlab chiqaruvchidan sanoat uchun etkazib beruvchi tarmoqqa aylanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda agrosanoat majmuida yaratilgan maxsulot tarkibida uchinchi sohaning ulushi ko'p bo'lib 60 % atrofida.

Respublikamizda uchinchi soha qishloq xo'jalik maxsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish va realizatsiya qilish nisbatan oqsoq soha hisoblanadi. Respublikamizda 18 % meva, 35% sabzavot, 67 % o'zum sanoat asosida qayta ishlanadi, quritiladi va saqlanadi. Mavjud konserva ishlab chiqarish korxonalarining 26 %, sut maxsulotlari 35 % gusht maxsulotlari ishlab chiqarish korxonalari quvvati 25 % foydalanilmoqda.

O'zbekistonda aholi uchun zarur oziq-ovqat maxsulotlarini 90 % gacha ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jalik sohalaridagi shakli agrobiznes ko'rinishida namoyon bo'lar ekan uning maqsadi iste'mol bozorini etarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik maxsulotlari, sanoatni esa xom-ashyo bilan uzlusiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Agrobiznesning asosiy shakli va birlamchi bo'g'ini fermer va dexqon xo'jaliklaridir. Bu xo'jaliklar o'z yerida yoki ijaraga olingan yerda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari xisoblanib, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanish mumkin. Fermer xo'jaliklari mustaqil tuzilma bo'lganligi sababli o'z faoliyatini bozor qonyu'kturasiga tez moslashtira oladi. unda iqtisodiy manfaat va pirovard natija uchun mas'uliyat bitta faoliyatning ikki tomonini tashkil qiladi. Bularning hammasi fermer xo'jaliklarining yashovchanligini ta'minlaydi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligini fermerlashtirish agrar islohotlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublikada bu jarayon zarar ko'rib ishlash natijasida og'ir ahvolga tushib qolgan davlat xo'jaliklarining tarkibi fermer xo'jaliklaridan iborat shirkatlar uyushmasiga aylantirsh, mavjud davlat va jamoa xo'jaliklari tarkibida ular resurslar hisobidan fermer xo'jaliklari uyukshtirsh hamda dexqonchilikning o'z mol –mulki negizida bunday xo'jaliklarga dehqon xo'jaligi tashkil qilish yo'li boradi. Fermer xo'jaligining barcha tashkiliy shakllarining umumiyligi tamoni shundaki, ular ijaraga olingan davlat yerida faoliyat ko'rsatadi. Fermer va

xo'jaliklarini tashkil qilish, rivojlantirish va ular faoliyatining tartibga solish O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida» gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» gi, «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida» gi qonunlarga hamda qishloq xo'jaligida islohatlarni chuqurlashtirishga qaratilgan boshqa huquqiy bitimlarga va xukmat qarorlariga asoslanadi.

Bu qonuniy aktlarda fermerlarga ajratilgan yerni meros qilib qoldirish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga olish huquqi mustaxkamlab qo'yildi. Shu bilan birga bu xo'jalik uchun yerlarning unimdonligini saqlash va oshirishda davlat tomonidan kafolatlar yaratish yo'li bilan ularni ximoyalash tizimi vjudga keltirdi. Shunday qilib fermer xo'jaliklarni rivojlantirishn rag'batlantirish uchun xuquqiy, ham tashkiliy shart sharoitlar yaratildi. Natijada Respublikada 2004 yil yakunida 103921 ta fermer xo'jaligi tashkil qilindi, ularga birkirilgan yer maydoni 2935,4 ming gektarni tashkil qilib, bita fermerga to'g'ri keladigan yer maydoni 28,2 gektarga to'g'ri keladi. Xorazm viloyati bo'yicha bu ko'rsatkich quyidagicha jami fermer xo'jaliklari soni 8678 ta, ularga birkilgan yer maydoni 117671 gektar, har bir xo'jalikka o'rtacha 13,5 gektar er to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prizidentining 2004 – 2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risidagi farmonning qabul qilinishi fermer xo'jaliklarini son va sifat jixatidan yanada o'sib rivojlanishlari uchun mustaxkam zamin yaratib beradi.

Agrobiznes turlaridan biri agrofirmalardir. Ular ma'lum turdag'i qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirish va uni pirovard maxsulot darajasigacha qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonalaridir.

Agrofirmalar ham qishloq xo'jaligi, ham sanoatga xos resurslarni ishlatib, iste'molga tayor bo'lган maxsulot yaratdi. Bu turdag'i korxonalar turli mulkchilikka asoslanishi mumkin. Agrosanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning yangi turlari.

Agrosanoat birlashmalari bir turdag'i maxsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir necha xo'jalik hamda korxonalarni birlashtiradi. Birlashma ishtirokchilari ishlab chiqarish xo'jalik va moliyaviy mustakilliklarni saqlab qolishish bilan birga, ularning umumiyligi mulki ham tarkib topib boradi.


Agrosanoat kombinatlari qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirish va iste'molchilarga etkazib berishgacha barcha texnologik jarayonga xizmat qiluvchi xo'jalik va korxonalarning ma'lum bir xududida

birlashuvildir.

O'zbekistonda agrar sektor o'ziga xos xususiyatlarga ega. U xususiyatlar o'z navbatida yerga egalik qilish va yerdan foydalanuvchi su'bektlar munosabatlarida ham namoyon bo'ladi.

Jahon tajribasidan kelib chiqib O'zbekistonda agrar sektor davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

### **Agrobiznes (agrosanoat majmuasi) o'z ichiga to'rt sohani oladi.**



## 6-shakl

Qishloqda turmush darajasini yuksaltirish va qishlog'larimiz qiyo fasini o'zgartirish chora-tadbirlari

O'zbekiston aholisining 50 foizi qishloq joylarida yashaydi. Shuning uchun mamlakatimizni kelajakda gullab-yashnashi, aholining turmush darajasini yuksaltirish ko'p jihatdan qishloqlarimiz taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Qishloqlarimizda hayot sifatini yaxshilash va qishloq xo'jaligi tarmoqlari samaradorligini oshirishga yangi ruh bag'ishlash maqsadida 2009 yilni hurmatli Prezidentimiz "qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb e'lon qildilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 yanvar 2009 yildagi PQ-1046 qaroriga ko'ra 2009 yil "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi" yili munosabati bilan qishloqlarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan Davlat dasturi ishlab chiqildi.

### Davlat dasturi tarkibi

Me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish

Qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmani rivojlantirish

Mahalliy qurilish materiallarini ishlab chiqarishni kengaytirish

Elektr energiyasi bilan ta'minlovchi mavjud korxonalarini rekonstruktsiya qilish

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash

Qishloqlarda sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish

Fuqarolarning sog'ligini himoya qilishni yaxshilash

## Tayanch tushunchalar

**Agrosanoat majmuasi** – bu iqtisodiyotning qishloq xo’jaligini zarur ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlash, qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, uni saqlash, qayta ishslash, iste’molchiga yetkazish bilan shug’ullanuvchi tarmoqlari majmuidan iborat.

**Agrar munosabatlar** — yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o’zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar

**Agrosanoat integratsiyasi** – qishloq xo’jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va maxsulotni iste’molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o’rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning o’zviy birikish jarayonidir.

**Differensial renta** -yer uchastkalarining unumdorligidagi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo’shimcha sof daromad

**Yer rentasi** – yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirishning shakli


**Absolyut renta** – qishloq xo’jaligida yerga bo’lgan xususiy mulkchilik monopoliyasi natijasida vujudga kelib, hamma turdagи yaxshi, o’rtacha va yomon yerdan olinadigan renta

### Takrorlash uchun savollar

1. Agrar munosabatlarning mazmunini, iqtisodiy munosabatlarda tutgan o’rnini va xususiyatlarini ko’rsatib bering.
2. Yer rentasi nazariyalarining umumiyligi tomonlari va tub farqlarini ko’rsatib bering.
3. «Ijara haqi» va «yer rentasi» ning farqlarini izohlang.
4. Agrobiznesning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning asosiy turlariga tavsif bering.
5. Agrosanoat majmuasi va agrosanoat integratsiyasi tushunchalari iqtisodiy mazmuniga o’z fikringizni bildiring.

### *Mavzuda qo’llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari*

#### 1. Venna diagrammasi



## **2. Insert usuli”**

**Insert** - samarali o’qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o’qib-o’rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o’qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o’z fikrini ifodalaydi.

### **Matnni belgilash tizimi**

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma’lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o’ylantirdi. Bu borada menga qo’shimcha ma’lumot zarur.

### **Insert jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
Yer rentasi				
Ijara haqi				
Differentsial renta				
Agrosanoat majmuasi				
Agrobiznes turlari				

### **Mavzu bo'yicha test savollari**

#### **1.O’zbekiston qishloq xo’jaligini isloh qilishda nimani nazarda tutish kerak?**

- a) qishloq xo’jaligida davlat sektorini kengayishi
- b) hamma qishloq xo’jaligi maxsulotlariga yagona sotib olish bahosini joriy etish
- c) dexqon fermer xo’jaliklarini tashkil etish
- d) qishloq xo’jaligida mehnat bilan band bo’lgan kishilar sonini kamaytirish
- e) qishloq xo’jaligi xorij texnika va texnologiyalarini kiritish

#### **2.Differentsial renta 1 ning mohiyati qaysi javobda to’g’ri berilgan?**

- a) yerdan foydalanish xuquqi uchun ijrarachi yer egasiga to’laydi
- b) yerning unumdoorligi va tabiiy geografik jihatdan qulay joyda joylashganligiga qarab vujudga keladigan
- c) yerga qo’shimcha mablag’ sarflash evaziga olinadi
- d) noyob maxsulotlar yetishtiriladigan yerdan undiriladi
- e) lalmikor yerdandan undiriladi

#### **3.Yer rentasining notug’ri turini aniqlang?**

- a) differentsial 1

- b) monopol
- c) differtsial 2
- d) absolyut
- e) nisbiy

**4. Agrar islohatlarni negizini nima tashkil qiladi?**

- a) qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqarish
- b) yerga mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirish
- c) xizmat ko'rsatish sohasini rivotantirish
- d) qishloq aholisini ijtimoiy kafolatlarini mustahkamlash
- e) qishloqda boshqaruv tizimini takomillashtirish

**5. Agrabiznes deb nimaga aytildi?**

- a) qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlash sohasi
- b) qishloq xo'jalik korxonalariga texnika etkazib beruvchi soha
- c) qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlovchi soqa
- d) qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi infrastruktura
- e) qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik faoliyati

## **12–mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari. Yalpi milliy mahsulot**

**Reja:**

- 1. Takror ishlab chiqarish mohiyati va maqsadi.**
- 2. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning roli**
- 3. Milliy iqtisodiyot va uning ko'rsatkichlari**
- 4. YaMMning mazmuni va tarkibiy qisimlari**
- 5. YaMMni hisoblash usullari**

### **12.1. Takror ishlab chiqarish mohiyati va maqsadi.**

Kishilik jamiyati yashashi va rivojlanishi uchun moddiy ne'matlarni tinimsiz iste'mol qilishi lozim. Iste'mol qilish uchun esa u maxsulotlarni ishlab chiqarishi kerak. Bir marta ishlab chiqarib umrbod iste'mol qilish mumkin emas. Tinimsiz iste'mol qilish uchun ishlab chiqarishni ham tinimsiz takrorlab turish kerak. Ishlab chiqarish protsessini tinimsiz takrorlanib turishi takror ishlab chiqarishni tashkil qiladi.

Takror ishlab chiqarish mikro takror va maqro takror ishlab chiqarish doirasida sodir bo'ladi.

Maqro takror ishlab chiqarish yoki individual takror ishlab chiqarish ma'lum bir korxona (firma) doirasida ishlab chiqarishning mustaqil takrorlanib turishini anglatadi.

Maqro takror ishlab chiqarish yoki jamiyat miqyosida takror ishlab chiqarish ijtimoiy takror ishlab chiqarishni anglatadi.

Takror ishlab chiqarish o'z ichiga moddiy ne'matlarni, ishchi kuchini va ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarishni qamrab oladi. Bu uchallasini takror ishlab chiqarish dialektik birlikni tashkil qilib birini takrorlash ikkinchisi va uchinchisini takrorlanishini ham talab qiladi.

Takror ishlab chiqarish protsessi o'z ichiga to'rt bosqichni ya'ni ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash va iste'molni birlashtiradi. Bunda ishlab chiqarish boshlang'ich zveno bo'lsa, iste'mol yakunlovchi hisoblanadi va ishlab chiqarishni qayta boshlash uchun zamin hozirlaydi. Taqsimot bilan ayriboshlash ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasida bog'lovchi zveno bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki taqsimot bilan ayriboshlash oddiy bog'lovchi bo'lmasdan ishlab chiqarishga ham iste'molga ham aktiv ko'rsatadi.

Takror ishlab chiqarish ikki turga bo'linadi:

— Oddiy takror ishlab chiqarish.


— Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish.

Ishlab chiqarishning hajmi o'zgarmagan xolda bir xil hajmda takrorlanadigan takror ishlab chiqarish oddiy takror ishlab chiqarishni tashkil qiladi. Oddiy takror ishlab chiqarishning xarakterli xususiyati shundan iboratki, unda yaratilgan qo'shimcha mahsulotni hammasi shaxsiy iste'mol uchun sarf qilinadi. Oddiy takror ishlab chiqarish kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni asosini tashkil qiladi. Chunki ishlab chiqarishni kengaytirishdan oldin uni oldingi hajmini tiklash lozim bo'ladi.

Ishlab chiqarish xajmini yildan yilga kengayib takrorlanishi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tashkil qiladi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni xarakterli xususiyati shundan iboratki unda yaratilgan qo'shimcha qiymat ikki qismga bo'linadi. Uning bir qismi iste'mol uchun qilinsa ikkinchi qismi jamgarish uchun sarf qilinadi yoki ishlab chiqarishni kengaytirish uchun ishlataladi.


### 1-shakl.

#### **Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi**



#### **12.2. Maqroiqtisodiy ko`rsatkichlarning roli**

### 2-shakl



### 3-shakl.

#### MAQROIQTISODIY KO'RSATKICHLARNING RO'LI

Butun iqtisodiyotning holatini, uning o'sishi yoki orqaga ketishi tahlil qilinib, xulosa chiqarish


Davlat o'z iqtisodiy siyosatini belgilaydi

Ma'lum vaqt oralig'idagi ishlab chiqarish hajmini hisoblash va milliy iqtisodiyotning faoliyat yuritishiga bevosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash

YaMMni uning harakatining barcha bosqichlarida, ya'nii ishlab chiqarish, taqsimlash, gayta taqsimlash va natijada foydalanish bosqichlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirishga imkon beradi

Mavjud resurslar va ulardan foydalanishning mos kelishi (tengligi) kuzatilganda, mamlakatdagi umumiyl iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi

### 4-shakl.



## 5-shakl.

### ASOSIY MAQROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR

yalpi milliy mahsulot (YaMM)

yalpi ichki mahsulot (YaIM)

sof milliy mahsulot (SMM)

milliy daromad (MD)

ishchi kuchi bandligi

ishsizlik

inflyatsiya

### 12.3. Milliy iqtisodiyot va uning ko'rsatkichlari

Milliy iqtisodiyot — bu ma'lum bir davlat aholisining moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, milliy xo'jalik majmuasidir. Milliy iqtisodiyotning yer yuzida bir necha yuz xil turi mavjud bo'lib, ularning ichida yapon, nemis, shved, turk, xitoy kabi modellari butun dunyoga mashxur. Odatda, har bir mustaqil davlatning iqtisodiyoti milliy iqtisodiyot deyiladi. Hozirgi vaqtida dunyoda 215 dan ortiq mustaqil davlatlar bo'lsa, shuncha milliy iqtisodiyot mavjud. Shu davlatlar qatorida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan, «O'zbek modeli» deb nom olgan model asosida milliy iqtisodiyotni rivojlantirib bormoqda.

Milliy iqtisodiyot muayan mamlakatdagi firmalar, xonadonlar va davlat ishtirokida yuz beradigan iqtisodiy faoliyatni o'zida mujassamlashtiradi. Milliy iqtisodiyot mamlakat mustakilligining asosiy tayanchi hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot deyilishi uning boshqalar uchun yopiqligini bildirmaydi, aksincha, u ochiq bo'ladi, tashqi dunyo bilan o'zaro manfaatli aloqaga tayanadi. Biroq milliy iqtisodiyot, asosan o'zining resurslariga tayanadi, milliy an'analar, odatlar va ko'nikmalarni o'zida mujassamlashtiradi.


O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini tavsiflaydigan bo'lsak, u boy xoashyo bazasiga ega bo'lib, ularni qayta ishslash va tayyor sanoat

maxsulotlari darajasida o’z aholimizning ehtiyojlarini to’la qondirishga va import maxsulotlarga o’rinbosar bo’lgan tovarlar ishlab chiqara olish qudratiga ega bo’lgan milliy iqtisodiyotlar qatoriga kirib bormoqda. O’zbekiston milliy iqtisodiyoti xozirgi vaqtida o’z iqtisodiy mustaqilligini ta’minalash orqali mamlakatimiz aholisi ehtiyojlarini to’la darajada qondirishi uchun barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiryapti.

Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi uning tarkibidagi tarmoqlar xilma-xilligini anglatib, u mamlakatning texnologik taraqqiyot darajasiga, iqlimi va xududidagi tabiiy boyliklar turiga bog’liq bo’ladi. Texnologik taraqqiyot milliy iqtisodiyot tarmoqlarini ko’paytirib, xalqaro mehnat taqsimotiga bog’lanishida, uning to’laqonli a’zosiga aylanishiga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Odatda texnologik taraqqiyotga erishgan mamlakatlarda milliy iqtisodiyot tarkibi xilma-xil bo’ladi va u sanoat ishlab chiqarishning ko’plab sohalarini qamrab oladi. Mamlakat iqlimining milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga ta’siri shunda namoyon bo’ladiki, aynan iqlim sharoiti ayrim turdagи mehnat va ishlab chiqarish faoliyati uchun eng qulay imkoniyatlarni yaratib beradi.

Masalan, Xindiston va Shri Lanka o’z choyi, Xindi-Xitoy yarimoroli davlatlari— guruch etishtirish, Braziliya qahvasi, Turkiya turizm, O’zbekiston esa o’zining paxtasi, poliz ekinlari, mevalari bilan olamga mashxur. Tabiiy boyliklar milliy iqtisodiyot tarkibining biron – bir ishlab chiqarish usuliga ixtisoslashuvida katta axamiyatga ega. Agarda tabiiy boylik mamlakat xududida juda katta miqdorda bo’lsa, u mamlakatning asosiy ishlab chiqarish tarmoqlariga va milliy daromadiga ta’sir ko’rsatadi. Masalan, Fors ko’rfazidagi arab mamlakatlari neft zaxirasi ushbu mintaqa iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri va milliy daromad manbai hisoblanadi.

#### 12.4. YaMMning mazmuni va tarkibiy qisimlari



Demak, YaMM milliy iqtisodiyotda yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard mahsulot (xizmatlar) ning bozor baholaridagi summasi. Biz bilamizki, joriy yilda ishlab chiqilgan barcha mahsulotlar sotilmasligi mumkin, ularning bir qismi zahiralarni to'ldiradi. Ya'ni YaMM hajmini hisoblab topishda zahiralarning har qanday o'sish hisobga olinishi zarur, chunki YaMM yordamida joriy yildagi barcha mahsulotlar (sotilgan va sotilmagan) hisobga olinadi.

Milliy ishlab chiqarishning yalpi hajmini to'g'ri hisoblab chiqish uchun, mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar bir marta hisobga olinishi zarur. YaMM hajmini topishda sotilgan va qayta sotilgan mahsulotlarni ko'p marta hisobga olishlarini bartaraf qilish uchun, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yaratagan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi olinadi.

Qo'shilgan qiymat - bu korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan yetkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xom-ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

Boshqacha aytganda qo'shilgan qiymat – bu korxona yalpi mahsulotidan yoki ishlab chiqargan mahsulotining bozor narxidan (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) joriy moddiy xarajatlar chiqarib tashlangan miqdoriga teng.

YaMM yordamida milliy iqtisodiyotda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish yillik hajmini hisoblashga harakat qilinadi.

YaMM yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard tovarlar va xizmatlarning bozor bahosidagi summasi bo'lganligi uchun tovarning o'zi, uning nafliligi ko'paymagan holda baholar oshishi evaziga uning hajmi oshib ketishi mumkin. Baho ishlab chiqarish umumiyligi hajmining har xil elementlarini yagona umumiyligi asosga keltirishning eng keng tarqalgan ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. Shuning uchun yalpi milliy mahsulotga baho berishda nominal va real milliy mahsulot hisobga olinadi. Joriy bozor baholarida hisoblangan milliy mahsulot nominal milliy mahsulot, o'zgarmas baholarda hisoblangan milliy mahsulot esa real milliy mahsulot deb yuritiladi. Har xil yillarda ishlab chiqarilgan YaMM qiymatini faqat narx o'zgarmagan taqdirda o'zaro taqqoslash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari narx darjasini bizga iqtisodiyotda inflyatsiya (narx darjasining o'sishi) yoki deflyatsiya (narx darjasining kamayishi) o'rinni tutganligini va uning miqyosi qandayligini bilish imkonini beradi.

## **12.5. YAMMni hisoblash usullari**

Narx darajasi indeks shaklida ifodalanadi. Narx indeksi joriy yildagi ma'lum guruh tovarlar va xizmatlar to'plami narxlari summasini, xuddi shunday tovarlar va xizmatlarning miqdorining bazis davrdagi narxlari summasiga taqqoslash orqali hisoblanadi. Taqqoslashning boshlang'ich davri "bazis yil" deyiladi.

Amaliyotda qator har xil tovar va xizmatlar to'plami yoki iste'mol savatining narx indeksi hisoblanadi. G'arb mamlakatlari va xususan AQShda bu indekslar ichida eng keng qo'llaniladigani iste'molchilik tovarlari savati narxlari indeksi (IBI) hisoblanadi. Uning yordamida tipik shahar aholisi sotib oladigan, iste'molchilik tovar va xizmatlarning 300 turini o'z ichiga oluvchi bozor savatining qayd qilingan narxlari hisoblanadi. Ammo narxning umumiylar darajasini hisoblash uchun YaMM narx indeksidan foydalilanadi. YaMM narx indeksi ancha keng tushuncha bo'lib, u o'z ichiga nafaqat iste'molchilik tovarlari, balki investitsioi tovarlar, davlat tomonidan sotib olinadigan tovarlar hamda xalqaro bozorda sotilgan va sotib olingan tovarlar va xizmatlar narxlarini ham oladi. YaMM narx indeksi, nominal YaMM ni real YaMMga aylantirib hisoblash imkoniyatini beradi.

Nominal YaMM shu mahsulot ishlab chiqarilgan davrda amal qilib turgan baholarda ifodalangan ishlab chiqarish hajmini bildiradi.

Ma'lum yil uchun YaMM narx indeksini qanday qilib hisoblash mumkinligini ko'rsatuvchi oddiy shartli misol keltiramiz. Faraz qilamiz, 2015 yil Respublikamiz xalq xo'jaligidagi 1358 mlrd so'mlik YaIM ishlab chiqarilgan. 20014yil YaIM qiymati 976 mlrd so'mni tashkil qilgan.

1998 yilga YaMM narx indeksini aniqlash uchun, 20015yildagi mahsulotlar narxlari summasini xuddi shu hajmdagi va turdagisi tovarlarning 20014yil narxlari summasiga bo'lib, 100 ga ko'paytirish zarur.

Agar biz YaMM narx indeksini qator yillar uchun hisoblasak, olingan indekslar bizga ularni solishtirib tahlil qilish imkonini beradi.

Joriy yildagi nominal YaMMni real YaMMga aylantirishning ancha oddiy va to'g'ridan-to'g'ri usuli nominal YaMMni narx indeksiga bo'lishdir, ya'ni;

Real YaMM = nominal YaMM/BI

Iqtisodiyotda yillik ishlab chiqarish hajmining ko'rsatkichi YaMM bilan birga, uning tarkibiy qismlari sifatida hisoblanish mumkin bo'lган bir qator o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar mavjud bo'ladiki, ular milliy iqtisodiyotning turli tomonlarini xarakterlab beradi.

YaMM ko'rsatkichiga sof eksport (eksport va import o'rtasidagi farq) kiradi. Ammo turli mamlakatlarda tashqi savdo faoliyatining salmog'i keskin farqlanadi. Shu sababli milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini taqqoslash uchun ichki milliy mahsulot (IMM) ko'rsatkichidan foydalaniladi.

IMM ma'lum vaqt davomida (bir yilda) mamlakat hududida ishlab chiqarilgan va iste'mol qilishga tayyor mahsulot va xizmatlarning bozor baholaridagi qiymatidir. U barcha ishlab chiqaruvchilar qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida chiqadi.

YaMM va IMM ishlab chiqarish yalpi hajmining ko'rsatkichi sifatida bitta muhim kamchilikka ega. Ular mazkur yilda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan, asosiy kapitalning o'rmini qoplash uchun zarur bo'lган qiymatni ham o'z ichiga oladi.

YaMMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati yoki yillik amortizatsiya summasi ayirib tashlansa sof milliy mahsulot (SMM) ko'rsatkichi hosil bo'ladi.

YaMM – amortizatsiya yillik summasi = SMM

Shunday qilib, SMM amortizatsiya ajratmasi summasiga kamaytirilgan YaMM sifatida chiqadi.

SMM qiymatiga davlat tomonidan o'rnatiladigan egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar korxona tomonidan o'rnatiladigan bahoga qo'shimcha hisoblanadi. Bunday soliqlar og'irligi iste'molchi zimmasiga tushadi va uning hisobiga o'zlarining daromadining bir qismini yo'qotadi. Shuning uchun hozirgi davrda hisob tizimida SMMdan egri soliqlar chikarib tashlansa milliy daromad (MD) ko'rsatkichi hosil bo'ladi deb ko'rsatiladi.


SMM – biznesga egri soliq = milliy daromad.

Amaliyotda ishlab chiqarilgan va foydalanilgan MD farqlanadi. Ishlab chiqarilgan MD - bu yangidan yaratilgan tovar va xizmatlar qiymatining butun hajmi. Foydalanilgan MD – bu ishlab chiqarilgan MDdan yo'qotishlar (tabiiy ofatlar, saqlashdagi yo'qotishlar va h. k.) va tashqi savdo qoldig'i chiqarib tashlangan miqdorga teng.

Bizning amaliyotda MD iste'mol va jamg'arish fondiga ajratiladi. Iste'mol fondi – bu milliy daromadning jamiyat a'zolarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini hamda butun jamiyat ehtiyojlarini (ta'lim, mudofaa va

h. k.) qondirishni ta'minlashga ketadigan qismi. Jamg'arish fondi – bu milliy daromadning ishlab chiqarishni rivojlantirishni ta'minlaydigan qismi.

Milliy daromadni, daromadlar barcha turlarini (amortizatsiya ajratmasi va biznesga egri soliqlardan tashqari) qo'shib chiqish yo'li bilan ham aniqlash mumkin.



YAMMga noishlab chiqarish bitimlari bo'yicha tushumlar qo'shilmaydi. Noishlab chiqarish bitimlariga sof moliyaviy bitimlar va ishlatilgan tovarlarni sotish kiradi.

Moliyaviy bitimlar o'z navbatida uchta asosiy turga bo'linadi: davlat byudjetidan transfert to'lovlari, xususiy transfert to'lovlari va qiymatli qog'ozlarni sotish.

Davlat byudjetidan transfert to'lovlariga ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar, ishsizlarga va nafaqaxo'rllarga, nogironlarga va kam daromadli oilalarga beriladigan nafaqlar, talabalarga stendiyalar kiradi. Davlat transfert to'lovlarining asosiy xususiyati shundaki, nafaqaxo'rllar nafaqa evaziga davlatga hech narsa bermaydi.

Xususiy transfert to'lovlariga masalan, talabalarga ota-onasi beradigan pul va boy qarindosh urug'lari beradigan bir martalik to'lovlar kiradi.

Sotilgan qiymatli qog'ozlar (aktsiya va obligatsiyalar) va ishlatalgan tovarlarni sotish ham YAMM tarkibiga kiritilmaydi, chunki, bunday tovarlarni sotish joriy ishlab chiqirashni bildirmaydi.

## Makroiqtisodiy holatni aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlar

**YAMM**

(yalpi milliy maxsulot)

**YAIM**

(yalpi ichki maxsulot)

**MD**

(Milliy daromad)

## YAMMni hisoblashning asosiy shartlari

Bilamizki, hisobot yilida ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar ham sotilmaydi, ularning ayrimlari zahirani to'ldiradi. Zahiralarni to'ldirishga ketgan har qanday mahsulot YAMMni hisoblashda hisobga olinishi lozim. Chunki, YAMM miqdori orqali sotilgan yoki sotilmaganidan qati nazar mahsulot joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulot hisoblanadi.

Birinchidan, YAMM yillik ishlab chiqarishning bozor qiymati orqali o'lchanadi va pulli ko'rsatkich hisoblanadi.

Turli yillarda ishlab chiqarilgan har xil mahsulotlar miqdorini solishtirish uchun ularning nisbiy qiymatini bilishimiz lozim



### Tayanch tushunchalar

**Milliy iqtisodiyot** – barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro va maqrodarajadagi iqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir.

**Makroiqtisodiyot** – moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini yaxlit bir butun qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.

**Milliy mahsulot** – mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmidir.

**Milliy hisoblar tizimi** – milliy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda ulardan foydalanishni tavsiflaydigan o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi.

**Yalpi milliy mahsulot (YaMM)** – milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi summasi.

**Yalpi ichki mahsulot (YaIM)** – yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymati.

**Sof milliy mahsulot (SMM)** – yil davomida jonli mehnatning unumli harakati bilan yaratilgan yangi mahsulotdir.

**Milliy daromad** – yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning puldag'i ifodasi bo'lib, hozirgi hisoblar tizimida SMMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

### Takrorlash uchun savollari

1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi nimani ifodalaydi? Uning qanday tarkibiy qismlari mavjud?
2. Milliy hisoblar tizimining mohiyati nimada? U o'z ichiga qanday ko'rsatkichlarni oladi.


3. Maqpoiqtisodiy ko'rsatkichlap nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi?

4. Milliy mahsulot harakat shakllari tavsifini bering.

5. YaIM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat.

## 2. Baliq skeleti

**muammo myammo muammo muammo**



**hal qilish hal qilish hal qilish hal qilish**

### 2. Insert usuli”

**Insert** - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

### Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

### Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Milliy iqtisodiyot				
Milliy mahsulot				
Yalpi milliy mahsulot (YaMM)				
Yalpi ichki mahsulot (YaIM)				
Sof milliy mahsulot (SMM)				
Milliy daromad				

### Mavzu bo'yicha test savollari

1.Bir yil davomida pirovard natijada yaratilgan va bozor narxida hisoblangan barcha maxsulot va xizmatlarga nima deyiladi?

A) yalpi ijtimoiy maxsulot

V) yalpi milliy maxsulot

S) sof milliy maxsulot

D) muayyan davrdagi amortizatsiya ajratmasi

E) milliy daromad

2.Yalpi daromad nima?

A) maxsulotni sotishdan kelib tushgan daromad

V) maxsulotni sotishdan kelib tushgan bilan xarajatlarning ayrimlaridan kolgan mikdor

S) qo'shimcha maxsulotni sotishdan kelib tushgan tushum

D) maxsulotni sotishdan kelib tushgan mablag' soliqlar summasini olib tashlagandan keyin qolgan qiymat

E) maxsulot realizatsiyasidan keladigan tushum

3.Ishlab chiqarilgan maxsulot qanday qismlarga bo'linadi?

A) asosiy, qo'shimcha

V) qo'shimcha, zaruriy

S) bevosita va bilvosita

D) o'zgaruvchan, o'zgarmaydigan

E) tovar, natural pul

4.Korxonaning sof daromadi nima?

A) maxsulotlarni sotish va xizmatlar ko'rsatishdan kelib tushgan pul tushumi bilan korxona

V) xarajatlari o'rtasidagi farq

S) korxona ixtiyorida qolgan foyda

D) maxsulotlarni sotishdan olingan tushum bilan materiallarga ketgan xarajat o'rtasidagi farq

E) soliq va qo'shilgan qiymatga to'langan soliqlardan qolgan foyda

5. Milliy daromad deganda nimani tushunasiz?

A) jamiyatning tayyorlangan sof maxsulotning puldagi shakli

V) jamiyatning ishlab chiqarish foydasi

S) milliy boylikning assosi

D) aholining turmush darajasi

E) mamlakatda maxsulot ishlab chiqarish darajasi

## 13-mavzu.Iste'mol, jamg'arish va investitsiyalar.

Reja:

1. Iste'mol va jamgarmaning iqtisodiy mazmuni
2. Iste'mol va jamgarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularni belgilovchi omillar.
3. Investitsiyaning iqtisodiy mazmuni.
4. O'zbekistonda investitsiya faolligini ta'minlash


### 13.1. Iste'mol va jamgarmaning iqtisodiy mazmuni

Milliy iqtisodiyotda YaIM sarflanganda, asosan, ikki qismga ajratiladi. Birinchidan, mamlakat aholisining iste'molini qondirishga ajratiladi va u iste'mol fondi deyiladi. Ikkinchidan, shu milliy iqtisodiyotni kelajakda rivojlantirish uchun sarflanishga muljallangan qismiga, u jamg'arish fondi deyiladi.

**Iste'mol (S)** – bu biror-bir davr davomida xarid va iste'mol qilingan umumiy tovarlar miqdori.  
**Jamg'arma (S)** – bu daromadning iste'mol qilinmaydigan qismi.

**Investitsiyalar (I)** – iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mamlakatda va xorijda davlat hamda xususiy sektor tomonidan foyda olish maqsadida kapital va qimmatli qog'ozlarning uzoq muddatli qo'yilmasi.

### 1-shakl



Milliy daromadning jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga sarflanuvchi qismi iste'mol fondi deb ataladi.

Iste'mol fondi butun aholining shaxsiy iste'molini, aholiga ijtimoiy xizmat qiladigan muassasalardagi, shuningdek, ilmiy muassasalar va boshqarishdagi barcha sarflarni o'z ichiga oladi.

Iste'mol fondining shaxsiy daromad shaklida aholi qo'liga kelib tushadigan qismi iste'mol sarflari maqsadida ishlatiladi. **Iste'mol sarflari** – bu aholi joriy daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi. Aholi o'z daromadini sarflar ekan, bugungi (joriy) iste'mol hamda kelgusidagi iste'mol xajmini oshirish o'rtasida tanlovnini amalga oshiradi.

Kelgusida iste'mol hajmini oshirish imkoniyati joriy davrdagi jamg'armaga ham bog'liq bo'ladi. **Jamg'arma — bu aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishi.** Uning hajmi barcha xo'jaliklar daromadidan iste'mol sarflarini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Daromad tarkibida iste'mol sarflari ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, jamg'arma hajmi shunchalik kam bo'ladi. Jamg'armaning o'sishi esa iqtisodiy ma'noda mablaglarning iste'mol buyumlari xarid qilishdan investitsion tovarlar xarid qilishga yo'naltirilishini bildiradi.

Shunga ko'ra, jamg'arma — bu muddat jihatidan kechiktirilgan iste'molni anglatadi. Shu bilan birga joriy davrda amalga oshirilgan jamg'arma joriy iste'molning chegirilgan qismidir, chunki jamg'arma aholi va korxonalar ixtiyordagi daromadning iste'molga sarflanmagan qismi hisoblanadi:

$$Y = C + S,$$

*bu erda: Y - barcha xo'jaliklar ixtiyoridagi daromad; C - iste'mol miqdori; S - jamgarma miqdori.*

Shu sababli, daromad tarkibidagi iste'mol sarflari va jamgarma nisbatining o'zgarishi bir qator, ba'zan qarama-qarshi oqibatlarga olib kelishi mumkin.

*Birinchidan*, daromadlarning qandaydir qismini jamg'armaga qo'yish oqibatida u tovarlarga bo'lgan talabda o'z aksini topmaydi. Maxsulotning har qanday hajmini ishlab chiqarishdan olingan daromad to'liq sarflangandagina jami talabni ta'minlash uchun yetarli bo'ladi. Demak, jamgarma «daromadlar-xarajatlar» oqimida nomutanosiblik paydo bo'lishiga olib keladi.

Jamg'arma, yuqorida ta'kidlanganidek, daromadlarning ma'lum bir qismi iste'mol qlishdan chegirib q'yishni bildirib, natijada iste'mol sarflari hajmi barcha ishlab chiqarilgan maxsulot va xizmatlarni sotib olish uchun yetarli bo'lmay qoladi. Aholi daromadining jamg'arilgan qismi o'zining xususiy talabini vujudga keltirmaydi. Buning natijasida sotilmay qolgan tovarlarning ko'payishi, ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlik va daromadlarning pasayishi ro'y berishi mumkin.

*Ikkinchidan*, jamg'arma talabning etishmasligiga olib kelmasligi ham mumkin, chunki jamg'arilgan mablaglar tadbirkorlar tomonidan investitsion maqsadlarda ishlatiladi. Bu jamg'arma keltirib chiqaradigan iste'mol sarflaridagi har qanday yetishmaslikni to'ldiradi.

*Uchinchidan*, korxonalar ham o'zining barcha maxsulotini pirovard iste'molchilarga sotishni ko'zda tutmaydi, balki uning bir qismidan o'z ishlab chiqarishida foydalanishi mumkin. Shunday qilib, agar tadbirkorlar aholining jamg'armalariga teng miqdordagi mablag'larni investitsiyalarga qo'yishni ko'zda tutsa, ishlab chiqarish darajasi doimiy bo'lib qoladi.

### **13.2. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularni belgilovchi omillar.**

Jamg'arish fondi uchun ajratmalar YaIMning bir qismini tashkil etib, u odatda mamlakat iqtisodiy qudratiga bogliq bo'ladi. Mamlakatda YaIM qanchalik ko'p yaratilsa, iste'mol uchun ham, jamg'arma uchun ham ko'proq ajratiladi. Jamg'arishni aholi, korxona va firmalar, umuman, xo'jalik yurituvchilar amalga oshiradilar. Aholi jamg'armalarining ma'lum bir qismiga ko'chmas mulk va boshqa uzoq muddat foydalanilgan buyumlar sotib oladilar yoki naqd pul sifatida qo'lida saqlaydilar. Bir qismi esa banklar va moliya bozori orqali investitsiya qilinishi mumkin. Korxonalar, firmalar jamg'armalari o'zlarining asosiy va aylanma kapitalini ko'paytirishga sarflanadi. Bu ishlab chiqarishni kengaytirishga investitsiyalash deyiladi. Davlat jamg'arish fondi, odatda, uning iste'molidan ortib qolgan mablag' hisobidan tashkil topadi va xukumatning turli rezervlari deyiladi.

## **Iste'mol va jamg'arma hajmiga daromaddan tashqari yana bir qator obektiv va subektiv omillar ta'sir ko'rsatadi.**

### **2-shakl**

Ob'ektiv omillar alohida iste'molchining ixtiyoriga, idrokiga bogliq bo'limgan omillardan iborat bo'lib, ulardan asosivlari sifatida quvidagilarni ko'rsatish mumkin


- barcha xo'jaliklar tomonidan jamg'arilgan mol-mulk darajasi;
- narxlar darajasi;
- real foiz stavkalari;
- iste'molchining qarzdorlik darajasi;
- iste'molchilarni soliqqa tortish darajasi.

### **3-shakl**

Sub'ektiv omillar, asosan iste'molchining o'ziga, uning ruxiyati va bozordagi xatti-xarakatiga bogliq bo'ladi. Bu omillar qatoriga iste'mol va jamg'arishga bo'lgan moyillik, kelgusidagi narx, pul daromadlari, soliq, tovarlar mavjudligi darajasining o'zgarishiga nisbatan munosabatni kiritish mumkin.


### **4-shakl.**

#### **Iste'mol vazifasining grafikdagi tasviri**



**5-shakl.**

### **Jamg'arma vazifasining grafikdagi tasviri**



### **13.3. Investitsiyaning iqtisodiy mazmuni.**

Biz O'zbekistonda investitsiya siyosatini olib borishda ba'zi davlatlarga o'hshab oson yo'lini qidirmadik. Ya'ni, chetdan qarz olishda etti o'lchab, bir kesdik, ichki bozorni turli-tuman mollar bilan to'ldirishga zo'r berib, olingen kreditlarni, valuta mablaglarini ayrim davlatlarga o'xshab qisqa muddatda yeb bitirganimiz yo'q. Biz, aksincha, eng og'ir, eng qiyin, lekin kelajagi bor yo'lni tanladik. Investitsiyalarni, avvalambor, iqtisodiyotimizni tubdan o'zgartirishga, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi zamонавиy сanoat korxonalarini barpo etishga yo'naltirdik. Va bugun Anna shunday uzoqni ko'zlagan ishlarimiz qanday yuksak samara berayotganini hammamiz ko'rib turibmiz.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrdagi «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi qonunida investitsiyalarning mazmuni «Iqtisodiy va boshqa faoliyat obektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar» sifatida ta'riflanadi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni taxlil qilsh orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, «investitsiyalar» tushunchasi va uning iqtisodiy mazmunini iqtisodchilar tomonidan keng o'rganilgan va xar xil yondashilgan.

Ko'pgina professorlarning fikiricha, investitsiya — bu iqtisodiyotning moddiy va nomoddiy sohalariga, ularni tiklash, kelajakda kengaytirish, o'zgartirib yohud rivojlantirish uchun moddiy yoki moliyaviy resurslar sarflashdan iboratdir. Shundan kelib chiqib, ishlab chiqarish investitsiyasi deganda ishlab chiqarishni kengaytirish yohud rivojlantirish uchun sarflangan moddiy va moliyaviy mablag'larga aytildi. Investitsiya kapitalining jamg'arilishini bildiradi va bu YaIMning muayayan qismini qaytadan ishlab chiqarishga joylashtirilishini anglatadi. Investitsiyaning

YaIMdagi hissasi investitsiya me'yori deb ataladi. Investitsiyaning YaIMdagi hissasi investitsiya me'yori deb ataladi.

### **13.4. O'zbekistonda investitsiya faolligini ta'minlash**

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarini jalg qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

2015-yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014-yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridir.

Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015-yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish obyekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi.

Masalan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida 370 megavatt quvvatga ega bo'lgan bug'-gaz qurilmasi barpo etildi, Chorvoq GESi gidrogeneratorlari modernizatsiya qilindi, Qo'ng'irot soda zavodida kalsiyolashtirilgan soda ishlab chiqarish kengaytirildi, «Samarqandkimyo» aksiyadorlik jamiyatida 240 ming tonna quvvatga ega bo'lgan murakkab tarkibli yangi o'g'itlar ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi. Shuningdek, «Motor zavodi» aksiyadorlik jamiyatining faoliyat ko'rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlarida traktor tirkamalari, jumladan, katta hajmli tirkamalar, maishiy texnika uchun tarkibiy qismlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish tashkil etildi.

Ana shunday muhim obyektlar haqida gapirganda, janubiy koreyalik investor va mutaxassislar bilan hamkorlikda Surg'il koni negizida barpo etilgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasini alohida ta'kidlamoqchiman. Umumiy qiymati 4 milliard dollardan oshadigan ushbu majmua dunyodagi eng zamonaviy, yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan, yirik korxonalardan biri bo'ldi. Majmuaning ishga tushirilishi yiliga 83 ming tonna noyob polipropilen mahsulotini ishlab chiqarish imkonini beradi. Holbuki, bu mahsulot ilgari mamlakatimizga chetdan, katta valyuta hisobiga olib kelinar edi. Ayni vaqtida mazkur korxona polietilen ishlab chiqarish hajmini 3,1 barobar ko'paytirish, mingdan ziyod yuqori malakali mutaxassislarni ish bilan ta'minlash uchun imkoniyat yaratishi bilan ulkan ahamiyatga egadir.

Xorazm viloyatida «Jeneral motors – O‘zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida umumiy qiymati qariyb 6 million dollarlik loyiha asosida «Shevrole Labo» kichik yuk mashinasi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Bu yerda yiliga fermerlarimiz va xususiy tadbirkorlarimiz uchun juda zarur bo‘lgan 5 mingta ana shunday mashina ishlab chiqariladi. Shuni ta’kidlash joizki, ushbu model yangi «Xorazm avto» zavodida tayyorlanayotgan «Damas» va «Orlando» avtomobillaridan keyingi uchinchi turdagи avtomobil bo‘ldi.

## 6-shakl.

### Iste'mol, jamg'arish va investitsiya o'rta sidagi o'zaro bog'liqlik

D.Keynsning iste'mol nazariyasi:

1. iste'molga chegaraviy moyillik 0 dan katta va 1 dan kichik.
- 2.daromadlar o'sishi iste'mol va daromadlar munosabatini kichraytiradi
3. iste'molni belgilovchi asosiy omil daromad hisoblanadi.

Daromad

Kelishilgan  
daromad

$$\begin{aligned} APC+APS &= 1 \\ MPC+MPS &= 1 \\ MPC &= 1-MPS \\ MPS &= 1-MPC \end{aligned}$$

Jamg'arishga moyillik milliy daromadga ta'sir qiladi:  
aholining jamg'armasi qanchalik katta bo'lsa,  
shuncha multiplikator kichik bo'ladi, shu hajmdagi YaMMni investitsiyaga avlanishi

MPC

APC

Iste'mol

C

Jamg'arma

APS

MPS

S

Uy xo'jaliklari daromadlari

Iste'mol va jamg'arish omillari

Narx darajasi

Uy xo'jaliklarining to'plangan boyliklari

Iste'molchilar qarzdorligi

Inflyatsion qutilishlar

Soliq yuki darajasi

Makroiqtisodiy barqarorlik va bank tizimiga ishonch

Tarkib

Yalpi

Turlar

Sof

Investitsiyalar

O'sish (pasayish) omillari

Investitsion talab omillari

Uskunalar sotib olish xarajatlari,  
soliqlar, inflyatsiya va boshqalar.

- Foyda me'yoring kutilishi;  
- Bank foizi stavkasi

Multiplikator

Akselerator

## Tayanch tushunchalar

**Iste'mol** – jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalari va omillaridan foydalanish jarayoni.

**Shaxsiy iste'mol** – iste'molchilik tavsifidagi ne'matlar va xizmatlardan bevosita foydalanish, ya'ni ularning individual tarzda iste'mol qilinishi.

**Moddiy iste'mol** – ehtiyojlarni qondirishda moddiy ko'rinishdagi ne'matlarning tegishli naflı xususiyatlaridan foydalanish.

**Nomoddiy ne'mat va xizmatlar iste'moli** – ehtiyojlarni qondirishda nomoddiy ko'rinishdagi ne'mat va xizmatlarning tegishli naflı xususiyatlaridan foydalanish.

**Unumli iste'mol** – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish.

**Iste'mol fondi** – milliy daromadning jamiyat a'zolaring moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga sarflanuvchi qismi

**Iste'mol sarflari** – aholi daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi.

**Jamg'arish** – aholi, korxona (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadida to'plab borilishi.

**Iste'mol va jamg'arma vazifikasi** – iste'mol va jamg'arma hajmi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik.

**Iste'molga o'rtacha moyillik** – shaxsiy daromadning iste'molga ketadigan ulushi.

**Jamg'arishga o'rtacha moyillik** – shaxsiy daromadning jamg'arishga ketadigan ulushi.

**Iste'molga keyingi qo'shilgan moyillik** – daromad hajmining o'zgarishi natijasida iste'mol sarflari hajmining o'zgarishi darajasi.

**Jamg'arishga keyingi qo'shilgan moyillik** – daromad hajmining o'zgarishi natijasida jamg'arish hajmining o'zgarishi darajasi.

**Iqtisodiy jamg'arish** – milliy daromadning bir qismining asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyot va zahiralarni ko'paytirish uchun sarflanib borishi.


**Jamg'arish me'yori** – jamg'arish summasining milliy daromadga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Investitsiya** – ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirishga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalga pul shaklidagi qo'yilma.

### Takrorlash uchun savollar

1. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta'riflang.
2. Iste'mol va jamg'armaning miqdorini aniqlovchi asosiy omillarini sanab ko'rsating.
3. Iste'mol va jamg'arma vazifalarining grafikdagi tasvirini chizib, ularga shartli raqamlar qo'llagan holda tushuntiring.
4. Manfiy va musbat (ijobiy) jamg'arma nima va ularning grafikdagi joylashishi qanday bo'ladi?
5. Jamg'arish me'yori qanday aniqlanadi? Unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

### *Mavzuda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari* Venna diagrammasi



2. B.B.B. jadvali

№	Tushuncha	Bilaman “+”, Bilmayman “-”.	Bildim “+”, Bila olmadim “-”.
1	Iqtisodiy rivojlanish va milliy daromadning o'sishiga qanday erishish mumkinligini tushuntirib bering		
2	Milliy daromadning mazmun-mohiyatini tushuntirib bering		
3	Iste'molning mazmun-mohiyati nimada		
4	Iste'mol va jamgarma bir-birlari bilan qanday bog'liqlikligini tushuntirib bering		

## **Mavzu bo'yicha test savollari**

### **1.Kapital jamg'arish nima?**

- a) kapitalning uzluksiz jarayoni
- b) qo'shimcha qiymatning bir qismini kapitalga aylanishi
- c) doimiy kapitalning yig'ilib borishi
- d) boylik yig'ish
- e) kuproq mulkka egalik qilish

### **2.Investitsiya qanday qismlardan iborat?**

- a) asosiy va aylanma fondi
- b) jamg'arma fondi
- c) ish haqi va rag'batlantirish fondi
- d) ishlab chiqarish va muomila
- e) hamma to'g'ri

### **3.Resurslarni ishlab chiqarishga yo'naltirish nima deyiladi?**

- a) iqtisodiy o'sishni investitsiyalash
- b) pul mablag'i bilan ta'minlash
- c) yangi texnika etkazib berish
- d) yangi texnologiya bilan ta'minlash
- e) moddiy texnika etkazib berish

### **4.Asosiy kapital deganda nimani tushinasiz?**

- a) kapitalning ishlab chiqaruvchi vositalarga aylanadigan va bir ishlab chiqarish jarayonida o'z qiymatini tovarlarga to'la o'tkazmaydigan qismi
- b) ishlab chiqarishda o'zgarmaydigan kapital bo'lib o'z qiymatini yangi ishlab chiqarishga o'tkazadigan qismi
- c) pul oborotida qatnashmaydigan kapital
- d) bunga faqat tabiiy resuslar kiradi
- e) to'g'ri javob yo'q

### **5.Asosiy fondlarning qanday eskirishi bor?**

- a) ma'naviy
- b) jismoniy
- c) uzluksiz
- d) bevosita
- e) 1 va 2 to'g'ri

## **14-mavzu. Ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik**

### **Reja:**

1. Ishchi kuchi va uni takror xosil qilish xususiyatlari
2. Ishchi kuchiga talab va taklif. Iszsizlikni mazmuni, kelib chiqish sabablari
3. Iszsizlik turlari va ularni farqlari.
4. Ouken qonuni va fillips egri chizigi
5. O'zbekistonda iszsizlarni ijtimoiy himoyalash

### **14.1. Ishchi kuchi va uni takror xosil qilish xususiyatlari**

Ish kuchi bu insonning jismoniy va aqliy qobiliyati bo'lib, mazkur qobiliyatni amalda ishlatalishi mehnat yoki ish deb ataladi.

Ish kuchi shundayki, uni insondan ajratib bo'lmaydi. U moddiy shaklga ham ega emas, ya'ni insonning o'zidagi qobiliyat. Shu sababli uni ishlab chiqarishning inson omili deb ham ataladi. Ishchi kuchi bozorda mehnat omilini taklif etuvchi sifatida namoyon bo'ladi.

Ish kuchining miqdoriy va sifat o'lchami mavjud. Ish kuchining miqdori bu — ishlay oladigan, ya'ni mehatga layoqatli kishilaridir. Ularni odatda mehnat resurslari deb yuritiladi.

U o'z ichiga quyidagilarni oladi: Mehnatga layoqatli yoshdag, respublikamizda:

- 16 yoshdan 55 yoshgacha ayollar,
- 16 yoshdan 60 yoshgacha erkaklar,
- mehnatga layoqatli yoshdan (55-60 yosh) katta yoshdag ishelfchilar (pensiyadagi ishlovchilar),

Iqtisodiy faol aholi tarkibiga milliy xo'jalikda band bo'lgan barcha kishilar bilan bir qatorda ish qidirayotgan mehnatga layoqatli aholii ham kiradi.

Ishchi kuchining takror ishlab chiqarilishi jarayoni, odatda, uch asosiy, bir – biri bilan chambarchas bogliq va bir-birini taqozo etuvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi. U iqtisodiy adabiyotlarda ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning uch fazasi deb yuritiladi.

Birinchidan, ishchi kuchi moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarilishi jarayonida qatnashib, mehnat qilish vaqtida o'zining jismoniy va aqliy qobiliyatlarini sarflab, qisman yo'qotib boradi va uning uzluksiz qayta tiklanishi hamda takomillashib borishini ta'minlab turish uchun o'zi yaratgan ne'matlarni iste'mol qilib, o'z kuchini takroran xosil qilib boradi. Shu bilan bir qatorda mehnat qilish jarayonida uning kasbiy mehnat malakasi ham ortib boradi.

Ikkinchidan, u o’z oilasida yangi ishchi avlodini yetishtirishi, tarbiyalab tayyorlashi, ya’ni ularni sog’lom o’stirishi, bilim berish, kasbga o’rgatish, mehnat malakasini muttasil oshirib, yangilab borishini ta’minlashidan iborat bo’ladi.

Uchinchidan, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish jarayoni mamlakatdagi mehnat resurslarini taqsimlash, qayta taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidan iborat bo’lib, bunda mavjud ishchi kuchlarini ishlab chiqarishning turli sohalari, tarmoqlari, korxonalar, xududlardagi ish joylariga joylashtirilishi orqali ularning xodimlarga bo’lgan ehtiyojlari qondirilishi tushuniladi. Bu bilan ishchi kuchlarining ish bilan to’la va samarali band bo’lishi ta’minlanadi.

#### **14.2. Ishchi kuchiga talab va taklif. Ishsizlikni mazmuni, kelib chiqish sabablari.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, xudi tovar va xizmatlar bozorida bo’lgani kabi, mehnat bozorida ham ishchi kuchiga talab bilan taklif o’rtasida mutanosiblik bo’lmasa, ishsizlik kelib chiqadi. Ishsizlik deganda aholining mehnatga layoqatli bo’lgan, ishslashni xoxlasa ham ish topa olmagan qismi tushuniladi. Odatda, barcha mamlakatlarda mehnat yoshidagi, ya’ni 16-59 yoshdagi erkaklar va 16-55 yoshdagi ayollar ma’lum bir qismining ishslashga bo’lgan talabi qondirilmaydi va ular o’z mamlakatlarida ishga joylasha olmaydilar, natijada ishsiz qoladilar. Aholining mehnatga layoqatli bo’lmagan yoshlar, keksalar, nogironlar ishsiz deyilmaydi. Shuningdek, mehnatga layoqatli bo’la turib o’z xoxishi bilan ishlamayotgan kishilar ham ishsizlar qatoriga qo’shilmaydi. Deyarli barcha mamlakatlarda mehnat qonunchiligidagi ishsiz deb, mehnatga layoqatli bo’lib ish topa olmay, mehnat birjalarida ro’yxatda turgan kishilarga aytildi.

Ishsizlikning asosiy sababi, bozorda ishchi kuchiga talabning o’zgarib turishi hisoblanadi. Talabning o’zgarishi esa xozirgi vaqtda fan va texnika hamda texnologiyalarning taraqqiyoti bilan bogliq. Ishlab chiqarishda ulardan foydalanish, mehnat unumdorligini hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, ko’proq va sifatli maxsulot ishlab chiqarishni ta’minlamoqda. Bu esa, o’z navbatida, ishchi kuchiga bo’lgan talabni qisqartiryapti.

Ishsizlikning sabablardan yana biri ishchi kuchiga talabning mavsumiy o’zgarishi bo’lib, bu xolat ko’proq qishloq xo’jaligida, ayniqsa, qurg’oqchilik fasllarida sodir bo’ladi.

Bozor tizimida normal darajadagi ishsizlik iqtisodiyot uchun tabiiy xol hisoblanadi. Chunki iqtisodiyot xolati tez-tez o’zgarib turadi.

iqtisodiyot rivojlanganda ishchi kuchiga talab ortadi va bu talab ishsizlar hisobidan qondiriladi. Iqtisodiyotda rivojlanish pasayganda ishsizlar soni ko'payadi.

Ishsizlik – faol, mehnatga yaroqli aholining ma'lum qismi bajarishga ish topolmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat.

▶ **Ishsizlik darajasi (ID)** umumiylar ishsizlar (I) sonini ishchi kuchi (IK) soniga foizlardagi nisbati sifatida hisoblab chiqiladigan me'yor bilan tavsiflanadi.

$$ID = I / IK * 100\%$$

### 14.3. Ishsizlik turlari va ularni farqlari.

**1- shakl**

#### Ishsizlikning asosiy turlari quyidagilar:

**Friktsion ishsizlik** — bunday shakldagi ishsizlik ish qidirish yoki ish kutish bilan bog'liqlik ya'ni ish qidiruvchi yaqin muddatda ish topishi mumkin. Bu ishsizlikka quyidagilarni kiritish mumkin;

- o'z xoxishi bilan ish joyini o'zgartiruvchilar;
- ishdan bo'shatilganligi tufayli yangi ish joyi qidiruvchilar;
- vaqtinchalik, mavsumiy ishini yo'qotgan (xavo sovuq bo'lganligi tufayli ishni to'xtatish, avtomobil sanoatida yangi model ishlab chiqarishga o'tish).

**Tarkibiy ishsizlik** — ma'lum vaqt o'tishi bilan iste'mol talabi va tarkibida, texnologiyada muhim o'zgarishlar yuz beradi. U o'z navbatida ishchi kuchiga bo'lgan umumiylar tarkibini o'zgartiradi. Shuning uchun ayrim kasb egalariga bo'lgan talab kamayadi yoki butunlay yuqoladi, boshqa yangi kasblarga bo'lgan talab oshadi.

**Mavsumiy ishsizlik** — ishsizlikning bu turi ko'proq qishloq xo'jaligi, qurilish va turizm, dam olish, kurort sohalarida xizmat qiluvchilarda bo'ladi. Bu ishlarda band bo'lganlarning mavsum tugagach ishsiz qolishiga aytildi.

**Yashirin ishsizlik** — bunda ishchilar rasman ish bilan band bo'ladilar, lekin ular qisman ishlashi, ya'ni to'liq ishlamay, qisqartirilgan ish kuni yoki qisqa ish natijasida ishlaydilar xolos, shuning uchun ularni yashirin ishsizlar deyiladi.

**Tsiklli ishsizlik** — bu ishsizlik iqtisodiyotda sodir bo'lib turadigan siklning inkiroz fazasi bilan bog'liq kelib chiqadi. Ishsizlikning bu turi majburiy ishsizlik hisoblanadi va tsiklning yuksalish fazasida iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida ish bilan bandlik ortadi va u yo'qolib ketadi.

**Ixtiyoriy ishsizlik** — bunda ayrim mehnatga layoqatli kishilar o'z ixtiyorlari bilan ishlaydilar. Ularning mulkiy yoki boshqa daromadlari bo'lib, shuning hisobiga yashashlari mumkin.

**Texnologik ishsizlik** — ishlab chiqarishda yangi texnologiyalar ishlatilishi natijasida kelib chiqadi.

**Xududi ishsizlik** — bu ishsizlik ko'proq xududlarning demografik, tarixiy,

Iqtisodiyot nazariyasi ishsizlik darajasini o'rgnishda alohida e'tibor bilan qaraydi, chunki ishsizlik darajasini o'rganishga alohida e'tibor bilan qaraydi, chunki ishsizlik darajasining o'ta yuqori bo'lishi mamlakatning ijtimoiy barqarorligiga salbiy ta'sir etadi. Mamlakatda ishga layoqatli kishilarning ishsizlik darjasini quyidagi formula bilan aniqlanadi — ishsizlik darjasini ishsizlar sonining ishchi kuchi umumiyligi soniga nisbatining foizidagi ifodasidir:

$$Id = \frac{Is}{Ml} \times 100$$

Bu erda, Id — ishsizlik darjasini; Is — ishsizlar soni; Ml — mehnatga layoqatli aholi soni.

#### **14.4. Ouken qonuni va fillips egri chizig'i**

Amerikalik iqtisodchi Artur Ouken notabiiy yoki davriy ishsizlikning salbiy ta'sirga ega ekanligini matematik holda isbotlab berdi. A.Ouken qonuniga ko'ra ishsizlikning tabiiy darjasini 1 % ga oshganda yalpi milliy mahsulot 2,5 % ga kamayadi yoki 2,5 % yalpi milliy mahsulot yo'qoladi. Demak, mos ravishda ularning nisbati 1:2,5 ga teng. Shu nisbatga asoslanib, yo'qotilgan yalpi milliy mahsulotning absolyut qiymatini aniqlash mumkin.

2-shakl

Ishsizlik tabiiy darajasidan oshgan sharoitda ishlamayotgan ishchi kuchi vositasida ishlab chiqarilishi mumkin bo'lган tovarlar va xizmatlar potentsial hajmining yo'qotilishi



##### Ouken qonuni

Ishsizlik darjasini o'zgarishi va ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi o'rta sidagi bog'liqlikni ifoda etadi:

Agar ishsizlik tabiiy darajasidan 1 % ga oshsa, Yalim hajmida 2,5 % yo'qotish mavjud bo'ladi


##### Ishsizlikning oqibatlari

kishilarning turmush  
darjasini pasayishi

xodimlarning  
malakasini yo'qolishi

ijtimoiy va siyosiy  
keskinliklarning o'sishi

Ishsizlikni kelib chiqishi va uning sabablari to'g'risida ingliz iqtisodchisi olimi Olban Fillirs Buyuk Britaniya iqtisodiyotining o'tgan asr, ya'ni 1960-yiliga kadar bo'lgan yuz yillik ma'lumotlarini taxlil qilar ekan, ish xaqi bilan ishchi kuchlari bandligi o'rtasida bog'lanish borligini va u teskari proporsional xarakterga ega ekanligini aniqlab beradi. Fillirs egri chizig'i degan nom olgan grafik orqali u buni asoslashga xarakat qilgan.



Grafikga ko'ra, nominal ish haqining o'sish sur'ati past bo'lganda ishsizlik yuqori, so'ngra ish xaqining o'sishiga qarab ishsizlik pasayadi. Demak, bundan xulosa qilib aytadiki, inflatssiya sur'atini tezlashtirish evaziga ishsizlikni pasaytirish mumkin ekan. Bu bilan Filips Angliyada ishsizlikning 2,5 – 3% dan ortishi narxlar va ish xaqi o'sishining keskin sekinlashuviga olib kelishini aniqlaydi. Lekin Fillirs bu egri chiziq qonuniyati doimo to'g'ri chiqmasligini ham aytib ogohlantirgan.

#### 14.5. O'zbekistonda ishsizlarni ijtimoiy himoyalash

O'zbekiston aholisining yuqori sur'atlar bilan o'sishi va o'ziga xos tarkibiga egaligi mamlakatimizning muhim demografik xususiyati hisoblanadi. Bu xolat esa, o'z navbatida, respublikamizda mavjud ishchi kuchlaridan samarali foydalanish, ularning ish bilan bandligini ta'minlash kabi juda muhim muommolardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohatlar ushbu masalani xal etishga qaratilgan bir qator tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar mahkamasida 2014 – yilda mamlakatimizning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish to'g'risidagi ma'rzasida aytilgan so'zlarini keltiramiz: «Yangi ish o'rnlari tashkil etish, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'lib qolmoqda.


Respublikamiz Prezidentining aytganlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda ishchi kuchlari bandligini ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, uning ommaviy tus olishi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini, avvalo, ishchi kuchlarining ish bilan bandlik masalalarini hamda pirovard natijada esa aholi farovonligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Shu bois, ushbu sohani yanada rivojlantirish respublika xukumatining doimo diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Aholining ish bilan bandligini ta'minlashning yana bir yonalishi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bilan bogliq bo'lib qolmoqda. Bu sohada, ayniqsa, qishloq joylarda keng tarmoqli iqtisodiy – ijtimoiy infratuzilmani yaratish zarurligini hisobga olgan xolda ishlar olib borilmoqda.

Umumiyl xulosa sifatida aytish kerakki, aholining ish bilan bandligini ta'minlash, ularni ijtimoiy muhofaza qilish masalasi ko'p qirrali iqtisodijtimoiy va xuquqiy jihatlarga egadir. Bu masalalarini xal qilishda davlat aloxida o'z qobiliyatlarini ishga solish orqali o'z ehtiyojlarini qondirish uchun teng imkoniyatlarni yaratib berishida bozor mexanizmining barcha imkoniyatlaridan foydalanish zarur bo'ladi.

## XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI

Ishchi kuchi migratsiyasi – bu mehnatga layoqatli aholini milliy chegaralardan tashqariga joylashishi, ko'chishi.




Mehnat resurslarining xalqaro joylashuvidanagi ijobiy va salbiy tomonlar	
<b>Migrantlar uchun</b>	yangi joyga ko'chish va joylashish bilan bog'liq yo'qotishlar yangi madaniyat, til va muhit va h.k.ga moslashish muammolari ishga joylashish, yaxshi mehnat sharoiti va ish haqqidan foyda olish ehtimoli
<b>Chetga jo'natuvchi mamlakatlar uchun</b>	jamiyat mehnat resurslarining bir qismini (odatda yaxshisini) yo'qotish («ziyolilarning chiqib ketishi») davlat budgetidagi milliy daromadlar va soliq tushumlari ma'lum qismining yo'qolishi to'lov balansining daromadlar qismi to'ldirilishi (emigrantlarning pul o'tkazmalari) jamiyatda bandlik va ijtimoiy keskinlik muammolarini yengillashtirish
<b>Kabul kiluvchi mamlakatlar uchun</b>	ish beruvchilarning daromadlarini ko'paytirish (xorijiy ishchi kuchi arzon) ta'lim va kishilarni o'qitish xarajatlarini tejash, milliy daromad ortishi mahalliy aholi va immigrantlar o'rtaсидаги ehtimoliy ijtimoiy nizolar
<b>Jahon uchun</b>	ishsizlikni qisqartirish, jahon mahsulot ishlab chiqarishini oshirish madaniyat va xalqlarni yaqinlashtirish, jahon hamjamiyatida tinchlik va totuvlikni mustahkamlash

### Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillari

- 1.Band bo'lganlar soni  
2.Ishlagan kishi soatlarining o'rtacha miqdori. Mehnat sarflari ishlagan soatlar.

- 1.Texnika taraqqiyoti, mehnat unumdarligi  
2.Kapital qo'yilmalar hajmi (o'rtacha soatlik bajarilgan ish)  
3.Ta'lim va malaka tayyorgarlik  
4.Resurslarning joylashtirish samaradorligi  
5.Boshqa omillar

Ishlab chiqarishning real hajmi



### Tayanch tushunchalar

**Ishchi kuchi** – insonning mehatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi.

**Ishchi kuchini takror hosil qilish** – insonning mehnatga bo'lgan jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzlusiz qayta tiklash va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiyligini va kasbiy darajasini o'shining ta'minlash, katta yoshli ishchilar o'rnini bosadigan yosh ishchilar avlodini yetishtirish jarayoni.

**Yalpi ishchi kuchi** – jamiyat yoki alohida olingan mamlakat miqyosida qiymat va iste'mol qiymatlarini yaratishda ishtirok etuvchi bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat qiluvchi ishchi kuchlarining umumlashtirilgan majmui.

**Ishchi kuchi migratsiyasi** – turli omillar ta'siri ostida (masalan, ish haqi darajasidagi o'zgarishlar, ishsizlik va h.k.) ishchi kuchining bir hududdan boshqa bir hududga ko'chib o'tishi.

**Ishchi kuchi bozori** – bu xo’jalik faoliyati jarayonida ishchi kuchi tovari egalari va uning asosiy iste’molchilari – davlat korxonaları, tashkilotlari va turli xil tadbirkorlar o’rtasidagi oldi-sotdi munosabatlaridir.

**Ishchi kuchi talabi** – muayyan vaqtida ish haqining tarkib topgan darajasida turli ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchi miqdori va sifatiga bildirilgan talab.

**Ishchi kuchi taklifi** – muayyan vaqtida ish haqining tarkib topgan darajasida ishga yollanishga tayyor bo’lgan mehnatga layoqatli ishchi kuchi miqdori.

**Emigratsiya** – fuqarolarning o’z mamlakatlardan boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko’chib o’tishi.

**Immigratsiya** – xorijiy fuqarolarning doimiy yashash uchun mamlakatga ko’chib kelishi.

**Ishsizlik darajasi** – ishsizlarning ishchi kuchi tarkibidagi foizli nisbati.

### Takrorlash uchun savollar

1. Yalpi ishchi kuchi nima?
2. Ishchi kuchining bandligi nima?
3. Ishsizlik nima?
4. A.Ouken qonunini ayting?
5. Filips egri chizig’ini ifodalang?

### *Mavzuda qo’llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari*

#### 1. Sinkveyn sxemasi:

Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish

1-qator – tushuncha

2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat


3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to’g’risidagi 3 ta fe’l

4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to’g’risidagi 4 so’zdan iborat so’z birikmasi

5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

« Ishchi kuchi », « Ishsizlik» tushunchalariga sinkveyn tuzing.

#### 2. KLASTER



## **Klasterni tuzish qoidasi**

1. Hayolingizga kelgan barcha tushunchalarni yozing. G'oya sifatini muhokama qilmang: ularni oddiy holda yozing.
2. Orfografiya va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozuvni to'xtatmang. Agarda fikrlar kelishi birdan to'xtasa, u holda qog'ozga rasm chizing, qachonki to'la fikrlar paydo bo'limguncha.
4. Ko'proq aloqa bo'lishligiga harakat qiling. Tushunchalar soni, ular oqimi va ular o'rtaсидagi o'zaro aloqadorlik bo'yicha chegaralanmang.

## **Mavzu bo'yicha test savollari**

### **1. Ishsizlik deganda...**

- a) O'ziga ish topolmasdan, mehnat zahirasi armiyasiga aylangan aholining iqtisodiy faol qismi tushuniladi;
- b) mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlar tushuniladi;
- v) ish qidirayotgan yoki yaqin vaqt ichida ish bilan ta'minlashini kutayotgan aholi tushuniladi;
- g) Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan aholi tushuniladi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

### **2. Friksion ishsizlik deganda:**

- a) iste'molchilik talabi va texnologiyadagi turli hududlarda, turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklif nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;
- b) iqtisodiy tsiklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan ishsizlik tushuniladi;
- v) ish joylarini o'zgartirish tufayli ishdan bo'shab qolib, malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rnlari bo'shashini kutayotgan ishsizlar tushuniladi;
- g) ishlashni xohlamaydigan ishsizlar tushuniladi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

### **3. Tarkibiy ishsizlik deganda:**

- a) ish joyini o'zgartirish tufayli ishdan bo'shab qolib, malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rnlari bo'shashini kutayotgan ishsizlar tushuniladi;
- b) iste'molchilik talabi va texnologiyaning o'zgarishi tufayli turli hududlarda turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklifga nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;

- v) iqtisodiy tsiklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;
- g) ishlashni xohlamaydigan ishsizlar tushuniladi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

#### **4. Tsiklik ishsizlik deganda...**

- a) iqtisodiy tsiklning inqiroz fazasi bilan bog'liq ravishda vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;
- b) ish joyini o'zgartirishi tufayli ishdan bo'shab qolib malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rirlari bo'shashini kutayotgan ishsizlar tushuniladi;
- v) iste'molchilik talabi va texnologiyaning o'zgarishi tufayli turli hududlarda turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklifga nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;
- g) ishlashni xohlamaydigan ishsizlar tushuniladi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

#### **5. Ishsizlik darajasi (ID) qanday aniqlanadi?**

- a)  $ID = (IS \times IK) \times 100$ ;
- b)  $ID = IS : IK \times 100$ ;
- v)  $ID = IK : IS \times 100$ ;
- g)  $ID = (IS + IK) \times 100$ ;
- d)  $ID = (IK - IS) \times 100$ .

## **15-mavzu. Moliya tizimi**

### **Reja:**

1. Moliya tushunchasi va moliya munosabatlari
2. Moliyaviy resurslar va moliyaviy vazifalar
3. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi moliyaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari
4. Davlat budgeti va uning shakllanishi
5. Budget taqchilligi va O'zbekistonda budget tizimini takomillashtirish
6. Davlatning soliq tizimi va uning vazifalari


### **15.1. Moliya tushunchasi va moliya munosabatlari**

Moliya o'z mohiyatiga ko'ra, iqtisodiy kategoriya bo'lib, boshqa iqtisodiy kategoriyalar (pul, foyda, tannarx, qiymat, kredit va h.k) kabi jamiyatdagi muayayan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar, ya'ni mehnat mezoni, iste'mol me'yori, ishlab chiqarishni rag'batlantirish, milliy daromadni taqsimlash kabi munosabatlarning mohiyatini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida moliya kategoriyasining ahamiyati kuchaya borib, ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy mexanizimiga aylanadi.

"Moliya" so'zi lotincha "finance" so'zidan olingan bo'lib, "tugadi", "oxirgi", "finish", "yakunlash" kabi ma'nolarni bildiradi. Tarixan bu so'z xalq bilan davlat o'rtaсидаги pul to'lovlarining tugallanganligini, hisob-kitoblarning oxiriga yetkazilganini bildiruvchi tushuncha sifatida kelib chiqqan. Davlatga o'z badallarini, o'z daromadlaridan davlat hissasini bergen shaxslar "finis" degan hujjat olishgan. Keyinchalik bu so'z Yevropa mamlakatlarda "financia" - davlat daromadlari hamda xarajatlarining umumiy ma'nosini anglatadigan tushunchaga aylandi. Shunday qilib, moliya munosabatlari vujudga kelib chiqdi.

Ko'pincha moliya munosabatlari deganda pul munosabatlarini tushunamiz, bu to'la ma'noda to'g'ri emas. Pul munosabatlari moliya munosabatlariga nisbatan ancha keng ma'noni anglatadi. Binobarin, moliya munosabatlar pul munosabatlarining bir qisminigina tashkil etadi. Ya'ni bunga shunday izoh berish mumkinki, biz pulni kundalik ehtiyoj tovarlari sotib olganimizda yoki transportga tushganimizda ularga pul to'laymiz yoki pul munosabatlariga kirishamiz, ammo buni moliyaviy munosabatlar deya olmaymiz. Chunki, moliyaviy munosabatlar deganda pulning davlat budgeti, sug'urta fondlari, davlatning valyuta zaxiralari,

korxona va firmalar pul fondlarining tashkil etilishi va ishlatalishi kabilar bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlari tushuniladi. Har qanday munosabat kabi moliya o'z obyekti va subyektiga ega.



## 15.2. Moliyaviy resurslar va moliyaviy vazifalar

Har qanday iqtisodiy faoliyat mablag', pul talab qiladi. Ishlab chiqarish qayerda bo'lmasin, baribir moliyani yuzaga keltiradi. Gap shundaki, mahsulotlar va xizmatlar faqat taqsimlangandan so'ng, iste'mol etilishi mumkin. Ular qiymat shaklida taqsimlanganda dastlab turli maqsadlarni mo'ljallagan pul resurslari hosil bo'ladi, ular tovarlarga ayriboshlanib, shundan so'ng iste'mol qondiriladi. Masalan, qiymat shaklidagi mahsulot taqsimlanganda uni yaratish uchun sarflangan mehnat qurollari qiymatini ifodalovchi qismi amortizatsiya fondi shakliga kiradi. Bu esa moliyaviy resursga aylanadi, yigilib boradi va unga yangi mashinalar olinib, eskirganlari o'rniغا tiklanadi.

Ma'lumki, umumjamiyat ehtiyojlari davlat yo'li bilan qondiriladi. Bular jumlasiga atrof - muhitni himoya qilish, mudofaa, ijtimoiy tartibni saqlash, bir qator nomoddiy sohalarni pul bilan ta'minlash, aholining nochor qatlamlarini boqish va boshqalar kiradi. Mazkur ehtiyojlarning qondirilishi davlatning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq. Shubhasiz, moliya ishtirokchilari har xil, lekin moliyani moliya qiladigan umumiylashtirish asos bor. Bu mahsulot qiymatining taqsimlanishidir. Mahsulot ishlatalish uchun taqsimlanganda pul shaklidagi moliyaviy fondlar hosil bo'ladi, ular tabiatan moliyaviy resurs hisoblanadi.

Moliyaviy resurslarni tashkil etishda va ishlatalishda ishtirok etuvchilar moliyaviy munosabatlarning subyekti hisoblanadi. Moliya ishtirokchilari

bo'lmish korxona, tashkilot, fuqaro yoki davlat mahsulot taqsimlanganda olgan hissalariga teng miqdorda pul fondlarini uyuştiradi, bu ma'lum maqsadni ko'zlaydi, ya'ni ishlab chiqarishni o'stirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, davlatni boshqarish, mudofaani mustahkamlash, rezervlar hosil etish kabilarni mo'ljallaydi. Moliya munosabatlarining obyekti pul resurslari hisoblanadi, lekin ular albatta, moddiy mahsulotning ma'lum qismini o'zida ifoda etadi.

Moliya munosabatlariga xos bo'lgan belgilar va xususiyatlar moliyaning vazifasida ifodalanadi. Moliyaning vazifasi - bu moliya mohiyatining xo'jalik faoliyatidagi aniq ko'rinishi, uning ifodasidir. Yuqorida aytganimizdek, moliya mahsulot qiymatini taqsimlash orqali pul fondlarini hosil etish va ularni ishlatishni bildirar ekan, shunga ko'ra, u taqsimlash, rag'batlantirish, ijtimoiy himoya, iqtisodiy axborot berish vazifalarini ado etadi.

**Taqsimlash vazifasi** - moliya vositasida jamiyatda yaratilgan yalpi milliy mahsulot va uning asosiy qismi bo'lmish milliy daromad xo'jalik subyektlari o'rtasida taqsimlanib, pul fondlariga aylantiriladi. Ishlab chiqarishning o'zida yuz beradigan taqsimlash birlamchi taqsimlash deb ataladi, uning natijasida birlamchi daromadlar yuzaga keladi: foyda, ish haqi fondi, ijtimoiy sug'urta uchun ajratmalar, amortizatsiya puli tashkil topadi. Birlamchidan, so'ng ikkilamchi taqsimlash yoki qayta taqsimlash yuz beradi, bir marta taqsimlangan mahsulot qiymati moliya vositalarida, masalan, soliqlar va har xil to'lovlar bo'lmish budget asosiy rolni o'ynaydi. Daromad qayta taqsimlanganda moliyaviy aloqalar qaytadan ishlab chiqarish va boshqa soha, turli korxona, tarmoqlar o'rtasida, korxona bilan davlat, korxona bilan aholi o'rtasida yuz beradi.

**Rag'batlantirish vazifasi** - moliya vositalari orqali xo'jalik subyektlarini iqtisodiy faollikka undashdan iborat. Bu moliya tizimida ishlatiladigan soliqlar, to'lovlar, subsidiyalar va subvensiyalardir. Soliqdan imtiyoz berilishi korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarishni kengaytirish uchun ketadigan investitsiyani ko'paytiradi, ishlovchilarga ko'proq mukofot berishni ta'minlab, ularni yaxshi ishlashga undaydi. Boj pulini kamaytirish orqali eksport rag'batlantiriladi, import qisqartiriladi. Kerak bo'lganda zararni qoplash uchun subsidiya berish korxonani moliyaviy sog'lomlashtirish vositasi bo'ladi.

**Ijtimoiy himoya vazifasi** – jamiyat a'zolari ma'lum qatlamlarining minimal tirikchilik yuritishini moliyaviy jihatdan ta'minlab turish, ya'ni moliyaviy kafolatlashdan iborat. Moliyaning ijtimoiy vazifasi bozor

iqtisodiyotining insoniy bo'lishini, uning aniq ijtimoiy mo'ljalga qaratilishini bildiradi.

**Iqtisodiy axborot berish vazifasi** - xo'jalik subyektlari va umuman, jamiyat iqtisodiy faoliyatining moliyaviy yakunlari xususida ma'lumot va xabarlar berib turishdan iborat bo'lib, iqtisodiyotni boshqarishda qo'l keladi. Iqtisodiy holat moliyada o'zining miqdoriy ifodasini topadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar orqali ishlab chiqarishning qanday borishini kuzatish mumkin. Auditorlik xizmati - bu korxonalar, firmalar, kompaniyalar xo'jalik - moliyaviy faoliyatini tahlil etib, hisobotlar ekspertizasini o'tkazish, ularning moliyaviy ahvoli to'g'risida holisona axborot yetkazib turish va xulosalar chiqarishdir. Moliyaviy axborot moliya menejmenti (moliyani boshqarish)ga xizmat qiladi.

## 2-shakl

### 15.3.O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi moliyaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi moliyaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari

Byudjet defitsitining yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan 3-4 % miqdorida ushlashga qaratilgan qattiq moliyaviy siyosat o'tkazish

Byudjet defitsitini cheklash asosidagi iqtisodiy barqarorlik masalasini hal etish va iqtisodiy faoliyatni jonlantrishni rag'batlantiruvchi zarur ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish o'rtasida optimal munosabatni ta'minlash

Milliy xo'jalik tarmoqlarini budjetdan qaytarmaslik shartida moliyalash siyosatidan amaliyotidan voz kechish va bu maqsadlarga investitsion kreditlardan foydalanishni keng yo'lga qo'yish

Bozor munosabatlarini rivojlanishini rag'batlantiruvchi va davlat budgeti daromadlari shakllanishini barqarorligini ta'minlovchi soliq siyosatini o'tkazish, soliq tizimini takoillashtirish

Aholini ijtimoiy ta'minlashda me'yorlar saqlanishini ta'minlash

### 15.4. Davlat budgeti va uning shakllanishi

**Fiskal siyosat** – davlat xarajatlari va soliqlarni o'zgartirish orqali iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan budget va soliq siyosatini o'z ichiga oluvchi moliyaviy siyosatning bir qismi.


**Davlat budgeti** – davlatning daromadlari manbai va mablaglarni sarflash yo’nalishlari ko’rsatilgan holda tuzilgan davlatning ma’lum davr, odatda bir yilga mo’ljallangan daromadlari va xarajatlari smetasi

**Davlat budgeti defitsiti** – davlat budgeti xarajatlarining daromadlardan ortib ketishi.

**Davlat budgeti profitsiti** – ma’lum davrda daromadlar miqdorining xarajatlardan ortib ketishi.

### 3-shakl

Davlat budgeti daromadlari	Davlat budgeti xarajatlari
<b>Soliq:</b> bevosita, bilvosita soliqlar resurs to’lovleri <b>Soliqdan tashqari:</b> soliqdan tashqari yig’imlar, boj va boshqa majburiy to’lovlar davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini foydalanish va sotishga yetkazib berish va joylashtirishdan daromadlar qonunchilikka muvofiq meros, hadya qilish huquqiga ko’ra, davlat mulkiga o’tadigan pul mablag’lari yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek xorijiy davlatlardan beminnat pul tushumlari budget ssudalarini qoplash uchun yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek xorijiy davlatlarga berilgan to’lovlar	budjet mablag’laridan foydalanuvchilarning joriy xarajatlari joriy budjet transfertlari kapital xarajatlari kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga budget transfertlari yuridik shaxslar - rezidentlar va xorijiy davlatlarga budget ssudalari davlatning maqsadli fondlariga budget dotatsiyalari va budget ssudalari davlat qarzlarini qoplash va xizmat ko’rsatish bo’yicha to’lovlar qonuchilikda ta’qilangan boshqa xarajatlar



## **15.5. Budget taqchilligi va O'zbekistonda budget tizimini takomillashtirish**

Qoidaga ko'ra, davlat budgetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo'lishi zarur hisoblanadi. Ammo, budget xarajatlariga va uning tarkibiga ichki, tashqi, iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Omillarning ta'sir ko'rsatishi natijasida ayrim hollarda budgetlarda belgilangan xarajatlarga mablag'larning yetishmay qolishi kelib chiqadi. Bunday holat iqtisodiyot nazariyasida budget taqchilligi, deb aytildi.

Budget taqchilligining kelib chiqishiga ta'sir e'tuvchi omillardan biri - bu davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzlusiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi deb qaralmoqda. Bundan tashqari, budget taqchilligiga iqtisodiy hayotdagi tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlar ham ta'sir etadi. Jumladan, jahonning ayrim mamlakatlaridagi iqtisodiy-ijtimoiy inqirozlar davrida davlat budget mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sohalarini ushlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lган tarmoqlarga katta investitsiyalar qilishga majbur bo'ladi.

Budget taqchilligini bartaraf etishning asosiy yo'li bu davlat krediti hisoblanadi. Davlat krediti deganda, davlat tomonidan o'z aholisidan, boshqa davlatlardan qarz olish tushuniladi. Davlat qarz olishning asosiy shakli - bu davlat zayomlarini chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar va boshqa xo'jalik subyektlarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablaglarini qarz sifatida oldi.

Budget taqchilligini bartaraf etishning yana bir asosiy va muhim yo'llari, bu budgetlarning xarajat qismini ijro etish, budget hisobidan muayyan mablag'larni ajratilishi bilan bogliqdir. Budgetni ijro etish jarayonida uning hisobidan u yoki bu xarajatlarni qoplash maqsadida mablag' ajratilishi budget krediti deb yuritiladi. Barcha kredit taqsimlovchilar o'zlariga ajratilgan mablag'lardan maqsadga muvofiq va tasdiqlangan smeta doirasida foydalanishlari lozim. Budget mablag'laridan foydalanish paytida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmasligi va barcha darajadagi budgetlar ijrosi davlat hokimiyat organlarining muntazam nazorat ostida bo'lishi juda muhimdir.


O'zbekistonda budgetlar umumrespublika va muayyan hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot istiqbolini belgilash ko'rsatkichlari hamda dasturlariga muvofiq ravishda amalga oshirilib, budget loyihasi tayyorlanguniga qadar, tegishli milliy - davlat hamda ma'muriy-hududiy birliklar taraqqiyoti

rejalari, taxminlari ishlab chiqiladi. Ular asosida hokimiyatning ijroiya organlari tegishli budgetning daromadlari: xarajatlari, jamlama budget, quyi hududiy organlarning minimal budget ko'rsatkichlari to'g'risida hokimiyatning vakillik organlariga takliflar hamda axborotlar taqdim etadi. Bunday axborotlarning taqdim etilish muddatlari va tartiblari qonunlar bilan belgilab, ular mamlakatimiz barcha hududlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, aholi farovonligini oshirishning ta'minlanishini nazarda tutadi.

### 15.6. Davlatning soliq tizimi va uning vazifalari

**Soliq** - davlat tomonidan daromadlarning bir qismiga (to'gridan-to'gri) egalik qilish huquqi bo'yicha korxonalar, muassasalar va aholi to'laydigan majburiy yigimlar.

5-shakl




6-shakl

Soliqqa tortish ob'ektlari bo'yicha			Soliqlarni undirish usullari bo'yicha				Soliq miqdorini belgilash usullari bo'yicha			Budget darajasi bo'yicha		Foydalanish tartibiga ko'ra	
daromad soligi	mulk soligi	xarajatga soliqlar	Bevosita		Bilvosita		proporsional	progressiv	umummilliy	mintakaviy	umumiyl	mahalliy	
			daromad bo'yicha	mulk bo'yicha	aksizlar	alohiba	universal	bojixona bojlari					

*Soliqlarning asosiy turlari*

## 7-shakl.

▶ **Davlat qarzi** – hukumatning avvalgi budget defitsitlariga teng bo’lgan umumiy qarzlari miqdori (minus budget ortiqchaligi).




## Fiskal siyosat: maqsad va yo’nalishlar

▶ **Fiskal siyosatning maqsadi** – davlat daromadlari va xarajatlarni mutanosib o’zgartirish, soliqqa tortish tizimi, balanslangan davlat budgetini tartibga solish tizimi asosida to’liq bandlikni va noinflyatsion iqtisodiy o’sishni ta’minalash.

▶ **Davlat xarajatlari multiplikatori** – YalMning o’sishiga muvofiq ravishda davlat xarajatlarining o’sish koeffitsienti.

## 8-shakl



## **Tayanch tushunchalar.**

Moliya – pul mablag’larining harakati, ya’ni ularning shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanilishi bilan bog’liq ravishda vujudga keladigan munosabatlar.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalardir.

Davlat budgeti – davlat xarajatlari va ularni moliyaviy ta’minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.

Budget taqchilligi – budget xarajatlarining daromadlar qismidan ortiqcha bo’lishi natijasida vujudga kelgan farq.

Davlat qarzları – budget taqchilligini qoplash maqsadida davlat tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslar.

Soliqlar – jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromadning bir qismini budgetga jalb qilish shakli.

Soliq stavkasi – soliq summasining soliq olinadigan summaga nisbatining foizdagi ifodasi.

Laffer egri chizig’i – davlat budgeti daromadlari va soliq stavkasi o’rtasidagi bog’liqlikning tasvirlanishi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Moliyaning iqtisodiy mazmunini tushuntiring va uning iqtisodiy vazifalarini bayon qiling.

2. Jamiyat va davlat moliya tizimlari asosiy bo’g’inlarining tavsifini bering. Moliya tizimida davlat budgetining o’rnı qanday?

3. O’zbekiston davlat budgeti mablag’larining shakllanish va taqsimlanish xususiyatlari to’grisida mulohaza yuriting.

4. Davlat budgeti milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda qanday rol o’ynaydi? Bunda qanday usullardan foydalanildi?

5. Budget taqchilligi nima? Ijobiy va salbiy budget taqchilligini tushuntiring.

### ***1. Insert usuli”***

**Insert** - samarali o’qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o’qib-o’rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o’qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o’z fikrini ifodalaydi.

### **Matnni belgilash tizimi**

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma’lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o’ylantirdi. Bu borada menga qo’shimcha ma’lumot zarur.

## Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?

## 2. “Fikrlar hujumi” texnologiyasi

### «Fikrlar hujumi» texnologiyasi

Mazkur metod o’quvchilarning mashg’ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag’batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang — barang g’oyalarni tuo’plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni xal etish, echish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo’lgan fikrlarni engishga o’rgatish uchun xizmat qiladi. «Fikriy xujum» metodi A.F.Osborn tomonidan tavsija etilgan bo’lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg’ulot (baxs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o’rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta’qiqlash, o’ar qanday luqma va xazil — mutoyibalarni rag’batlantirishdan iboratdir. Bundan ko’zlangan maqsad o’quvchilarning mashg’ulot (baxs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatlifoydalanish o’qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko’lamining kengligiga bog’liq bo’ladi. «Fikriy xujum» texnologiyasidan foydalanishda o’quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg’ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

### 1. Moliyaviy munosabatlarning mohiyati qaysi bandda to’la yoritilgan.

- a) pulning harakati ya’ni uning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatalishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar;
- v) faqat aholi keng qatlamlari qo’lidagi pul mablag’larining ishlatalishi bilan bog’liq bo’lgan munosabatlar;
- g) chet ellik jismoniy va huquqiy shaxslar pul mablag’larining harakati bilan bog’liq bo’lgan munosabatlar;
- d) barcha javoblar to’g’ri.

### 2. Soliqlar tushunchasining mazmuni qaysi bandda to’g’ri ko’rsatilgan?

- a) soliqlar iqtisodiy tushuncha sifatida sof daromadning bir qismini ixtiyoriy ravishda budgetga jalb qilishning shakli bo’lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil etadi;
- b) soliqlar davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan huquqiy shaxslar daromadining bir qismini majburiy, jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini esa ixtiyoriy ravishda budgetga jalb etish shaklidir;

- v) soliqlar davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan huquqiy shaxslar daromadining bir qismini ixtiyoriy, jismoniy shaxslar daromadlarining bir qismini esa majburiy ravishda budgetga jalb etish shaklidir;
- d) to'g'ri javob yo'q.

### **3. Soliq stavkasi qanday aniqlanadi?**

- a) soliq summasining soliq olinadigan daromad summasiga nisbatining foizdagi ifodasidir;
- v) soliq olinadigan daromad summasidan soliq summasi ayrıldı;
- g) soliq summasining soliq olinadigan daromad summasiga ko'paytmasi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

### **4.Budget - bu .....**

- a) davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrga mo'ljallangan pul ifodasidagi daromad va sarf-xarajatlari;
- b) davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrga mo'ljallangan pul ifodasidagi sarf-xarajatlari;

### **26.Moliya tizimining bazaviy tarkibiga qanday elementlar kiradi:**

- a) moliyaviy resurs, moliya xizmati, boshqarish tizim osti
- b) moliyaviy fond, pul mablaglari, sug'urta bozori, sug'urta fondi
- v) ijtimoiy fond, pul mablaglari
- g) moliyaviy bozor, birja, pul mablaglari

## 16- mavzu.Kredit va bank tizimi. Pul muomalasi

*Jamiyat ildiziga bolta urushning pul muomalasini izdan chiqarishdan  
ham ko'ra ishonchliroq omili yo'q  
Jon. Keyns*

**Reja:**

- Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari**
- Kreditning turlari va tamoyillari**
- Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklari hamda ularning vazifalari**
- Pul muomalasi tizimi. Pul muomalasi qonuni va pul miqdoriga ta'sir etuvchi omillar**
- Inflyatsiya, uning sabablari, oqibatlari va inflyatsiyaga qarshi chora-tadbirlar**
- O'zbekistonda milliy valyutani joriy qilinishi**

### 16.1. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari

Ma'lum muddatga haq to'lash va qaytarib berish sharti bilan beriladigan bo'sh turgan pul mablag'lari kredit deb yuritiladi. Kreditning mohiyati shundaki, iqtisodiyotning ayrim subyektlari faoliyati uchun pulga muhtoj bo'lib turgan vaqtda ayrimlarning qo'lida ma'lum miqdordagi pul mablag'lari ishlatilmay bo'sh turgan bo'ladi. Iqtisodiyot nazariyasida shu pul shaklidagi kapital ssuda kapitali deb atalib, uning harakati kredit tarzida namoyon bo'ladi.

Kredit uz mohiyatiga ko'ra, iqtisodiyotdagi mavjud resurslardan samarali foydalanishni va

uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan iqtisodiy kategoriya sifatida kredit, kredit oluvchilar va kredit beruvchilar o'rtasida kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlarni o'zida ifoda etadi.

Kreditning vazifasi kredit munosabatlarining xo'jalik faoliyatidagi ko'rinishi yoki uning harakat ifodasıdir. Shuni aytish kerakki, kredit o'z vazifalarini to'g'ri bajargan holdagina ijobiy natijalarga olib keladi, aksincha, kreditdan foydalanish maqsadga muoviq kechmasa, kredit salbiy natijalarga olib keladi.

**Birinchi vazifasi** — pulga tenglashtirilgan tulov vositalari bulgan veksel, chek, sertifikat kabilarni Iqtisodiyot soxasida jalb kilib, ularning xujalik faoliyatida real xarakatini yulga kuyadi.

**Ikkinci vazifasi** — turli xujalik sub'ektlari va axolii kulidagi bush pullarni kapitalga aylantiradi, ya'ni pulning uz kuchi asosida kupayishiga, pulga pul kushilishiga xizmat kiladi.

**Uchinchi vazifasi** — kreditlash orkali pul mablaglari turli xujalik sub'ektlari va xalk xujaligi tarmoklari urtasida kayta taksimlanadi. Ya'ni ishlab chikarish omillarining samara beruvchi soxalarga tezrok etib borishiga turki beradi.

## **16.2. Kreditning turlari va tamoyillari**

**Bank krediti** - kreditning eng qulay va keng tarqalgan shakllaridan biridir. Bank krediti “Banklar va bank faoliyatları to’grisida”gi qonun talablari asosida tashkil etiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, banklar kredit muassasalari sifatida faoliyat yurituvchi tijorat tashkilotlari deyiladi. Ular xo’jalik subyektlari hamda aholining bush pul mablag’larini ma’lum foizlarda beriladigan haq evaziga o’zlariga jalb qilib foyda olish uchun aholining va korxona hamda tashkilotlarning pulga bo’lgan talablarini qondirish maqsadida ularga kredit shaklida beriladi. Albatta, banklar kredit pullarini har qanday ehtiyojmandlarga beravermaydi, ular kreditni xo’jalik va tijorat faoliyatida samarali ishlatib foyda ola biladigan mijozlargagina taklif etishadi.

**Davlat krediti** - kredit shakillaridan biri sifatida davlat krediti davlat bilan aholi va mikroiqtisodiy tuzilmalar o’rtasida iqtisodiy munosabatni vujudga keltiradi. Davlatning kredit munosabatlari subyektiga aylanishi shu bilan izohlanadiki, u bozor iqtisodiyoti sharoitida, ayniqsa, bozor munosabatlariga o’tish davrida, iqtisodiy markaz sifatida ro’l o’ynaydi. Davlat milliy iqtisodiyotining taqdiri va istiqboliga ma’sul tuzilma sifatida ham qarz beradi, ham qarz oladi. U qarzni aholidan, korxonalardan, tashkilotlardan, xorijiy davlatlar va kompaniyalardan olib, uni milliy iqtisodiyotga chuqur strukturaviy o’zgarishlar qilish, iqtisodiyotni bozor talablariga moslashtirish maqsadlarida safarbar qiladi.

**Tijorat krediti** - bu sotuvchilarning xaridorlarga tovar shaklida beriladigan kreditidir. Bunda tovarlar ma’lum muddatga pulini to’lash sharti bilan nasiyaga beriladi.

**Iste’mol krediti** - tijorat banklari tadbirkorlik uchun firmalarga qarz bersa, iste’molchilarga tovar sotib olish uchun qarz beradi. Buning natijasida iste’mol krediti paydo bo’ladi. Bunda bank istemolchilarga kredit kartochkalari beradi, ularga ma’lum summaga qadar tovarlar xarid etadilar, xarid puli banklar magazinlar bergan schyotga qarab to’lanadi. Bunday kredit goyat imtiyozli bo’ladi. Iste’mol krediti aholining iste’mol ehtiyojlarini qondirishga mo’ljallangan.


**Ipoteka krediti** - Yakka tartibda uy-joy qurish maqsadlariga beriladigan uzoq muddatli kreditlar ipoteka kreditlari deyiladi.

**Xalqaro kredit** - ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida harakat shaklidir. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi.


### 16.3.Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari

**Pul-kredit siyosati** – mamlakat Markaziy banki tomonidan iqtisodiyotning barqaror, samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladigan kurs va barqaror pul tizimini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan pul muomalasi va kredit sohasidagi chora-tadbirlar.

**Bank** - mamlakatda bo'sh turgan pul mablag'larini jamlab, uni zaruriy sohalarga tarqatish huquqini olgan moliyaviy tashkilot




## 1-shakl



## 2-shakl

Bo'sh turgan pul mablag'larini tijorat banklariga jalg qilishni rag'batlantirish jahon moliyaviy inqirozi sharoitida banklarning o'z mablag'larini ko'payishiga va ularning investitsiya jarayonlaridagi faolligini oshishiga imkon yaratadi



### 16.4. Pul muomalasi tizimi nazariyasi. Pul muomalasi konuni va pul miqdoriga ta'sir etuvchi omillar

**Pul muomalasi** - bu tovarlar aylanishi, notovar tavsifidagi bitimlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar (kredit pullar) harakati

**Pul muomalasi qonuni** - muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga muvofiq muomalaga pul chiqarishni taqozo qiladi

**Pul tizimi** - bu mamlakatda mavjud pul birligi muomalasining tashkil qilish tartibi, usullari va unga nazorat qiluvchi kredit muassasalaridir

## Pul tizimining tarkibiy qismlari

il birligi (dollar, marka, iena, rubl, so'm va h.k.)

il turlari (bank biletlari, tanga, chakalar)

il emissiyasi tarkibi

uomaladagi pul massasini tartibga soluvchi davlat muassasalari

aqd pulsiz hisob-kitobni amalga oshirish tartibi

illiy valyutani chet el valyutasiga almashtirish tartibi

**Pul bozori** – moliyaviy bozorning tarkibiy qismi bo'lib, unda pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar harakati ularga bo'lган talab va taklif ta'sirida uyg'unlashtiriladi.

► Tovar va xizmatlar muomalasi uchun zarur bo'lган **pul miqdori** pul muomalasi qonuni yordamida belgilanadi.

$$MV = PQ$$


qayerda  
an

$$M = \frac{PQ}{V}$$


qayerda  
**MV = PΩ**

Inglizcha so'zning  
harfiy ifodasi

<b>M</b>	muomaladagi pul miqdori (pul taklifi)	money - pullar
<b>V</b>	pul muomalasi tezligi (aylanmaning yillik o'rtacha)	velocity - tezlik
<b>P</b>	mahsulot birligi o'rtacha narxi (tovarlar va xizmatlar)	price - narx
<b>Q</b>	bir yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmi (uning birliklari soni)	quantity – miqdor




#### 4-shakl.



#### 16.5. Inflyatsiya, uning sabablari, oqibatlari va inflyatsiyaga qarshi chora-tadbirlar


**Inflyatsiya** – bu pul aylanish kanallarining ortiqchali pul massasi bilan to'lib ketishi oqibatida narxlar o'rtacha (umumiy) darajasining ko'tarilib borishini va natijada milliy pul birligining qadrsizlanishini anglatadi.

#### 5-shakl



**Deflyatsiya** – inflyatsiyaga qarama-qarshi jarayonni, ya'ni narxlarning umumiy darajasining pasayib borishini bildiradi.

## 6-shakl




Inflyatsiya sur'ati narx indeksi (**R<sub>i</sub>**) yordamida aniqlanadi. Narx indeksi – bu joriy davrdagi narxlarning (**R<sub>j</sub>**) bazis davrdagi narxlarga (**R<sub>b</sub>**) nisbatidir

$$R_j - R_b$$


$$R_i = \frac{R_j - R_b}{R_b} \times 100$$

$$R_b$$

## 7-shakl.



## 8-shakl



### 16.6. O'zbekistonda milliy valyutani joriy qilinishi

O'zbekiston Respublikasida milliy valyutani joriy etish va muomalaga kiritish bir necha yilni uz ichiga oldi hamda bosqichma-bosqich amalgalashdi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilingan dastlabki yillarda mamlakat hududida sobiq SSSRning 1961 - yilgi pul birlklari hamda 1992 - yildan boshlab, Rossiya Federatsiyasi tomonidan joriy etilgan rubl va uning modifikatsiyalari muomalada bo'lib keldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 12-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi hududida parallel to'lov vositasi sifatida sum kuponlarni joriy etish haqida"gi 550-Qaror bilan O'zbekistonning dastlabki pul birligi "sum-kupon" muomalaga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 - yil 11-apreldagi 195-Qarori bilan esa O'zbekiston hududida Rossiya banki banknotlari bilan muomala qilish ta'qiqlandi. Ushbu qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi pul birligini chet el valyutasiga nisbatli valyuta birjalaridagi savdo paytidagi narx-navoga asosan belgilanishi ko'zda tutildi va bu tadbir respublikada pul muomalasi barqarorligini ta'minlanishida muyyan ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomilaga kiritish to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, 1994-yil 1-iyuldan boshlab, 100 so'm-kuponga 1 so'm nisbati bilan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi "so'm" muomalaga kiritildi. So'm dastavval 1,3,5,10, 25, 50 va 100 so'mlik qog'oz pullar hamda 1, 3, 10, 20, 50 tiyinlik tanga chaqalar shaklida muomalaga chiqarilgan bo'lsa, keyinchalik 200, 500, 1000 va 2013-yilga kelib, 5000 so'mlik qog'oz pul va 1, 5, 10, 25, 50, 100 so'mlik tanga pullar shaklida to'ldirildi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan milliy valyuta - "sum" xarid quvvatini va barqarorligini saqlab turish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Pul-kredit siyosati sohasida tuzilgan doimiy hukumat komissiyasi pul emissiyasini cheklash, naqd pul massasining banklarga qaytib kelishini ta'minlash, pul muomalasini izdan chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni bartaraf etish sohalarida izchil tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini pul-kredit vositalari orqali tartibga solish O'zbekiston Markaziy banki zimmasiga yuklangan. Ana shu maqsadda tijorat banklari uchun majburiy zaxira fondlari, hisob stavkalari miqdorini belgilash, iqtisodiy normativlar joriy etish, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish kabi ishlarni bajaradi.

### **Tayanch tushunchalar**

**Pul muomalasi** – tovarlar aylanishiga hamda notovar tavsifidagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakati.

**Pul tizimi** – tarixan tarkib topgan va mamlakat milliy qonunchiligi bilan mustahkamlangan pul muomalasini tashkil qilish shakli.

**Inflyatsiya** – qog'oz pul birligining qadrsizlanishi.

**Kredit** – bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.

**Lizing** – odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda haq to'lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat kreditning pulsiz shakli.

**Faktoring** – boshqa iqtisodiy sub'ektlarning qarzdorlik bo'yicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari.

**Forfeyting** – uzoq muddatli faktoring munosabatlari.

**Trast** – mijozlarning kapitallarini boshqarish bo’icha operatsiyalari.

**Banklar** – kredit munosabatlariga xizmat qilib, kredit tizimining negizini tashkil qiluvchi maxsus muassasalar.

**Bank operatsiyalari** – mablag’larni jalb qilish va ularni joylashtirish bo’yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar.

**Bank foydasi (marja)** – olingan va to’langan foiz summalarini o’rtasidagi farq.

**Bank foyda normasi** – bank so’f foydasining uning o’z kapitaliga nisbatining foizdagi ifodasi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Pul muomalasining mazmunini tushuntiring.
2. Muomala uchun zarur bo’lgan pul miqdori qanday omillarga bog’liq?
3. Pul agregatlari nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
4. Inflyatsiyaning mazmunini va turlarini tushuntiring.
5. Kreditni nima zarur qilib qo’yadi? Kredit tushunchasining mazmunini bayon qiling.

### ***Mavzuda qo’llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari***

#### **“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi**

Maqsad – kategoriya xarakteristika berish

Sinkveyn sxemasi:

- 1-qator – tushuncha
- 2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat
- 3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to’g’risidagi 3 ta fe’l
- 4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to’g’risidagi 4 so’zdan iborat so’z, so’z birikmasi
- 5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

**2-ilova.**

### **B.B.B. usuli asosida tarqatma materiallar**

	<b>Bilaman</b>	<b>Bilmayman</b>	<b>Bildim</b>
1	Kredit		
2	Ssuda		
3	Bank		
4	....		
5			

## **Mavzu bo'yicha test savollar**

1. Pul nima?

- A) Umumiy ekvivalent tovar
- B) Qiymat o'lchovi
- C) Muomala vositasi
- D) Boylik unsuri
- E) To'g'ri javob yo'q

2. Pulning vazifalari?

- A) Qiymat o'lchovi
- B) Muomala vositasi
- C) Jamg'arish vositasi
- D) A,B,C javoblar to'g'ri
- E) To'g'ri javob yo'q

3. Pul muomalasi qonuni nimani ifoda etadi?

- A) Pulning muomalada ko'payib ketishini
- V) Yangi pulni muomalaga kirib kelishini
- S) Muomalada bo'lgan pul miqdori sotiladigan tovar va xizmatlar jami summasiga to'g'ri,  
pul harakatining tezligiga nisbatan teskari mutanosibligini
- D) Hammasi to'g'ri

4. Pul turlari?

- A) Naqd va naqd bo'lмаган pullar
- B) Qog'oz va tanga pullar
- C) Joriy depozitdagi pul
- D) Muhlatli depozitdagi pul
- E) Hammasi to'g'ri

5. Pulning qaysi vazifasi narxning shakllanishi bilan bog'liq?

- A) Muomala vositasi vazifasi
- V) To'lov vositasi
- S) Qiymat o'lchovi
- D) Hammasi to'g'ri
- E) Hammasi noto'g'ri

## **17-mavzu.Jahon bozori va xalqaro savdo. Xalqaro iqtisodiy integratsiya**

**Reja:**

- 1. Jahon bozori va xalqaro savdo-sotiq**
- 2. Mamlakat to'lov va savdo balansining asosiy mazmuni**
- 3. Xalqaro valyuta tizimi va valyuta munosabatlari**
- 4. Xalqaro iqtisodiy integratsiya**

### **17.1. Jahon bozori va xalqaro savdo-sotiq**

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, «Dunyo bozoriga chiqishning eng ma'qul yo'li chet ellardagi eng yirik va nufuzli firma va kompaniyalar bilan yaqindan hamkorlik qilib, qo'shma korxonalar tuzish hisoblanadi. Biznes olamining eng katta muammosi mahsulot ishlab chiqarish emas, balki uni sotish, xaridor topish»dir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda savdo-sotiq yetakchi o'rinda turadi va bu jahon bozorida o'z ifodasini topadi.

Jahon bozori XVI asrda, buyuk geografik kashfiyotlar davrida paydo bo'lган. XVIII asr oxirida va XIX asrda G'arbiy Evropa va Shimoliy Amerikadagi yetakchi mamlakatlar yirik sanoat ishlab chiqarishga o'tishi jahon bozori rivojini ancha yuqori bosqichga olib keldi.

**Jahon bozori** – xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-birlariga bog'langan turli mamlakatlar o'rtasidagi barqaror oldi-sotdi munosabatlaridir. Jahon bozori tovar-pul munosabatlarining xalqaro mahsuli, bu munosabatlarning o'zi esa umuminsoniy voqeilik. Shunga ko'ra, jahon bozori o'z yaxlitligini saqlaydi. Umuminsoniy aloqalarning mavjudligi jahon bozoriga barqarorlik baxsh etadi.

Jahon bozori tovarlar, xizmatlar, moliya, ilmiy ishlanmalar, mehnat bozorlaridan iborat. Mehnat taqsimoti qanchalik chuqurlashsa, turli mamlakatlardagi ishlab chiqarish ko'lami qanchalik oshsa, jahon bozori shunchalik kengayadi, u yerda sotiladigan tovarlar va xizmatlar ko'payadi, bozor ishtirokchilarining soni ortadi. Jahon bozori unga xos infrastruktura orqali amal qiladi. Bu infrastruktura xalqaro tovar birjalari, fond birjalari, banklar, auksionlar, moliya-sug'urta, savdo-sanoat kompaniyalari, ishga yollovchi firmalar faoliyatida ifoda etiladi. Jahon bozori milliy bozordan farq qilgan holda ishlab chiqarishning mamlakatlararo ixtisoslashuviga va shunga ko'ra, ularning bir-biriga tovar yetkazib berish zarurligiga asoslanadi. Bu yerda turli mamlakatlar ishlab chiqaradigan tovarlarning

hammasi emas, balki mamlakatlararo ayirboshlanishi zarur bo'lgan turlarigina sotiladi. Binobarin, jahon bozorining tovar assortimenti cheklangan bo'ladi. Ularga asosan, asbob-uskuna, neft, ko'mir, gaz, metal, paxta, don, choy, kofe, jun, yog'och kabi tovarlar kiradi.

## 1-shakl.


### Xalqaro tovar va xizmatlar savdosi

**Xalqaro savdo (XS)** – bu tovar va xizmatlar eksporti orqali amalga oshiriladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakli

#### Xalqaro savdoning ahamiyati:

milliy resurs negizi chegaralarini bartaraf etish;  
ichki bozor hajmini kengaytirish va milliy bozorning jahon bozori bilan aloqasini o'rnatish;  
ishlab chiqarishning milliy va xalqaro xarajatlari farqi hisobiga ko'shimcha daromadni ta'minlash;  
xorijiy resurslarni jalb qilish hisobiga ishlab chiqarish miqyosini kengaytirish.

## 2-shakl.




### 3-shakl

#### Xalqaro savdo nazariyaları

Nazariyalar	Mualliflar	Asosiy mazmuni
<b>Mutlaq ustunlik nazariyasi</b>	A.Smit	Xalqaro savdoni mavjud bo'lishi va foydaliligi ishlab chiqarish xarajatlarning mutlaq hajmlarining farqliligi bilan ifodalanadi. Bu nazariya bo'yicha xalqaro savdoni asosida xalqaro mehnat taqsimoti va mamlakatlarning tovarlarni ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuvi, ya'ni ularni ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha mutlaq ustunlikka ega bo'lishi bilan ifodalanadi.
<b>Nisbiy ustunlik nazariyasi</b>	D.Rikardo	Xalqaro savdoni asosida mehnat taqsimoti va mamlakatlarning tovarlarni ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuvi yotadi, mazkur mamlakatda bir tovvari ishlab chiqarish xarajatlari boshqa tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan, shuningdek, boshqa malakatlardagiga nisbatan ham past.
<b>Xeksher-Olinning tashqi savdo nazariyaları</b>	E.Xeksher - B.Olin	Mamlakatlar o'zlarida nisbatan ortiqcha bo'lgan resurslar asosida ishlab chiqariladigan tovarlarni eksport qiladi va taqchil bo'lgan resurslar asosida ishlab chiqariladigan tovarlarni import qiladi.
<b>Raqobat ustunliklarini shakllanish nazariyasi</b>	M.Porter	Hozirgi jamiyatda mamlakatlar tarmoq va firmalarni raqobat ustunligini shakllantirishlari kerak, shuningdek, ichki bozorni rivojlanishiga, aloqador va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlarni rivojlanishiga, milliy biznesni rivojlanishi uchun qulay iqtisodiy shart-sharoit yaratishlarni orqali.

#### 4-shakl.



## 5-shakl

### 17.2. Mamlakat to'lov va savdo balansining asosiy mazmuni


**To'lov balansi** – mamlakatning tashqi iqtisodiy munosabatlarining ma'lum vaqt oralig'i bo'yicha mamlakatga kelib tushgan (to'lov balansi aktiv qismi) va mamlakatdan tashqariga o'tkazilgan (to'lov balansi passiv qismi) to'lovlardan munosabatining joriy holatini aks ettiradi

To'lov balansi	<p>▶ Savdo balansi</p> <p>▶ tovar operatsiyalari bo'yicha pul tushumlari va to'lovlarini qamrab oladi</p>
	<p>▶ xizmatlar bo'yicha to'lov va tushumlar (pochta, injenerlik xizmatlari, sug'urta, fraxt va hokazolar bo'yicha)</p>
	<p>▶ diplomatik xizmatlar, xorijiy turizm, pul o'tkazmalari, nafaqa va h.k.lar bo'yicha hisob-kitoblar</p>
	<p>▶ kapital va kreditlar harakati bilan bog'liq pul oqimlari (investitsiyalar, qo'yilmalar, foizlar, foyda va h.k.)</p>

## 6-shakl

### To'lov balansining tuzilishi

I. Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovar eksporti	2. Tovar importi
Tashki savdo balansi qoldig'i	
Xizmatlar eksporti (chet el turizmidan daromadlar va h.k. - kreditli xizmatlar)	
Xizmatlar importi (turizm uchun chet elga to'lovlar va h.k. - kreditli xizmatlar)	
5. Investitsiyalardan sof daromadlar (kreditli xizmatlardan sof daromadlar)	
6. Sof transferlar	
Joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldigi	
II. Kapital harakati hisobi	
7. Kapital kirishi	8. Kapital oqib chiqishi
Kapital harakati balansi qoldig'i	
Joriy operatsiyalar va kapital harakati bilansi qoldig'i	
III. Rasmiy ehtiyojlarning o'zgarishi	



### 17.3. Xalqaro valyuta tizimi va valyuta munosabatlari

**Xalqaro valyuta tizimi** — tashqi bozorlarda markaziy emissiya banklari faoliyatini tartibga soluvchi muassasalar, qonunlar, qoidalar to'plamini o'zida namoyon etadi.


#### Xalqaro valyuta tizimlarining tarkibiy unsurlari:

- asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valyutalar, oltin, DTT, EKYU);
- valyuta kurslarini belgilash va qo'llab-quvvatlash mexanizmi;
- valyutalarning ayirboshlanish (konvertatsiyalanish) shartlari;
- xalqaro bozorlar tartibi;
- valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo moliyaviy muassasalarining nufuzini belgilash.

7-shakl

Xalqaro valyuta tizimlari			
Valyuta kurslari tizimi	Amal qilish davri	Tizimning turi	Valyuta kurslari rejimi
Oltin standart tizimi	XIX asr oxiri -1930 yy.o'rtalari	Oltin standarti	Oltin pariteti bo'yicha qat'iy belgilangan valyuta kurslari
Bretton-vuds tizimi	1940-yy. o'rtalari – 70-yy. boshi	Oltin dollar standarti	Dollarga va oltinning dollardagi rasmiy narxiga nisbatan valyutalarning yuzaga kelgan bozor kurslari asosida qat'iy belgilangan valyuta kurslari

<b>Harakatlanuvchi kurslar tizimi (Yamayka tizimi)</b>	1971 yildan dollarni oltinga konvertatsiya si bekor qilindi	Ko'p valyutali standart	Mintaqaviy valyuta guruhlari va DTT, EKYU, Yevro, AQSH dollari hamda boshqa VKT doirasida o'zaro bog'liq, harakati boshqariladigan valyuta kurslari
--	---	-------------------------	---



### Kapital migratsiyasining asosiy sabablari va xususiyatlari

8-shakl

**Kapitalni chetga chiqarish va boshqa mamlakatlarda korxonalar tashkil etish asosida kapital internatsionallashadi va transmilliy lashtiriladi, transmilliy korporatsiyalar tashkil etiladi (TMK)**

**TMK — bu:**

- ikki yoki bir necha mamlakatlarda shu'ba korxonalarini boshqaradi;
  - bir yoki bir necha markazlardan shu'ba kompaniyalari faoliyatiga ta'sir va aloqani ta'minlaydi.
- TMK jahon savdosini tarkibini o'zgartiradi va uni o'z qiziqishlariga bo'yundiradi.

Kapitalni hozirgi vaqtida chetga chiqarish xususiyatlari:

- yangi texnologiyalar sohasida bevosita investitsiyalarga ega ishlab chiqarish kapitali eksportlari miqyosi ortishi;
- yuqori rivojlangan mamlakatlar tomonidan kapitalni tashqariga chiqarish;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning kapital eksportchilari sifatida ahamiyati ortishi

## 17.4. Xalqaro iqtisodiy integratsiya

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya** - siyosiy mustaqilligini saqlangani holda umumiy iqtisodiy maqsadlarni ko'zlagan mamlakatlarning birlashishi.

### Xalqaro iqtisodiy integratsiya

- \* XMTning jadal rivojlanishi va kooperatsiya
- \* mamlakatlararo hamkorlikning ma'qullanishi
- \* davlatning kelishilgan iqtisodiy siyosati
- \* hamkor mamlakatlar bilan hamkorlik hududlari kengayishi

Iqtisodiy integratsiyaning o'ziga xos belgilari  
mamlakatiarni birlashtirish jarayonini o'zida namoyon etadi. U  
xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish kopperatsiyasi va milliy  
takror ishlab chiqarish jarayonlariga birgalikda kirib borish asosida  
milliy xo'jaliklar o'rtasida chuqur va barqaror o'zaro aloqalarni o'rnatishni  
ko'zda tutuvchi **xo'jalik hayotini baynalminallashtirishning olyi  
darajada namoyon etish shakli** sifatida ishtirok etadi.

### 9-shakl

Integratsion birlashmalarning asosiy  
turlari


**Erkin savdo hududlari** – ishtirokchi mamlakatlar o'zaro savdoda bojxona to'siqlarini  
bekor ailish bilan cheklanadilar

**Bojxona ittifoqi** – guruh ichida tovar va xizmatlarning erkin joylashtirilishi uchinchi  
mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tariflarini to'ldiradi va bojxona daromadlarini  
mutanosib taqsimot tizimi yaratiladi

**Umumiyl bozor** – ishchi kuchi va kapitalni joylashtirish uchun o'zaro  
savdoda mamlakatlar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etadi

**Iqtisodiy ittifoq** - umumiyl bozor va yagona iqtisodiy siyosat o'tkazish,  
mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni davlatlararo tartibga solish  
tizimini tashkil etishni o'z ichiga oladi

**Valyuta ittifoqi** – yagona bank tizimi va yagona valyutaga  
asoslangan iqtisodiv ittifoq



### Tayanch tushunchalar

**Xalqaro savdo** – bu turli davlat milliy xo'jaliklari o'rtaсидаги tovar va xizmatlarning ayirboshlash jarayonidir.

**Eksport** – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

**Import** – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

**Eksport salohiyati (eksport imkoniyatlari)** – mazkur mamlakat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning o'z iqtisodiyoti manfaatlariga putur etkazmagan holda jahon bozorida sotishi mumkin bo'lgan qismi.

**Reeksport** – biror bir mamlakatning boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilishi.

**Reimport** – iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.

**Erkin savdo (fritrederlik) siyosati** – xalqaro savdo hajmlarini o'sishiga olib keluvchi turli tarif va kvotalarni qisqartirish, milliy iqtisodiyotning ochiqligini yanada kuchaytirish.

**Xalqaro valuta tizimi** – xalqaro valuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

**Valuta kursi** – bir mamlakat valutasining boshqa mamlakat valutasida ifodalangan narxi.

**To'lov balansi** – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

**Iqtisodiy bitimlar** – qiymatning har qanday ayriboshlanishi, ya'ni tovarlar ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlar.

**Absorbtsiya** - yalpi ichki mahsulotning mazkur mamlakatdagi uy xo'jaliklari, korxonalar va davlatga realizatsiya qilinadigan qismi.

**Xalqaro valuta-kredit munosabatlari** – pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi,

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Ichki va tashqi savdoning o'xshashliklari nimadan iborat? Ularning farqi-chi?
2. Xalqaro savdo qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?
3. Nima uchun xalqaro savdoda sun'iy to'iqlar mavjud bo'ladi? Ularning tavsifini bering
4. Xalqaro valuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamchiliklarga ega?
5. Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlarga qaysi tashkilotlar kiradi?

### ***Mavzuda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiya usullari***

#### **1. B.B.B. jadvali**

	<b>Bilaman</b>	<b>Bilmayman</b>	<b>Bildim</b>
1	xalqaro savdo		
2	to'lov balansi		
3	proteksionizm		
4	xalqaro iqtisodiy tashkilot		

### **2. Zig-zag strategiyasi uslubi**

Tarqatma materiallar ta'lim oluvchilar tomonidan yakka tartibda yoki guruh-guruh bo'lib o'zlashtiriladi. Ular dars jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda matnlar bilan ishlashni o'rghanadilar. 4 bosqichdan iborat

bo‘lib, 1-bosqichda 4–5 kishidan iborat kichik guruqlar tashkil etib, har bir guruhga alohida topshiriq berish; 2-bosqichda guruhlarga berilgan matnlar alohida mustaqil o‘rganiladi; 3-bosqichda 1, 2, 3, 4, 5 raqamlar yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi; 4-bosqichda guruhlardagi bir xil raqamli ishtirokchilar alohida stol atrofida o‘tirishadi va o‘qituvchi romida o‘rgangan mavzusini hammaga tushuntirib beradi. Guruh ishtirokchilari savollar asosida bir-birlarining bilimini tekshirib ko‘radi.

### **Mavzu bo‘yicha test savollar**

**1. O’zbekiston tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda qanday tamoyillarga amal qilmoqda?**

- a) faqat umuminsoniy manfaatlarni inobatga olish
- b) faqat milliy manfaatlar asosida ish yuritish
- v) sinfiy va umuminsoniy manfaatlarga asoslanish
- g) umuminsoniy va milliy manfaatlarning mushtarakligi asosida ish yuritish

**2.OPEK tashkilotiga a’zo davlatlar qanday faoliyatlar bilan shug’ullanadi?**

- a) metallurgiya sohasida
- v) mashinasozlik sohasida
- g) neftni ishlab chiqarish va sotish bilan
- d) yengil sanoat sohasida

**3.Import - ...**

- a) iqtisodiy aloqalarni yo’lga qo’yish bo‘yicha tuzilgan shartnomalar
- b) xorijiy mamlakatlarga sotilgan mahsulot, ish va xizmatlarning umumiy miqdori
- v) mahalliy rezidentlar tomonidan xorijdan xarid qilingan tovar va xizmatlar umumiy miqdori
- d) to’g’ri javob yo’q

**4.Jahon valyuta tizimi o’zining rivojida nechta bosqichdan o’tgan?**

- a) 2 ta
- b) 3 ta
- v) 4 ta
- g) 6 ta
- d) to’g’ri javob yo’q

**5. Valyuta kurslarining o’zgarishiga qanday omil ta’sir ko’rsatadi?**

- a) mamlakatlar milliy daromadining o’zgarishi
- b) xalqaro narxlardagi nisbiy o’zgarishlar
- v) milliy valyutalarga talab va taklifning o’zgarishi
- g) yuqoridagi barcha omillar
- d) to’g’ri javob yo’q

## Mundarija

Kirish .....	3
1-bob.«Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti va o'rganish metodlari.....	5
1.1 Iqtisodiyot tushunchasi va iqtisodiy bilimlarni vujudga kelishi.....	5
1.2.Iqtisodiyot muammosi va uning asosiy masalasi .....	6
1.3. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi.....	7
1.4. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va urganish metodlari.....	9
2-mavzu.Bozor tushunchasi, uning mohiyati va vazifalari .....	18
2.1.Bozor tushunchasi va bozorlarning paydo bo'lishi. ....	18
2.2 Bozor turlari .....	20
2.3 Bozorning vazifalari va iqtisodiy ahamiyati. ....	23
2.4 Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.....	25
3-mavzu. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari .....	28
3.1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.....	28
3.2. Bozor islohotlari .....	30
3.3. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli.....	32
3.4. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va kamchiliklari .....	34
4-mavzu. Talab va taklif. Bozor muvozanati .....	39
4.1.Talab tushunchasi. Talab konuni. Talab miqdoriga ta'sir kiluvchi omillar. ....	39
4.2.Talabning turkumlanishi. ....	41
4.3. Taklif tushunchasi.Taklif qonuni. Taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar .....	42
4.4 Muvozanatli baho .....	43
5-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati va kichik biznes tushunchasi va ularning mohiyati. ....	48
5.1. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, uning vazifasi va rivojlanish shart- sharoitlari. ....	48
5.2. Tadbirkorlik faoliyati shakllari va asosiy turlari. ....	50
5.3. Menejment va marketingni tadbirkorlik faoliyatida tutgan o'urni. ....	51
5.4. Tadbirkorlik kapitali va uning harakati.....	53
5.5. O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish.....	54
6-mavzu. Iqtisodiy faoliyat va uning samaradorligi. Sarf – xarajatlar va foyda.....	59
6.1. Iqtisodiy faoliyat va uning mazmuni va turlari .....	59
6.2. Ishlab chiqarish jarayoni mazmuni va uning o'ziga xosligi.....	60
6.3. Ishlab chiqarish omillari va uning tarkibi .....	60
6.4. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	61
6.5. Iqtisodiy xarajatlar tushunchasi.Doimiy, o'zgaruvchan, va umumiy xarajatlar.....	63
6.6. Foya mazmuni. Foya me'yori va massasi. ....	69
7-mavzu. Ish haqi. Axoli daromadlari va turmush darajasi .....	74
7.1. Ish haqining tashkil etishning shakllari.....	74
7.2. Ish haqi tizimi. Nominal va real ish haqi. ....	76
7.3. Ish haqi darajasining tabaqalashuvi. ....	77
7.4. Mehnat tushunchasi va munosabatlari va shartnomalari tizimi.....	78
7.5. Axoli daromadi va turmush darajasi. ....	80
7.6. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro aloqasi.....	84
8-mavzu.Raqobat nazariyasi .....	91
8.1. Raqobat tushunchasi va uning mohiyati .....	91
8.2. Monopolialarning iqtisodiy asoslari va ularning turlari.....	98
8.3. Antimonopol qonunchilik va raqobat uchun shart-sharoitlarni yaratish.....	102
9-mavzu.Narxning mohiyati va shakllanish mexanizmi .....	107
9.1.Narx tushunchasi va vazifalari .....	107
9.2.Narxning shakllanishiga ta'sir e'tuvchi omillar .....	110

9.3.O'zbekistonda amaldagi narx tizimi va turlari .....	110
9.4. Rakobatning turli ko'rinishlari sharoitida narxning shakllanishi. ....	113
<b>10-mavzu.Bozor iqtisodiyotining tartiblanishi .....</b>	<b>116</b>
10.1.Iqtisodiyotni tartiblash va uning zarurligi .....	116
10.2.Iqtisodiyotni tartiblashda bozor mexanizmi .....	118
10.3. Iqtisodiyotni tartiblashda davlatni roli va vazifalari .....	120
10.4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning monetar va yangi klassik modellari. ....	123
<b>11-mavzu. Agrar munosabatlar .....</b>	<b>128</b>
11.1.Agrar munosabatlar va jamiyatning agrar sektorlari .....	128
11.2.Yer mulk hamda xo'jalik yuritish ob'ekti sifatida ijara munosabatlari .....	129
11.3.Renta munosabatlari va uning miqdoriga ta'sir etuvchi omillar .....	131
11.4. Agrasanoat integratsiyasi .....	134
11.5Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi .....	135
<b>12–mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari. Yalpi milliy mahsulot...</b>	<b>143</b>
12.1. Takror ishlab chiqarish mohiyati va maqsadi.....	143
12.2.Maqroiqtisodiy ko'rsatkichlarning roli .....	144
12.3. Milliy iqtisodiyot va uning ko'rsatkichlari.....	146
12.4. YaMMning mazmuni va tarkibiy qisimlari.....	147
12.5. YAMMni hisoblash usullari .....	149
<b>13-mavzu.Iste'mol, jamg'arish va investitsiyalar.</b> .....	<b>156</b>
13.1. Iste'mol va jamgarmaning iqtisodiy mazmuni .....	156
13.2. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularni belgilovchi omillar. ....	158
13.3.Investitsyaning iqtisodiy mazmuni. ....	160
13.4. O'zbekistonda investitsiya faolligini ta'minlash .....	161
<b>14-mavzu. Ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik .....</b>	<b>167</b>
14.1. Ishchi kuchi va uni takror xosil qilish xususiyatlari .....	167
14.2. Ishchi kuchiga talab va taklif. Ishsizlikni mazmuni, kelib chiqish sabablari .....	168
14.4. Ouken qonuni va fillips egri chizig'i .....	170
14.5. O'zbekistonda ishsizlarni ijtimoiy himoyalash .....	171
<b>15-mavzu. Moliya tizimi.....</b>	<b>178</b>
15.1. Moliya tushunchasi va moliya munosabatlari .....	178
15.2.Moliyaviy resurslar va moliyaviy vazifalar.....	179
15.3.O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi moliyaviy siyosatining assosiy yo'nalishlari.....	181
15.4. Davlat budjeti va uning shakllanishi.....	181
15.5. Budjet taqchilligi va O'zbekistonda budget tizimini takomillashtirish .....	183
15.6. Davlatning soliq tizimi va uning vazifalari .....	184
<b>16- mavzu.Kredit va bank tizimi. Pul muomalasi.....</b>	<b>189</b>
16.1. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.....	189
16.2. Kreditning turlari va tamoyillari.....	190
16.3.Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari.....	191
16.4. Pul muomalasi tizimi nazariyasi. Pul muomalasi konuni va pul miqdoriga ta'sir etuvchi omillar.....	193
16.5. Inflyatsiya, uning sabablari, oqibatlari va infliyatsiyaga qarshi chora-tadbirlar .....	195
16.6. O'zbekistonda milliy valyutani joriy qilinishi.....	197
<b>17-mavzu.Jahon bozori va xalqaro savdo. Xalqaro iqtisodiy integratsiya .....</b>	<b>201</b>
17.1. Jahon bozori va xalqaro savdo-sotiq.....	201
17.2. Mamlakat to'lov va savdo balansining asosiy mazmuni.....	205
17.3. Xalqaro valyuta tizimi va valyuta munosabatlari .....	206

17.4. Xalqaro iqtisodiy integratsiya.....	208
Mundarija.....	212
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	215

## **Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2008.
2. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". - T.: "O'zbekiston", 2009.
3. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2015 yil 17 yanvar.
5. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2008 yilda respublikani ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'naliishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2009 yil 14 fevral, № 33-34 (4696-4697).
6. Слагода В.Т. Основы экономической теории. Учебник. - М.: ФОРУМ: ИНФРА-М. 2009. - 272 с.
7. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: «Sharq», 2006.
8. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. 2-kitob: Oliy o'quv yurtlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. - T.: «Sharq», 2003.
9. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2002.
10. Shodmonov Sh., Jo'raev T., Alimov R.O'. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: "Moliya", 2002.
11. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik) -T.: «Sharq», 2006.
12. Shodmonov Sh., G'ofurov U. va boshq. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. - T.: «Iqtisodiyot», 2010.

13. Экономическая теория. Учеб. для студ.высш. учеб. заведений. Под. Ред. В. Д. Камаева.-7-е изд, перераб и доп. - М.: «Гуманитарное издательство центр ВЛАДОС», 2000.
14. F.Egamberdiyev, S. Topildiyev, J. Hamroqulov. Iqtisodiyot nazariyasi. –Т.: “Iqtisodiyot- Moliya”, 2014.
15. M. Yo’ldoshev, Sh.Mamatqulov, F. Yo’ldoshev Iqtisodiyot nazariyasi. –Т.: “Ilm Ziyo”, 2014.
- 16.
17. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
18. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
19. [www.tdiu.uz](http://www.tdiu.uz)
20. [www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)